

Shukurullo Mardonov
Onaxon Jabborova

BOSHLANG'ICH SINF
O'QUVCHILARI MA'NAVIYATINI
SHAKLLANTIRISHNING INNOVATSION
METODIKASI



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**Shukurullo Mardonov
Onaxon Jabborova**

**BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARI MA'NAVIYATINI
SHAKLLANTIRISHNING INNOVATSION METODIKASI**

TOSHKENT-2024

UO'K 373.3;130.2;17
KBK 74.2;87.7
M-63

Mardonov Sh., Jabborova O. / Boshlang'ich sinf o'quvchilari ma'naviyatini shakllantirish innovatsion metodikasi. / Monografiya. – T., 2024. -136 b

Mazkur monografiyada Yangi O'zbekiston taraqqiyotida ma'naviyatning tutgan o'rni va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'naviyat-hayotimizda yangi kuch, yangi harakatga aylanishi kerak" nutqi asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviyatini shakllantirish innovatsion metodikasi masalalari tahlil qilib berilgan. Unda o'quvchilarining ma'naviyatini shakllantirishdagi innovatsion metodikalardan foydalanish bo'yicha tavsiyalar taqdim etilgan.

Monografiya boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalari, amaliy faoliyatdagi boshlang'ich sinf o'qituvchilari va muammo bilan qiziquvchi keng jamoatchilikka mo'ljallangan.

Mas'ul muharrir: akademik X.I. Ibraimov
Taqrizchilar: p.f.d., dos. K.A. Karimov
p.f.f.d (PhD) F.I. Ochilov
f.f.d., prof. D.M. Jamoliddinova

Monografiya Chirchiq davlat pedagogika universiteti ilmiy-texnik Kengashining 2024 yil 29 apreldagi 8-sonli majlisida nashrga tavsiya etilgan.

UO'K 373.3;130.2;17
KBK 74.2;87.7

ISBN 978-9911-264-78-7

© Mardonov Sh. va b., 2024
© "Osiyo tur", 2024

MUQADDIMA

"O'zbekiston-2030" strategiyasi ijrosi jarayonida ma'naviyatni jamiyat miqyosida rivojlantirish masalasi ham muhim o'rin tutadi. Bunda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan taklif etilgan "barcha sohalar orasida ma'naviyat o'n qadam oldin yurishi kerak" tamoyiliga asoslanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu tamoyilning ma'nosi shuki, insonning aqliy, ruhiy va estetik taraqqiyotida uning ma'naviy olami ilk rejada turadi, shu sababli mazkur masalalar bevosita ma'naviyat ijtimoiy hodisasini idrok qilib olishni taqozo etadi. Bularning barchasi boshlang'ich sinf o'quvchilari ma'naviyatini shakllantirish innovatsion metodikasini ishlab chiqish zaruriyatini belgilaydi. Shu sababli mazkur masalada ana shu zaruriyatlarga asosan tahlil jarayoni taqdim etilgan.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviyatni shakllantirish innovatsion metodikasini ishlab chiqish zaruriyatlari quyidagilar bilan belgilanadi:

boshlang'ich sinf o'quvchilari ma'naviy jihatdan rivojlanish jarayonida bo'lganligi uchun ularning ma'naviyatini to'g'ri shakllantirish va bunda innovatsion metodikalarga asoslanish;

boshlang'ich sinf o'quvchilari ma'naviyatini shakllantirish innovatsion metodikasi nazariy masalalarini tahlil qilish;

boshlang'ich sinf o'quvchilari ma'naviyatini shakllantirishning innovatsion didaktikasi asoslarini ishlab chiqish;

boshlang'ich sinf o'quvchilari ma'naviyatini shakllantirishning innovatsion metodologiyasini yaratish;

boshlang'ich sinf o'quvchilari ma'naviyatini shakllantirish innovatsion metodikasining istiqbolli yo'nalishlarini belgilash.

Mazkur masalalar tahlili O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 22 dekabrda Respublika Ma'naviyat va ma'rifat Kengashining kengaytirilgan yig'ilishida so'zlagan nutqida

ilgari surilgan g'oyalar, fikrlar va yondashuvlar asosida tahlil qilib berildi.¹

Qo'lingizdagi ushbu monografiyada boshlang'ich sinf o'quvchilari ma'naviyatini shakllantirishning innovatsion metodikasini ishlab chiqish masalasiga asosiy e'tibor qaratildi.

Ta'kidlanganidek, monografiya oliy pedagogik ta'lim muassasalari boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalari, amaliy faoliyatdagi o'qituvchilar hamda ushbu muammo bilan qiziquvchi keng jamoatchilikka mo'ljallangan.

Monografiyaga doir fikr-mulohazalaringizni kutib qolamiz.

I BO'LIM

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARI MA'NAVİYATINI SHAKLLANTIRISH INNOVATSION METODIKASINING NAZARIY MASALALARI

1.1. Ma'naviyatning mazmuni

“O'zbekiston-2030” strategiyasida boshlang'ich ta'limda sifat ko'rsatkichlariga erishish va buning uchun boshlang'ich ta'lim muammolarini keng tadqiq etish vazifalari qo'yilgan. Ana shunday muammolardan biri boshlang'ich sinf o'quvchilari ma'naviyatini shakllantirishni innovatsion metodikasini ishlab chiqishdan iborat. Chunki bugungi kunda turlicha qarashlar, g'oyalar va yondashuvlar yangicha asoslarda takomillashib bormoqda. Shu sababli boshlang'ich sinf o'quvchilari ma'naviyatini innovatsion metodikalar asosida shakllantirish muammosini hal qilish muhim ahamiyatga egadir. Mazkur o'rinda ma'naviyat hodisasining mazmuni tahliliga e'tiborimizni qaratamiz.

“Ma'naviyat” tushunchasi arabcha so'z bo'lib, ma'no, ma'nolar majmuasi degan mazmuni anglatadi.² Shu ma'noda ma'naviyat inson uchun moddiy hayot bilan birgalikda namoyon bo'ladigan ma'naviy hayot ijtimoiy hodisasini ifodalaydi. Bu tushuncha insonning ma'naviy olami (ichki dunyosi), ongi, aqli va ruhiyati bilan bog'liq bo'lib, uning ma'no-mazmuni inson faoliyatida namoyon bo'ladi. Mazkur tushuncha birinchi bor Jaloliddin Rumiyning (1207-1270) “Ma'naviy masnaviy” asarida qo'llangan bo'lib, “inson ma'naviy borlig'i” ma'nosi sifatida ishlatilgan.³

Biz ma'naviyat tushunchasini pedagogik nuqtai nazardan qabul qilamiz. Shu jihatdan ma'naviyat tushunchasida bizning yondashuvimizga ko'ra, quyidagilar muhim o'rin tutadi:

1) ma'noli fikrlash;

¹ Nazarov Q., Qarshiboyev M. Va boshqalar. Ma'naviyat asosiy tushunchalar izohli lug'ati. – T.: O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati nashriyoti, 2010. 353-bet.

² Jaloliddin Rumi. Ma'naviy masnaviy. 5-jild. –Toshkent, 2005-2008

¹ Mirziyoyev Sh.M. Ma'naviyat – hayotimida yangi kuch, yangi xarakterga aylanishi kerak. – Toshkent, 2024

- 2) ma'noli yashash;
- 3) ma'noli faoliyatda bo'lish.

Bunday yondashuv o'zining asoslariga ega ekanligini ta'kidlab o'tish lozim. Shu jihatdan inson hayotida **ma'noli fikrlash** ko'nikmasini tarkib toptirish uni insoniylik olamiga olib kirishning muhim pedagogik vositalaridan biri hisoblanadi. Ma'noli fikrlash ko'nikmasi jamiyatimiz sharoitida quyidagi tizimda tarkib toptiriladi:

- a) oila tarbiyasi jarayonida bolada yaxshilik va yomonlikni farqlash odatini tarkib toptirish;
- b) ta'lim tizimi vositasida o'quvchilarning ma'noli fikrlash ko'nikmasini shakllantirish;
- v) jamiyat, ya'ni jamoatchilik ishtiroki vositasida insonning ma'noli fikrlashini rivojlantirib borish.

Bunday tizimli yondashuvni idrok qilish insonni ma'noli fikrlashga o'rgatishning muhim omili hisoblanadi. Misol uchun, bola yaxshilik va yomonlikni farqlashda oilada odatlanadi. Shu sababli oilada bolaga nisbatan oqilona munosabatda bo'lish va oila hayotida "Qush uyasida ko'rganini qiladi" hikmatiga tayanish taqozo etiladi. Bunda ota-onalar yoki oila a'zolarining katta yoshlilari so'z va ish birligiga amal qilishi bolaning ma'naviy ko'nikmalarini to'g'ri tarkib toptirishga asos bo'lishini unutmaslik lozim. Mashhur shoirimiz O'zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusuf jurnalistlar bilan bir suhbatida "Biz oilada tutadigan o'zligimizga jamiyatda amal qilmaymiz" degan edi. Buning ma'nosi shuki, oiladagi hayot va tarbiya jamiyat hayotiga mos bo'lishi kerak. Bu bilan bola yaxshilik va yomonlikni tez farqlashga odatlanadi, natijada uning ma'naviy olamida yaxshilikka bo'lgan intilish tarkib topadi.

Ta'lim tizimi vositasida shaxsning ma'noli fikrlash ko'nikmasi tarkib toptiriladi. Unga ko'ra, shaxs fikrida ma'no-mazmun, qisqalik, aniqlik va tushunarlik o'z ifodasini topishi kerak. Undan tashqari shaxs o'zining fikrini yozma va og'zaki shakllarda ifodalash ko'nikmasiga ham ega bo'lishi lozim. Bunda asosiy e'tibor

quyidagilarga qaratilishi maqsadga muvofiq bo'ladi: maktabgacha ta'limda bolalarning fikrlash ko'nikmasini tarkib toptirish, boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning mustaqil fikrini shakllantirish va umumiy o'rta ta'limda o'quvchilarning o'z fikrini yorqin ifodalash ko'nikmasini tarkib toptirish muhim o'rin tutadi. Huddi shuningdek, o'rta maxsus va oliy ta'lim jarayonida shaxsning ma'noli fikrlash ko'nikmasi ilmiy malakaga aylanadi. Buning natijasida shaxs hayotida va uning shaxsida ma'noli fikrlashning tarkib topishi kutilgan darajada amaliyot kasb etadi. Chunki har bir jamiyatda, ayniqsa, innovatsion jamiyat sharoitida shaxsning ma'noli fikrlash ko'nikmasiga ega bo'lishi taqozo etiladi va shu sababli ma'noli fikrlash bugungi kunda ma'naviyatning asosiy vositalaridan biri hisoblanadi.

Kezi kelganda ta'kidlash lozimki, insonlarning ko'pchiligi muayyan sharoitlar tufayli oliy ta'lim bilan qamrab olinmasligi ma'lum. Shu sababli oliy ta'lim bilan qamrab olinmagan shaxsning ma'noli fikrlash ko'nikmasini tarkib toptirishga jamoatchilik imkoniyatlaridan foydalaniladi. Misol uchun, shaxs jamoaning ehtiyojlari va talablariga mos ravishda fikrlashi kerak. Aks holda uning fikrlari tushunarsiz va noaniq bo'ladi. Buning natijasida shaxs jamoa hayotida o'z o'rniga ega bo'lmaydi. Shu sababli keyingi paytlarda jamiyatning, ya'ni jamoatchilikning shaxsda ma'noli fikrlash ko'nikmasini axloqiy ta'sir ko'rsatish, rag'batlantirish yoki korreksiyalash kabi vositalar asosida rivojlantirishga asosiy e'tibor qaratilmoqda. Buning natijasida shaxsda o'ziga xos mustaqil fikrlash, fikrlarning mazmundorligi va o'zgalarga ijobiy ta'sir ko'rsatish ko'nikmalari tarkib topib bormadi.

E'tibor berilsa, ma'naviyatning muhim tarkibiy qismi bo'lgan ma'noli fikrlash ko'nikmasi shaxs hayotida muhim o'rin tutadi va u maktabgacha ta'lim jarayonidan oliy ta'lim yakuniga qadar takomillashib malakaga aylanib boradi.

Ma'naviyatning muhim tarkiblaridan biri **ma'noli yashashdir**. Unga ko'ra, shaxs hayot mazmunini anglagan holda yashashi uning

o'zi va jamiyat uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Ma'noli yashash masalasi asrlar davomida mutafakkirlarni qiziqtirib kelgan va pedagogik etikada u hayot mazmunini anglash tushunchasi bilan ifodalanadi. Shu jihatdan shaxsda ma'noli yashash ko'nikmasi quyidagilar asosida tadrijiy tarkib topib boradi:

- a) bolalik davrida uni hayotga olib kirish;
- b) o'smirlik davrida uni mazmunli yashashga o'rgatish;
- v) keyingi hayotida ma'noli yashashning malakaga aylanib borishi.

Shaxsning bolalik davrida (1-11 yoshlarda) ma'noli yashash ko'nikmasi hayotiy faoliyatga olib kirish vositasida tarkib topadi. Misol uchun, bola oilada muayyan darajada yashash asoslari bilan tanishadi, biroq maktabgacha ta'limdan boshlab uning ongida mazmunli va to'g'ri yashash ko'nikmalari tarkib toptiriladi. Bunda ayniqsa maktabgacha va boshlang'ich ta'lim bosqichi muhim o'rin tutadi. Chunki bolalar bu ta'lim bosqichlari davrida jamoatchilik orasiga kirishi bilan jamiyat hayotining asoslari haqida tushuncha hosil qiladi va buning natijasida ularning ongida mazmunli yashash ko'nikmalari paydo bo'lib boradi. Mazkur davr shaxs hayotida muhim bosqich bo'lib, u halol va pok yashash ko'nikmalarini aynan shu davrda o'zlashtiradi. Shu sababli ma'noli yashashga o'rgatish maktabgacha va boshlang'ich ta'lim bosqichida amalga oshiriladigan tarbiya jarayoni negizlaridan birini tashkil qiladi. Bugungi kunda bu hol o'quvchilarni amaliy faoliyatga tayyorlash tushunchasi bilan ifodalanmoqda.

Shaxsning o'spirinlik davrida (12-17 yoshlarda) ma'noli yashashning asoslarini to'liq o'zlashtirish jarayoni kechadi. Chunki mazkur davrda shaxsda hayot mazmunini anglash, halol yashash qoidalariga o'zlashtirish va hayotiy axloq me'yorlariga amal qilish ko'nikmasi tarkib topadi. Bu bozor iqtisodiyoti va innovatsion jamiyat sharoitida muhimdir. Chunki jamiyatimizda shaxs o'smirlik davridan boshlab muayyan darajada mablag' topish ishlari bilan shug'ullanayotganligi ma'lum. Shu sababli o'smirlik davrida

o'quvchilar halol mehnat, pokiza yashash va o'zgaralar haqqiga qiyonat qilmaslik qoidalarini o'zlashtirishi ma'nodga muvofiq bo'ladi. Bu bilan ma'naviyatning muhim tarkibiy qismi bo'lgan ma'noli yashash asoslari o'zlashtiriladi. Bunda asosiy e'tibor shaxsda hayotiy ko'nikmalarni to'g'ri shakllantirishga qaratilishi ma'naviyat talablaridan biri hisoblanadi. Ya'ni hayotdagi murakkab vaziyatlarda o'zni tuta bilish, muammolar oldida esankiraslik va o'zligiga bo'lgan ishonchning tarkib topishi shaxsda ma'noli yashashning ko'nikmalarini tezkor yuzaga keltiradi. Keyingi paytlarda mazkur masalaning pedagogik jihatdan muhim ahamiyat kasb etib borayotganligini eslatib o'tish joiz.

Ma'naviyatning muhim tarkibiy qismi bo'lgan ma'noli yashash ko'nikmasi shaxsning 17 yoshdan keyingi hayotida malakaga aylanib boradi. Bu davrda u mustaqil shaxs sifatida faoliyat yuritadi va yashaydi. Bunda jamiyatning asosiy vazifasi shaxsning hayotiy ko'nikmasini to'g'ri rivojlantirish, uning halol yashashi uchun namunaviy ta'sir ko'rsatish va ma'naviy rag'batlantirib borishdan iborat. Pedagogik adabiyotlarda 17-30 yoshlar oralig'i shaxs hayotida o'tish davri, ya'ni uning mustaqil hayot kechirishga o'tishi sifatida baholab kelingan. Biroq bugungi kunda mazkur davrni 17-40 yoshlar oralig'ida belgilash taqozo etilmoqda. Chunki shaxs mazmunli yashash maqsadida turli faoliyatlar bilan shug'ullanmoqda va bu jarayonda ba'zida xatoliklarga yo'l qo'ymoqda. Buning uchun shaxs ongida mazkur davrda oila qadriyatlariga ko'nikish va uni muqaddas bilish, mahalla hayot tajribalariga moslashish va u faoliyat yuritadigan jamoada faol bo'lish malakalariga ko'niktirilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Shu jihatdan 17-40 yoshlar oralig'idagi shaxsning ma'noli yashash bo'yicha ko'nikmalariga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan targ'ibot ishlarini amalga oshirish kutilgan samarani beradi.

E'tibor qilinsa, ma'naviyatning muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lgan mazmunli yashash ko'nikmasini shakllantirish o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, u tabiiy jarayon sifatida diqqatni tortadi.

Ma'naviyatning muhim tarkibiy qismlaridan biri shaxsning **ma'noli faoliyatga** ega bo'lishidir. Buning uchun quyidagilarga e'tibor berish lozim:

- a) shaxsni moddiy ta'minlaydigan kasb-hunarga o'rgatish;
- b) shaxsni halol boylik ko'nikmasini tarkib toptirish;
- v) shaxsni ma'naviy tarbiya bilan shug'ullanishga yo'naltirish.

Ma'noli faoliyatning eng muhim asoslaridan biri shaxsning kasb-hunarli bo'lishidir. Bugungi kunda mamlakatimizda 1000 dan ortiq kasb va hunar shaxsga o'rgatilmoqda. Ular bozor iqtisodiyoti talablaridan kelib chiqib belgilangan va yangi turlagi kasb-hunarlar bilan boyitib boriladi. Shaxsni kasb-hunarli qilishda uning layoqati, qiziqishi va intilishdaridan kelib chiqiladi. Buning natijasida shaxs ma'noli faoliyat yuritishi uchun asos bo'ladigan malakaga ega bo'ladi. Misol uchun, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbusi bilan 2022 yildan boshlab mamlakatimizda dual ta'lim vositasida, ya'ni ishlab o'qish tizimi asosida yangi turdagi kasb-hunarlarini o'zlashtirish jarayoni yo'lga qo'yildi. Natijada shaxsning rabotatexnika, IT-parklarida ishlash mutaxassisliklari kabilar bilan muntazam tanishtirib borish tizimi yuzaga keldi. Chunki ma'naviyatning asosiy talablaridan biri ma'noli faoliyat ko'rsatish va buning uchun shaxs yashayotgan zamonga mos kasb-hunarlar bilan shug'ullanishidir. Jamiyatda ma'naviyatg inqirozining oldini olish maqsadida mamlakatimizda kambag'allikni qisqartirish g'oyasi amalga oshirilmoqda. Bunda kam ta'minlangan shaxslar va oilalar davlat tomonidan moddiy rag'batlantirib borilmoqda. Natijada shaxsning zamonaviy kasb-hunarli bo'lishi va uning natijasida m'noli faoliyat ko'rsatishi tarkib topa boshladi. Bu ma'naviyatning eng muhim amaliy hosilalaridan biridir.

Ma'naviyatning muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lgan ma'noli faoliyat ko'rsatishni ta'minlash shaxsda halol boylik ko'nikmasini tarkib toptirish bilan ham belgilanadi. Chunki ma'noli faoliyat muayyan darajada moddiy imkoniyatlarga ega bo'lishni taqozo etadi va bu halol boylikka ega bo'lish bilan amalga oshiriladi.

Mashhur mutafakkirlarimizdan biri Muhammad G'azzoliy (1058-1111) "Kimyoi saodat" (Baxtga erishish asoslari) asarida halol boylikka ega bo'lish talablarini quyidagicha ko'rsatadi:

- 1) halol mehnat asosida boylik topish;
- 2) bir kecha-kunduzga yetadigan yegulikka ega bo'lish;
- 3) yarashqlik kiyim, issiq va sovuqdan saqlovchi yashash makoni hamda o'zgarlar haqiga nisbatan to'g'ri munosabatda bo'lish.⁴

Aynan mana shu uchta ko'nikmaga ega bo'lish halol boylikka ega bo'lish hisoblanadi. Bizningcha bu juda muhim g'oyadir. Chunki halollik, tejamkorlikka ega bo'lish va ochko'zlikdan tiyilish inson shaxsini ulug'lashtiradi hamda uni boy-badavlat bo'lib yashashga olib keladi. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, agar odam o'zligini anglamasa yoki olchko'zlik illatiga giriftor bo'lsa, uning boyligi ham unga ta'timaydi. Shu jihatdan halol boylikka ega bo'lish ma'noli faoliyat ko'rsatishning asoslaridan biri sifatida qabul qilingan. Jumladan, mutaffakkir ta'kidlaganidek, xalqimizning bir kecha-kunduzlik yegulikka ega bo'lishga qanoat qilishi uni ochko'zlik, isrofgarchilik kabi illatlardan saqlab kelmoqda hamda ma'naviyatining har bir zamonda yuksak ekanligini namoyon qiladi. Shu sababli bunday qadriyatlarga e'tibor berish ma'noli faoliyat ko'rsatishda muhim hisoblanadi.

Ma'naviyatning muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lgan ma'noli faoliyatda shaxsning ma'naviy tarbiya bilan butun hayoti davomida shug'ullanishi ham muhim o'rin tutadi. Unga ko'ra, shaxs o'zgalarning ma'naviy tarbiyasi bilan shug'ullanishi, ma'naviy faoliyatda namuna bo'lishi va o'zgalarning illatidan iborat olishga ko'niktirilishi muhim o'rin tutadi. Misol uchun, jamiyatimizda ko'p hollarda o'ziga to'q kishilarning o'zini baxtsiz sezishi kuzatiladi. Bunga sabab ularning o'z farzandlari ma'naviy tarbiyasi bilan shug'ullanmaganligi va o'zgalarning illatlarida ibrat olmaganligidir. Shu ma'noda jamiyatimizda keyingi paytlarda ma'naviy tarbiya


⁴ Қаранг: Ғаззолий М. Кимёи саодат. –Тошкент.: “Камалак”. 1993

masalasi davlatning eng muhim siyosiy faoliyatidan biri sifatida qabul qilindi. Unda har bir shaxs yosh xususiyatidan qat'iy nazar ma'naviy tarbiyalab boriladi. Eslatib o'tish joizki, ma'naviy tarbiyani amalga oshirishda Prezidentimiz ta'kidlaganidek, "Millat fidoiylari - uyg'oq qalbli ziyolilar"ning o'rni beqiyosdir.⁵ Bunda "uyg'oq qalb" tushunchasi ma'naviyati yuksak ma'nosida qo'llanilgan. Shu ma'noda bunday ziyolilar ma'naviy tarbiya ishi bilan keng shug'ullanadi va faoliyati uchun hech bir rag'batlantirishni ta'ma qilmaydi.

E'tibor berilsa, ma'noli faoliyatning asoslari muhim ahamiyatga egadir va ularni o'zlashtirish taqozo etiladi.

Shunday qilib ma'naviyat tushunchasining pedagogik mazmuni muhim xususiyatlarga egaligi bilan diqqatni tortadi.

E'tibor bering:



1-rasm. Ma'naviyat tushunchasining pedagogik mazmuni

⁵ Mirziyoyev Sh.M. Ma'naviyat-hayotimizda yangi kuch, yangi xarakterga aylanishi kerak. – Toshkent, 2024. 3-bet.

1.2. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviyatni shakllantirishning zaruriyati

O'zbekistonda 2024 yildan boshlab ma'naviyatni rivojlantirish yo'nalishlari yangicha asoslarda belgilandi. Bunda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 22 dekabrda Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining kengaytirilgan yig'ilishida so'zlagan nutqidagi asosiy g'oyalar muhim yo'nalishlar sifatida qabul qilindi.⁶ Bu o'rinda e'tiboringizni ana shu nutqda bayon qilingan fikrlardan kelib chiqib, boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviyatni shakllantirish zaruriyati tahliliga e'tiboringizni tortamiz.

O'quvchilarning ma'naviy ongini shakllantirish zaruriyati. Boshlang'ich sinf o'quvchilari aynan boshlang'ich ta'lim bosqichida ma'naviy ongini shakllantirish jarayoniga olib kiriladi. Unga ko'ra, boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviy ongi quyidagilar asosida shakllantirilishi taqozo etiladi:

- 1) boshlang'ich sinf o'quvchilari ongiga milliy g'oyani singdirish;
- 2) boshlang'ich sinf o'quvchilari ongida ma'naviyat immunitetni tarkib toptirish;
- 3) boshlang'ich sinf o'quvchilari ongini g'oyaviy himoyalash ko'nikmasi bilan ta'minlash.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviy ongini shakllantirishda eng avvalo ularda milliy g'oya tarkib toptirilishi kerak. Mamlakatimiz milliy g'oyasi asoslarini insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik tamoyillari tashkil qilishi ma'lum.⁷ Shu jihatdan boshlang'ich sinf o'quvchilari ongida insonni qadrlash va uni sevish, o'zini anglash va o'zgalarga axloqli munosabatda bo'lish hamda ular ongida halol mehnat va mehnatsevarlik ko'nikmalarini tarkib toptirish bilan boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviy ongi tarkib toptiriladi. Aslida boshlang'ich sinf o'quvchilari ongida yomonlik, illatlar, nohush tuyg'ular kabilarning bo'lmasligi

⁶ Mirziyoyev Sh.M. Ma'naviyat-hayotimizda yangi kuch, yangi xarakterga aylanishi kerak. – Toshkent, 2024. 4-bet.

⁷ Mirziyoyev Sh.M. Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik – milliy g'oyamizning asosiy poydevoridir. – Toshkent, 2021

pedagogik jihatdan asoslab berilgan. Shu sababli boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilar ongiga insoniylik, yaxshilik va mehnatsevarlik g'oyalarini tarkib toptirish bilan ularning ma'naviyati shakllantiriladi. Bu borada ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilari ma'naviy ongining tadrijiy rivojlanib borish xususiyatiga ega ekanligini hisobga olish lozim. Shu sababli boshlang'ich ta'lim gumanitar fanlar o'qituvchilari boshlang'ich sinf o'quvchilari ma'naviy ongida milliy g'oyaning tarkib topish ishini amlaga oshirishda mas'uliyat bilan yondashishlari muhim ahamiyatga egadir. Mazkur masalani hisobga olib Prezidentimiz o'qituvchilarni "qalbi uyg'oq insonlar" deb baholaganini eslatib o'tish joiz. Bunda o'qituvchining qalbidagi barcha yaxshilik va intilishlar milliy g'oyaning ifodasi sifatida boshlang'ich sinf o'quvchilari ma'naviy ongiga singishi nazarda tutiladi. Shu sababli bunday jarayon uyg'oq qalb deb atalishi bejiz emas. Agar boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviy ongi milliy g'oya asosida shakllansa, ularda milliy qadriyatlarga asosan faoliyatda bo'lish va umuminsoniy qadriyatlarga tayangan holda hayotda faol bo'lish ko'nikmalari tarkib topadi. Shu sababli boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviyatida muhim omil hisoblangan ma'naviy ongda milliy g'oyaning tarkib topishi pedagogik zaruriyatlardan biri sifatida e'tiborga molikdir.

Immunitet – muhofaza qatlamidir, u tibbiy tushuncha bo'lib, keyinchalik ijtimoiy ma'no kasb eta boshladi. Shu jihatdan ma'naviy immunitet – bu boshlang'ich sinf o'quvchilari ongida yomonliklar va illatlarga qarshi tuyg'ularni tarkib toptirishdir. Ma'naviy immunitet nafaqat bilim berish, balki tarbiyaviy tadbirlarning amaliy ta'siri vositasida ham tarkib toptiriladi. Buning uchun boshlang'ich sinf o'quvchilarida yaxshilik va yomonlikni farqlash ko'nikmasining tarkib toptirilishi muhim ahamiyatga ega. Aslida boshlang'ich sinf o'quvchilarida yaxshilik va yomonlikni tez farqlash tuyg'ulari mavjud bo'ladi, biroq katta yoshlilarning yoki bola faoliyatda bo'ladigan muhitning salbiy ta'siri natijasida boshlang'ich sinf

o'quvchilarida yomonlik holatlariga duch kelish vaziyatlari tarkib topadi. Shu sababli eng avvalo boshlang'ich sinf o'quvchilarini guruh sifatida tarkib toptirish vositasi bilan ularning ma'naviy ongida yomonlik va illatlardan muhofaza qiluvchi tuyg'ularni rivojlantirish mumkin. Chunki o'quvchilarning guruhi o'z guruhidagi o'rtoqlarini har qanday salbiy yoki yomonlik ta'sirlaridan muhofaza qilish imkoniyatiga ega. Bundan tashqari boshlang'ich sinf o'quvchilarining kompyuter, planshet kabi axborot-kommunikatsion vositalari orqali turli ma'lumotlar bilan tanishayotganligini hisobga olib ham ularning ma'naviy ongida ma'naviy immunitetni tarkib toptirish taqozo etiladi. Aynan noto'g'ri ma'lumot yoki axborot ma'naviyatga asos bo'luvchi ezgu g'oyalarni ongdan siqib chiqarish omillari hisoblanadi. Bularning barchasi boshlang'ich sinf o'quvchilari ma'naviy ongida immunitet ko'nikmasini tarkib toptirishning zaruriyatini ko'rsatadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida milliy g'oya asosida ma'naviy ong va ma'naviy immunitet shakllantirilgach ularni ma'naviy muhofaza qilish ishlari amalga oshiriladi. Bunday faoliyat boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviyatning kutilgan darajada tarkib topishiga asos bo'ladi. Misol uchun, boshlang'ich sinf o'quvchilari ma'naviy ongiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan axborotlarning ko'lamini susaytirish, ular faoliyatda bo'ladigan joy va muhitning faoliyatini nazoratga olish hamda ular duch keladigan salbiy voqeilikni to'g'ri tushuntirib borish bilan ma'naviy muhofaza ishlari amalga oshiriladi. Pedagogik nuqtai nazardan shunday muammo mavjudki, oilada ota-onaning o'zaro munosabatlari yoki turmush murakkabliklari to'g'risidagi muloqotlari boshlang'ich sinf o'quvchilari ongida ma'naviy illatlarga duch kelish jarayonini boshlab beradi. Bundan tashqari, imkon qadar boshlang'ich sinf o'quvchilari salbiy xarakter va xususiyatlarga ega katta yoshlilarning salbiy ta'siridan ham muhofaza qilinishi kerak. Chunki boshlang'ich sinf o'quvchisi o'z ma'naviy imkoniyatlariga ko'ra har qanday salbiy holatlarni tez ilg'ash xususiyatiga ega bo'ladi. Shu

sababli boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviy ongini muhofaza qilish ularda talab darajasidagi ma'naviyatni shakllantirish vositalaridan biri hisoblanadi.

E'tibor qilinsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviyatini shakllantirish zaruriyati muammosi ularning ma'naviy ongini milliy g'oya asosida tarkib toptirish, ularni ma'naviy ko'nikmalarini shakllantirish va ularning ma'naviy ongini muhofaza qilish asosi bilan belgilanadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ma'naviy yo'naltirish.

Ma'naviyatning asosiy tamallaridan biri shaxsni ma'naviy yo'naltirishdir. Shu ma'noda boshlang'ich sinf o'quvchilarini ma'naviy yo'naltirishda quyidagilarga e'tibor berish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- 1) boshlang'ich sinf o'quvchilarini fikrlashga yo'naltirish;
- 2) boshlang'ich sinf o'quvchilarini axloqli bo'lishga yo'naltirish;
- 3) boshlang'ich sinf o'quvchilarini faoliyatga yo'naltirish.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini fikrlashga yo'naltirish ularni ma'naviy yo'naltirishning negizini tashkil qiladi. Chunki fikrlash ko'nikmasiga ega o'quvchi har bir voqelik, hodisa va ma'lumotlarni o'z munosabatiga ko'ra qabul qiladi. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, ko'p hollarda fikrlash ko'nikmasiga ega boshlang'ich sinf o'quvchilari yomonlikdan tiyiluvchi va yaxshilikka intiluvchi shaxslar sifatida namoyon bo'ladi. Shu sababli fikrlayotgan boshlang'ich sinf o'quvchisi ma'naviy rag'batlantirib turilishi, uning to'g'ri yoki noto'g'ri fikrlayotganligidan qat'iy nazar so'zini buzmaslik, ko'p gapirsa-da uni sabr bilan eshitish kabilarga rioya qilish boshlang'ich sinf o'quvchilarini fikrlashga yo'naltirishning muhim asoslari hisoblanadi. Chunki fikrlash aynan ruhlanish hodisasi bilan bog'liqdir.

Shu ma'noda boshlang'ich sinf o'quvchilari muntazam ruhlantirib borilishi ularni ma'naviy rivojlantirishning asosi bo'lgan fikrlashga yo'naltirish tamallaridan biri hisoblanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari 4-sinf bosqichida ma'naviy jihatdan nisbatan

mustaqil ko'nikmalarga ega bo'ladi, ya'ni ular oq va qorani farqlay olishadi. Aynan mana shu jarayonda boshlang'ich sinf o'quvchilarida fikrlashning susayishi va ularning o'yin, o'zgaralar bilan muloqotga kirishish, intilishlari kuchayadi. Shu sababli bunda boshlang'ich sinflarda amalga oshiriladigan tarbiyaviy tadbirlarda ularni fikrlashga yo'naltirish masalasiga e'tibor berish kutilgan samarani beradi. Masalan, o'rtog'ining tug'ilgan kuniga sovg'a tanlayotgan boshlang'ich sinf o'quvchida o'ziga xos fikrlash jarayoni kechadi va bunday vaziyatlarda ularga yo'naltirish berish samarali hisoblanadi. Shu ma'noda o'quvchilarni fikrlashga yo'naltirish muhim omillardan biridir.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ma'naviy yo'naltirishda ularni ahloqli bo'lishga undash ham muhim amaliy masalalardan biridir. Aslida boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijobiy fazilatlarining ko'pligi namoyon bo'ladi. Biroq ular mansub guruhdagi, sinfdagi, maktabdagi va jamoatchilik joylaridagi ba'zi holatlar va xatti-harakatlar boshlang'ich sinf o'quvchilarining axloqiy fazilatlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Misol uchun, boshlang'ich sinf o'quvchilari ko'p hollarda yuqori sinf o'quvchilarining xatti-harakatlarini bevosita qabul qiladi. Shu sababli yuqori sinf o'quvchilarining salbiy ta'sir ko'rsatish omilini pasaytirish uchun boshlang'ich sinf o'quvchilarini biriktirib qo'yish tajribasidan foydalanish muhim ahamiyatga egadir. Pedagogik tajriba shuni ko'rsatadiki, o'ziga bola biriktirilgan yuqori sinf o'quvchilari chinakam ma'noda o'zlarini murabbiy deb his qilishadi va aynan mana shu holatdan foydalangan holda ular vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarini axloqli bo'lishga yo'naltirish kutilgan samarani beradi. Bu kabi pedagogik tajribalardan foydalanishning ko'lami kengayib borayotganligini eslatib o'tish joiz. Misol uchun, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilariga haftalik amaliyot davrida ular amaliyot o'tayotgan maktablarning boshlang'ich sinf o'quvchilarini biriktirib qo'yish boshlang'ich sinf o'quvchilarining axloqli voyaga yetishidagi amaliy vositalardan biridir. Shu ma'noda boshlang'ich sinf o'quvchilarining

axloqli bo'lishiga erishish mexanizmida yuqori sinf o'quvchilari va talabalar faoliyatidan oqilona foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ma'naviy yo'naltirishning muhim asoslaridan biri ularni faoliyatga yo'naltirishdir. Bunda ular bilim olishga, ma'lumotlardan to'g'ri foydalanishga, jamoatchilik tadbirlarida faol ishtirok etishga, tashabbuskorlikka, o'zgalar bilan munosabatda bo'lishga va jamoaning manfaatlarini tushuntirishga yo'naltirilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki faoliyatning asosini eng avvalo ma'naviy munosabatlar tashkil qiladi. Agar boshlang'ich sinf o'quvchilari faoliyatga to'g'ri yo'naltirilsa, ularning ma'naviy ongi va axloqida illat paydo bo'lmaydi. Shu sababli faoliyatga yo'naltirish masalasida boshlang'ich sinf rahbarlarining faollik ko'rsatishi kutilgan samarani beradi. Bunday asosiy metodika shundan iboratki, boshlang'ich sinf o'quvchilari o'z qiziqishlari va layoqatlariga ko'ra faoliyatga yo'naltirilishi kerak. Bu borada, shuningdek, tajribali o'qituvchilarning imkoniyatlaridan ham foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

E'tibor berilsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarini oqilona ma'naviy yo'naltirish bilan ularda ma'naviyatni kutilgan darajada tarkib toptirish mumkin. Bunday yo'naltirishda boshlang'ich sinf o'quvchilarini fikrlashga, axloqli bo'lishga va faoliyatda faol bo'lishga da'vat qilishga asoslanish kutilgan samarani beradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari ma'naviyatining shakllanganlik darajasini baholash. Mazkur masala pedagogik diagnostikaning muhim elementlaridan biri bo'lib, unda boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviyatning shakllanganlik darajasini sinflar kesimida o'rganib borish muhim ahamiyatga egadir. Buning uchun boshlang'ich sinf rahbarlari har bir o'quvchining bilimga bo'lgan qiziqishi, axloqiy xatti-harakati va faolligi ko'nikmalarini o'rganib borishi taqozo etiladi. Shuni eslatib o'tish joizki, boshlang'ich sinflar kesimida o'quvchilarda ma'naviyatning shakllanganlik darajasi dinamik rivojlanib borishini

hisobga olish lozim. Shu sababli bu borada quyidagilarga asoslanish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- 1) 1-2-sinflarda boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviy ong va axloqning shakllanganlik darajasini o'rganish;
- 2) 3-4-sinflarda boshlang'ich sinf o'quvchilarida fikrlash va faoliyat asoslaridan foydalanish ko'nikmasi darajasini o'rganish;
- 3) baholash bo'yicha olingan ma'lumotlarni choraklar kesimida tahlil qilib borish.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari 1-2-sinflarda ma'naviy ong va axloq jihatdan shakllanish jarayonida tezkor voqelik sifatida namoyon bo'ladi. Shu sababli bunda o'quvchilarning ma'naviy jihatdan individual shakllanish jarayonini o'rganib borish kutilgan samarani beradi. Bunday o'rganish o'quv fanlari o'qituvchilari tomonidan kuzatish vositasida amalga oshiriladi. Chunki har bir fan o'qituvchisi har bir o'quvchining o'z o'quv faniga munosabati va o'quvchilardagi ko'nikmalarining holati bo'yicha aniq ma'lumotlarga ega bo'ladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining 1-2-sinflarda ma'naviy rivojlanib borishini aynan o'quv fanlari kesimida kuzatish va baholash amaliy samarani berishini eslatib o'tish joiz. Chunki fanlar kesimida o'quvchilarning fikrlash, dunyoqarash va axloqiy ko'nikmalari tabiiy ravishda korreksiyalanib boradi. Bunday imkoniyatlardan foydalangan holda boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviyatning shakllanganlik darajasini baholab borish muhim ahamiyatga egadir.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari 3-4-sinflarda ijtimoiy jihatdan faollashadi. Shu sababli bu bosqichda ularning o'z ma'naviy tushunchalari, qarashlari va faoliyat asoslari ko'nikma darajasida rivojlanib boradi. Aynan mana shu masalalarni o'rganish va baholash boshlang'ich sinf o'quvchilarida tarkib topgan ma'naviyat darajasi to'g'risida aniq ma'lumotlarni beradi. Buning uchun maktab boshlang'ich ta'lim Metodik kengashi a'zolari faollik ko'rsatishi muhim ahamiyatga egadir. Metodik kengash a'zolari har bir o'quvchining ma'naviy faolligi va faoliyatini individual tarzda

baholab borishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunda o'quvchilarning o'qituvchilardan qaysi birini ustoz sifatida qabul qilishi omilidan foydalanish kutilgan amaliy samarasini beradi. Chunki boshlang'ich sinf o'quvchilari muayyan o'qituvchilarni o'zlarining ustozlari deb qabul qiladi va ularning har bir harakatiga samimiy ma'noda taqlid qiladi. Aynan mana shunday o'qituvchilar faoliyati asosida o'quvchilarning ma'naviy faoliyatda o'z o'zlashtirganlariga amal qilishini kuzatib borish ularda ma'naviyatning talab darajasida shakllanishi imkonini beradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviyatni shakllanganlik darajasini o'rag'ib borish bo'yicha ma'lumotlar choraklar kesimida tahlil qilib borilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunday tahlil sinf rahbarlari boshchiligida gumanitar fanlar o'qituvchilari tomonidan amalga oshirilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Shuningdek, bu ishning monitoringini olib borish maktab psixologiga yuklanishi samarali hisoblanadi. Shu sababli mazkr masala bo'yicha sinf rahbarlarining ish rejasida choraklik baholashning o'tkazilishi belgilab qo'yilishi boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviyatning kutilgan darajada tarkib toptirish imkonini beradi. Bu borada umumiy o'rta ta'lim maktablarining ko'pchiligida tajribalar mavjudligini eslatib o'tish joiz va mazkur o'rganib borish jarayonida umumiy o'rta ta'lim maktablari biriktirilgan oliy pedagogik ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari yordamidan ham foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Diqqat qilinsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviyatning shakllanganlik darajasini muntazam o'rganib borish va baholash bu boradagi ishlarning amaliyotini ta'minlovchi omillardan hisoblanadi.

Shunday qilib boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviyatni shakllantirish zaruriyati ularni ma'naviyat olamiga olib kirish va ularning ma'naviy ongini shakllantirish, ma'naviy muhofaza ko'nikmasini tarkib toptirish hamda ularning ma'naviy yo'nalishini ta'minlash bilan belgilanadi. Mazkur masalalar Yangi O'zbekiston

sharoitida ma'naviyatni shakllantirishning yangi yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

1.3. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviyatni shakllantirishning innovatsion ahamiyati

2024 yildan boshlab mamlakatimizda ma'naviyatni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari yangilandi.⁸ Ushbu yo'nalishlarning asosiylari quyidagilardan iborat:

1-yo'nalish: milliy g'oyani rivojlantirish asosida ma'naviyatni takomillashtirish. Bunda ishlab chiqilayotgan Dunyoviy davlat konsepsiyasiga asoslaniladi va ma'naviyat dunyoviy davlatning negizi sifatida qabul qilinmoqda;

2-yo'nalish: ma'naviyatni rivojlantirishda muassasalarning birinchi rahbarlari mas'uliyatiga tayanish. Bunda barcha muassasalar, jumladan, ta'lim muassasalarining rahbarlari shu tashkilotlardagi jamoatchilikning ma'naviyati uchun javobgar hisoblanadi;

3-yo'nalish: madaniyat vositasida ma'naviyatni rivojlantirish. Bunda madaniy meros va madaniyat maskanlari asosida jamiyatda ma'naviyatni rivojlantirishga erishish;

4-yo'nalish: odamlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil qilish asosida ma'naviyatni rivojlantirish. Bunda ommaviy tadbirlarni davlat tomonidan o'tkazilishi va unda keng jamoatchilikni qamrab olishga asoslaniladi;

5-yo'nalish: xalqimiz an'analaridan foydalangan holda ma'naviyatni rivojlantirish. Bunda qadriyatlar va urf-odatlarining ahamiyatini ilmiy tadqiq etish vositasida ma'naviyatni rivojlantirishga e'tibor qaratiladi, shu jihatdan pedagogik qadriyatlarni ham ilmiy xulosalar asosida ma'naviyatni rivojlantirish asosi sifatida qabul qilish dolzarb bo'lib turganligini eslatib o'tish joiz;

⁸ Mirziyoyev Sh. M. Ma'naviyat – hayotimizda yangi kuch, yangi xarakterga aylanishi kerak. – Toshkent, 2024

6-yo'nalish: musiqa va raqs san'ati vositasida ma'naviyatni rivojlantirish. Bunda ta'lim tizimida bolalar musiqasi, qo'shiqlari va raqslari vositasida ma'naviyatni rivojlantirish ishlari amalga oshiriladi;

7-yo'nalish: madaniy diplomatiya vositasida ma'naviyatni rivojlantirish. Bunda O'zbek madaniyatini yoshlar ongiga singdirish va uni xalqaro miqyosda targ'ibot qilish tadbirlarini amalga oshirishga asosiy e'tibor qaratiladi;

8-yo'nalish: kino va teatr san'ati asosida ma'naviyatni rivojlantirish. Bunda odamlarning yosh xususiyatlari, jumladan, yoshlarning yosh xususiyatlariga mos kinolarni ishlab chiqish va ularni teatr asarlari bilan keng tanishtirish asosida ma'naviyatni rivojlantirishga davlat homiyligida amalga oshiriladi;

9-yo'nalish: tasviriy va amaliy san'at vositasida ma'naviyatni rivojlantirish. Bunda yoshlarning tasviriy va amaliy san'at bo'yicha layoqatlarini rivojlantirish davlat mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

E'tibor berilsa, ma'naviyatni rivojlantirishning bu yangi yo'nalishlari mazkur masalaga doir yangicha yondashuvlarni amalga oshirishni taqozo qiladi. Shu sababli bu yo'nalishlardan kelib chiqqan holda boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviyatni shakllantirishning innovatsion ahamiyati va uning asosiy yo'nalishlarini idrok etish taqozo etiladi. Bu o'rinda ana shu masalaning tahliliga e'tiborimizni tortamiz.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviyatini shakllantirishning yangicha yondashuvlari. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviyatni shakllantirish innovatsion metodikaga asosan amalga oshirilishi kerak. Shu jihatdan bu borada yangicha yondashuvlarni ishlab chiqish dolzarb bo'lib turibdi. Mazkur masala bo'yicha bizning yondashuvlarimiz quyidagilardan iborat:

1) boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviyatini shakllantirishda milliy g'oya va teatr san'atining imkoniyatlaridan keng foydalanish;

2) boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviyat ko'nikmasini tarkib toptirishda kitobxonlik hamda tasviriy va amaliy san'at imkoniyatlaridan ommaviy foydalanish;

3) boshlang'ich sinf o'quvchilarini ma'naviy faoliyatga tayyorlashda layoqat omilidan oqilona foydalanish.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviyatini shakllantirishdagi yangi yondashuvlardan biri milliy g'oya va teatr san'ati imkoniyatlariga asoslanishdir. Chunki milliy g'oya o'quvchilarning ongini to'g'ri yo'naltirish, ularning o'zligini tarkib toptirish va Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalashda asos bo'ladi. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich sinf o'quvchilarida bunday tuyg'ularning tabiiy bo'lishi keng imkoniyatlarni beradi. Misol uchun boshlang'ich sinflar gumanitar o'quv fanlaridagi Ona, tabiat, Vatan kabi mavzulardagi matnlarni boshlang'ich sinf o'quvchilari qiziqish bilan o'zlashtiradi va matnlarni ongli ravishda hamda ixtiyoriy tarzda yodlaydi. Bunday pedagogik omil boshlang'ich sinf o'quvchilari ma'naviyatida Vatanga muhabbat tuyg'usining kutilgan darajada tarkib topishi uchun asos bo'ladi. Masalan, 2-sinf kitobida berilgan va matni muayyan darajada murakkab hisoblanuvchi Davlat madhiyasini o'quvchilarning tez yodlashi va hamisha uni yodda saqlashi kuzatiladi. Aynan madhiyaga bo'lgan ishonch va muhabbatning ildizlari boshlang'ich sinf o'quvchilari ma'naviy ongida insoniy qadriyatlarni tarkib topishiga asos bo'ladi. Shu jihatdan boshlang'ich sinf o'quvchilarining davlat madhiyasi, bayrog'i va gerbiga bo'lgan ijobiy munosabatlarida ularning ma'naviy olami namoyon bo'lishini eslatib o'tish joiz. Bundan tashqari, teatr san'ati boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviyatini shakllantirishda muhim yangicha yondashuvlardan biri hisoblanadi. Bunda asarlar mazmunidagi g'oyalar, obrazlarning bolalar ongiga tez singishi va ularning ijobiy yoki salbiy xususiyatlari boshlang'ich sinf o'quvchilari tomonidan ilg'ashi muhim ahamiyatga egadir. Shu sababli 2022-2023 o'quv yilidan boshlab umumiy o'rta ta'lim maktablarining o'quvchilarini

teatrlarga olib borish tadbirlari qayta tiklandi va mamlakatimizning chekka hududlaridagi umumiy o'rta ta'lim maktablarida teatr san'atkorlarining gastrollari amalga oshirilmoqda.

Teatr asarlaridagi yaxshilik va yomonlikni farqlash, insoniylik va yovuzlik kabi g'oyalar boshlang'ich sinf o'quvchilariga jonli ko'rsatib berilishi bilan ularning ma'naviyatini boyitishga xizmat qiladi. Misol uchun, pedagogik tadqiqotlarning ko'rsatishicha birinchi o'zbek teatr asari Mahmudxo'ja Behbudiyning (1875-1919) "Padarkush yoki o'qimagan bolaning holi" asari qaytadan sahnalashtirilib o'quvchilarga taqdim etilganida, o'quvchilarning o'qimaslik nimalarga olib kelishi bo'yicha munosabatlari keskin o'zgarganligi namoyon bo'lgan.⁹ Chunki asarda o'qimagan bolaning jamiyatdan uzilib qolishi va noaxloqiy illatlarga berilishi tasvirlangan. Eng muhim jihati shundaki, o'qimagan bola asarda eng yomon illatlardan biri qimorbozlikka berilib ketadi va shu jihatdan asarning zamonaviyligi ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Bunday asarlar jonli obrazlar orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviyatini yuksak darajada rivojlantirish imkonini beradi. Bularning barchasi milliy g'oya va teatr sanatining imkoniyatlaridan foydalangan holda boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviyatini shakllantirishda yangicha yondashuvga asoslanish uchun tayanch vazifasini bajaradi. Eslatib o'tish joizki, bunda an'ana tusini olgan milliy g'oya va teatr san'atining imkoniyatlaridan yangicha yondashuv asosida foydalanish taqozo etiladi. Shu ma'noda bizningcha, boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'zlari ishtirokida sahnalar tashkil etish vositasida ularning ma'naviyatini yuksaltirishga e'tibor berish samarali hisoblanadi. Buning uchun o'quvchilarning "Teatr guruhi" kabi tuzilmalarini tashkil etish maqsadga muvofiq bo'ladi va bu bilan o'quvchilarning o'zlari ishtirokida ma'naviyat tarkib toptiriladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviy ko'nikmasini amaliy tarkib toptirishning yangicha yo'nalishlaridan biri

⁹ Namozova N. "Padarkush" yangi sahnada. // "Ma'rifat" gazetasi. 2023. 21 oktyabr soni.

kitobxonlik madaniyatiga tayanishdir. Bugungi kunda o'quvchilarning kitobxonlik madaniyati keng va ommaviy tus oldi. Ayni paytda bizning kuzatishimizga ko'ra ko'pgina o'quvchilarning kitobxonlik bo'yicha tanlovlari va festivallarda g'olib bo'lishi uchun kitob o'qiyotganligi ko'zga tashlanmoqda. Shu ma'noda kitobxonlik madaniyatini shouga aylantirish an'anasidan voz kechish kerak. Bu hol ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviyatini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Shu sababli boshlang'ich sinf o'quvchilariga kitob tanlashda ko'maklashish, umumiy o'rta ta'lim maktablari axborot resurslarini bolalar adabiyotlari bilan muntazam boyitib borish, bolalar adiblarini yangi asarlar yaratishga dav'at qilish va jahon adiblarining eng yaxshi bolalar adabiyotlarini tarjima qilish yo'lidan borish boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviyatini shakllantirishda kitobxonlik imkoniyatlardan keng foydalanish tarkib topadi. Shu sababli bunday innovatsion yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviy ko'nikmalarini yuksaltirishda tadbirlarni amalga oshirish dolzarb bo'lib turibdi. Bundan tashqari, boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviy ko'nikmalarini shakllantirishning yangicha yondashuvlaridan yana biri tasviriy va amaliy san'at imkoniyatlaridan foydalanishdir. Chunki boshlang'ich sinf o'quvchilari tasviriy va amaliy san'at namunalariga qiziqish bilan munosabatda bo'ladi hamda ularni go'yoki ideal g'oyalarning ifodasi sifatida qabul qiladi. Shu ma'noda boshlang'ich sinf o'quvchilarini rasmlar chizish, narsalar yasash, ularning yaratgan ijod namunalarini targ'ib qilish va namuna sifatida ko'rsatish boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviy ko'nikmalarini tabiiy tarkib toptirish omillarini beradi. Misol uchun, pedagogik mutaxassislarining fikricha boshlang'ich sinf o'quvchilarining chizgan rasmlariga qarab ularning ichki olami tuyg'ulari yoki munosabatlarini aniqlash mumkin. Rossiyalik pedagog olimlar 2022 yilda Moskva shahrining maktablaridan birida boshlang'ich sinf o'quvchilari o'rtasida "Mening oilam" mavzusida rasmlar chizish

tajribasini o'tkazgan. Tajribada ishtirok etgan boshlang'ich sinf o'quvchilarining 32 foizi rasmida onalar keng planda va otalar esa ikkincha darajali shaxs sifatida tasvirlangan; bundan tashqari, 12,1 foiz o'quvchilarning rasmlarida muayyan erkak obrazlarining salbiy bo'yoqlar bilan berilishi o'z aksini topgan. Buning natijasida pedagog olimlar boshlang'ich sinf o'quvchilarining ko'pchilik oilalarida muammolar mavjudligini aniqlashgan va bunday muammolar ularning ruhiy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi degan xulosaga kelishgan. Shu jihatdan boshlang'ich sinf o'quvchilarini tasviriy san'at va amaliy san'at namunalari yaratishga yo'naltirish ularning ichki olamini boyitish, ruhiyatida o'zgarishlarni tartibga solish va o'quvchilarning layoqati rivojlanishini nazoratga olish imkoniyatlarini beradi. Bu hol ma'naviy ko'nikmaning amaliy tarkib topishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bundan innovatsion yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviy ko'nikmasini kutilgan darajada tarkib toptirish muhim ahamiyatga egadir.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviyatini yangicha asoslarda shakllantirishda ularni ma'naviy faoliyatga tayyorlash masalasi ham muhim ahamiyatga egadir. Unga ko'ra, o'quvchilar o'z faoliyatida o'zlari anglagan va tushungan ma'naviy tushunchalar hamda ma'naviy ko'nikmalarga tayanishni bilishi kerak. Buning uchun Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, musiqa, ashula va raqs san'atining imkoniyatlaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Buning uchun umumiy o'rta ta'lim maktablarida faoliyati yo'lga qo'yilgan san'atkorlarning "Amaliy to'garaklari" faoliyatini kuchaytirish, bolalarbop musiqa, ashula va raqs asarlarini yaratish, umumiy o'rta ta'lim maktablarida ulardan foydalanish sharoitlarini tarkib toptirish, layoqati mavjud boshlang'ich sinf o'quvchilarini san'atning mazkur turlariga yo'naltirish taqozo etiladi. Bu bilan boshlang'ich sinf o'quvchilarini qiziqishi va layoqatlariga ko'ra hamda san'atning ijobiy ta'sir ko'lamiga asosan ularni ma'naviy faollikka tayyorlash amaliy tus oladi. Eslatib o'tish joizki, bunday

tajriba mamlakatimizda mavjud bo'lib uning metodikasi ishlab chiqila boshlanganligi muhim ahamiyatga egadir. Shu ma'noda boshlang'ich sinflarda o'qitilayotgan "Musiqa madaniyati" o'quv fanini o'qitish metodikasini takomillashtirish va boshlang'ich sinf o'quvchilarini cholg'u ijrochiligiga yo'naltirish muhim amaliy vositalardan biridir. Bu bilan boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviy ko'nikmalari va ularning ma'naviy faoliyatga tayyorgarligi milliy musiqiy-estetik qadriyatlarga asosan amalga oshirilishi tarkib topadi. E'tibor berilsa, musiqa, ashula va raqs san'atining imkoniyatlaridan foydalangan holda boshlang'ich sinf o'quvchilarini ma'naviy amaliyotga tayyorlash muhim innovatsion yondashuvdir.

Diqqat qilinsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviyatini shakllantirishda bunday yangicha yondashuvlarga asoslanish amaliy samaradorligi bilan e'tiborga molikdir.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ma'naviyatini shakllantirish metodikasini yangilash. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviyatini shakllantirishning metodikasini yangilash muhim innovatsion ahamiyatga egadir. Bunda quyidagilarga asoslanish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- 1) onlayn shakldagi metodikadan foydalanish;
- 2) masofaviy shakldagi metodikadan foydalanish;
- 3) individual shakldagi metodikadan foydalanish.

Mamlakatimizda bugungi kunga qadar boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviyatini shakllantirishda asosan oflayn, ya'ni an'anaviy shakldagi ta'lim metodikadan keng foydalanib kelinmoqda. Bu tajribadan foydalangan holda boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviyatini shakllantirishda innovatsion onlay shakldagi yangi metodikalardan ham foydalanish kutilgan samarani beradi. Unga ko'ra, kompyuterli dastur asosida "Ma'naviyat" portali tashkil qilinib, uning materiallari ishlab chiqiladi. O'quvchilarning planshet yoki kompyuter o'quv texnikasi vositasida ana shu dasturga asosan ma'naviyatini shakllantirish amalga oshiriladi. Bunday materiallarda qiziqarli tushuntirishlar, topshiriqlar,

viktorinalar, savol-javoblar, didaktik o'yinlar, o'quvchilarning ma'naviy olamini boyituvchi matnlar kabilar o'z ifodasini topishi kerak. Ana shunday materiallar asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviyatini shakllantirish amalga oshiriladi. Bunda ayniqsa Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, maqom va baxshichilik na'munalaridan foydalangan holda materiallarni ishlab chiqish kutilgan samarani beradi. Chunki bu san'atlar namunalari boshlang'ich sinf o'quvchilarining qalb tuyg'ularini to'g'ri yo'naltirish imkonini beradi. Buning uchun umumiy o'rta ta'lim maktablarida faoliyat yuritayotgan san'atkorlarga boshlang'ich sinf o'quvchilarning guruhlari brikirib qo'yilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunday yangi metodika kompyuter, planshet kabi o'quv texnik vositalariga boshlang'ich sinf o'quvchilarining bo'lgan qiziqishidan oqilona foydalanish taqozo etiladi. Shu ma'noda onlayn metodikasiga asosan boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviyatni shakllantirish metodikasini ishlab chiqish dolzarb bo'lib turganligini eslatib o'tish joiz.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviyatini shakllantirishdagi yangicha metodikalardan biri masaofaviy metodikadir. Unga ko'ra, muayyan vaqt rejimida televidenie, radio, kompyuter kabi texnik vositalar asosida boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun "Ma'naviyat mashg'ulotlari" o'tkaziladi. Bunda tajribali boshlang'ich sinf o'qituvchilari, manaviyat sohasi xodimlari va umumiy o'rta ta'lim maktablari brikirtilgan oliy pedagogik ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari onlayn shaklda mashg'ulotlar olib boradi. Bunday mashg'ulotlar o'quvchilar uchun qiziqarli ekanligi bilan ahamiyatga ega bo'lib ularni tayyorlashda kino san'atining imkoniyatlarida foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunda bolalarga kinolardan muayyan lavhalar qo'yilib berilishi va ular to'g'risida boshlang'ich sinf o'quvchilarining yozma fikrlashlarini olish tashkil qilinishi muhim ahamiyatga egadir. Chunki boshlang'ich sinf o'quvchilari bunday shakldagi mashg'ulotga qiziqish bilan ishtirok etadilar. Bundan tashqari,

boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviyatini shakllantirish onlayn metodikasi ommaviyligi bilan keng ahamiyatga ega va u bilan mamlakatimizning eng chekka hududlaridagi boshlang'ich sinf o'quvchilarini ham qamrab olish amalga oshadi. Buning natijasida mamlakatimiz miqyosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviyati darajasi ko'rsatkichlariga yagonalashgan tarzda erishiladi. Shu jihatdan onlayn shakldagi metodika boshlang'ich sinf o'quvchilari ma'naviyatini shakllantirishda yangicha imkoniyatlar ko'lamini beradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviyatini shakllantirishdagi yangicha metodikalardan yana biri individual metodikadir. Unga ko'ra, boshlang'ich sinf o'quvchilari qiziqishi va layoqatlariga asosan kichik guruhlarga bo'linib, tajribali boshlang'ich sinf o'qituvchilari yoki mutaxassislariga brikirtiladi. Bu kichik guruhlarda o'quvchilarning ma'naviyatini shakllantirish tadbirlari rejali asosda amaga oshiriladi. Bunday tadbirlarda tanlovlar, treninglar, musobaqalar kabilardan foydalanish muhim ahamiyatga egadir. Chunki o'quvchilarning kichik guruhlari ma'naviyat asoslarini o'zlashtirishda faol harakat qiladi va guruhda o'ziga xos birlik tarkib topadi. Individual metodikadan foydalangan holda boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviyatini shakllantirishda turli amaliy tadbirlardan foydalanish muhim ahamiyatga egadir. Misol uchun, guruhning tabiatga, muzeylarga va qadimiy shaharlarga ekskursiyalarni tashkil qilish vositasida ularning ma'naviyatini shakllantirish muhim ahamiyatga egadir. Bunda Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, muassasalarning birinchi rahbarlari ayniqsa, hokimlarning yordamidan keng foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Mazkur birinchi rahbarlar ekskursiyalarni tashkil etish bo'yicha tashkiliy ishlarni amalga oshiradi. Bunday yangicha individual metodika boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviyatini shakllantirishda keng imkoniyatlarni beradi.

Diqqat qilinsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviyatini shakllantirishda yangicha metodikalarga asoslanish muhim amaliy ahamiyatga egadir. Bunday metodikalarning asosiylari onlayn, masofaviy va individual metodikalardir.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari ma'naviyatini shakllantirishning monitoringini olib borish. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviyatini yangicha yondashuvlar va yangicha metodikalarga asosan shakllantirish ishlarining monitoringini yo'lga qo'yish innovatsion ahamiyatga ega masaladir. Bizning yondashuvimizga ko'ra, bunday monitoring quyidagi bosqichlarga asosan amalga oshirilishi maqsadga muvofiq bo'ladi:

- 1) boshlang'ich sinflar kesimida;
- 2) hududlar kesimida;
- 3) Respublika miqyosida.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida 1-4-sinflar bir necha guruhlardagi sinflarga bo'linadi. Ba'zi 1-sinflarning o'zi A, B, S, D kabi sinflarga bo'linishi ma'lum. Shu sababli sinflar kesimida boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviyatini shakllanganlik darajasini monitoring vositasida o'rganishda bu xususiyatlarga e'tibor berish taqozo etiladi. Chunki ayrim sinflardan yaxshi o'zlashtiruvchi o'quvchilarning nisbatan ko'pchilikni tashkil qilishi, shu sinfnig ko'rsatkichlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Mazkur murakkablikni hal etishda boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviyatlilik darajasini monitoring qilish bo'yicha bir necha variantlarga ega test majmualarining bo'lishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Umuman boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviyatini monitoring qilishda metodikalar rang-barangligiga asoslanish muhim ahamiyatga ega. Shu sababli 1-, 2-, 3-, 4-sinf o'quvchilarini o'rganish testlarining mavjud bo'lishi mazkur masala bo'yicha aniq ma'lumotlarga ega bo'lishni ta'minlaydi. Misol uchun, kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, Germaniya Federativ Respublikasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining muayyan masala bo'yicha

ko'rsatkichlarini monitoring qilishda xatto o'g'il va qiz bolalarga alohida yondashiladi hamda olingan ma'lumotlar qiyosiy taxlil qilinib hulosa chiqariladi. Buning natijasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining ko'rsatkichlari bo'yicha keng ko'lamli ma'lumotlarga ega bo'lish imkoniyatiga erishiladi. Shu ma'noda boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviyatning shakllanganlik darajasini monitoring qilib borishda sinf o'quvchilarining xususiyatlari, ularning imkoniyatlari va ijtimoiy faolliklari hisobga olingan testlar majmuiga tayanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Negaki, ma'naviyatlik darajasini monitoring qilishda xilma-xil vositalarga yondashmaslik ma'lumotlarning umumiy xususiyatlarga ega bo'lishini keltirib chiqaradi. Agar imkon bo'lsa, boshlang'ich sinflarning o'quvchilari o'zlashtirish darajasiga asosan guruhga bo'linib ularning ma'naviyatlilik darajasi o'rganilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Misol uchun, faol o'quvchilarda ma'naviyatlilik ko'rsatkichlari yuqori bo'lsa, o'zlashtirish jarayonida bo'lgan o'quvchilarda esa bunday ko'rsatkich quyi darajada bo'lishi mumkin. Shu ma'noda boshlang'ich sinflar kesimida ma'naviyatning shakllanganlik darajasini monitoring qilish haqiqiy ahvolni aniqlash va ko'rsatkichlarni yuksaltirish tavsiyalarini ishlab chiqishdan iborat bo'lishi kerak.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviyati shakllanganlik darajasini hududlar, ya'ni tuman, shahar va viloyat miqyosida monitoring qilib borish ham muhim ahamiyatga ega. Bunda asosiy masala hududlarda faoliyat yuritayotgan muayyan fanlarga chuqurlashtirib o'qitiladigan yoki ixtisoslashtirilgan boshlang'ich ta'lim muassasalarining mavjudligidir. Shu sababli hududlar kesimida boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviyatni shakllanganlik darajasini monitoring qilishda umumiy o'rta ta'lim maktablari, ijodiy va ixtisoslashgan ta'lim muassasalari tarkibiga e'tibor bergan holda tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Shuni ta'kidlash lozimki, bizning kuzatishlarimizga ko'ra, umumiy o'rta ta'lim maktablarining boshlang'ich sinf o'quvchilarida

ma'naviyatlilik darajasi yuqori bo'lishini va ijodiy, ixtisoslashgan ta'lim muassasalari boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviyatlilik darajasi qoniqarli bo'lishini eslatib o'tish joiz. Bunga sabab umumiy o'rta ta'lim maktablarida asosiy e'tibor ta'lim va tarbiya uyg'unligiga, ijodiy va ixtisoslashgan ta'lim muassasalarida esa asosiy e'tibor ta'lim berishga qaratilishini eslatib o'tish joiz. Shu sababli hududlar kesimida boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviyatlilik darajasini monitoring qilishda bunday xususiyatlardan kelib chiqqan holda yondashish taqozo etiladi. Buning uchun asosiy masala boshlang'ich sinf o'quvchilarida umumiy darajada ma'naviy ong, ahloqiy fazilat va faoliyat ko'nikmalarining shakllanganligiga qaratilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Demak, hududlar kesimida boshlang'ich sinf o'quvchilaridan ma'naviyatning shakllanganlik darajasini monitoring qilish o'ziga xos metodikaga asoslanishi kerak.

Mamlakatimiz boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviyatlilik darajasi Respublika miqyosida o'rganilib borilishi muhim ahamiyatga ega. Chunki Respublika miqyosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviyatlilik ko'rsatkichlari yuqori bo'lishi boshlang'ich ta'limning vazifalari ijrosi bilan bevosita bog'liqdir. Shu sababli bunday miqyosda monitoring amalga oshirilib, olingan ma'lumotlar tuman, shahar va viloyatlar darajasida maxsus baholanadi. Buning natijasida qaysi tuman yoki shaharda va viloyatda boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviyatlilik darajasini rivojlantirish bo'yicha individual tadbirlar rejasi ishlab chiqiladi. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, bunday monitoringni shahar va qishloq hududlari xususiyatlarini hisobga olgan holda tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi. To'g'ri, hududlardagi barcha umumiy o'rta ta'lim maktablari yagona va tipiklashgan sharoitlarga ega. Biroq, boshlang'ich ta'limni amalga oshirish bo'yicha mahoratli o'qituvchilarning hududlar kesimida turli ko'rsatkichlarga egaligi, boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviyati shakllanishida muayyan xususiyatlarni keltirib

chiqaradi. Shu sababli Respublika miqyosida amalga oshiriladigan monitoring umumiy ma'lumotlar, ma'naviyat dasturlari va strategiyalarining bajarilishi, boshlang'ich sinf o'quvchilarining umumiy darajadagi ma'naviyat ko'nikmasiga ega bo'lishi kabi masalalarga e'tibor berish maqsadga muvofiq bo'ladi.

E'tibor berilsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviyatning shakllanganlik darajasini monitoring qilish metodikasi turli yondashuvlarga asoslanadi.

Shunday qilib boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviyatni shakllantirishning innovatsion ahamiyati bu jarayonga yangiliklarni tadbir etib borish, ma'naviyatni shakllantirishning yangi metodikalarini joriy etish va bu masalani muntazam monitoring qilib borish bilan belgilanadi. Chunki bundagi innovatsion jihat shundaki, boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviyatning shakllanganlik darajasi pedagogik, psixologik va ijtimoiy qonuniyatlar asosida o'rganiladi hamda baholanadi.

II BO'LIM

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARI MA'NAVIYATINI SHAKLLANTIRISHNING INNOVATSION DIDAKTIKASI

2.1. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida mashg'ulotlar vositasida ma'naviyatni shakllantirish innovatsiyasi

“O‘zbekiston-2030” strategiyasida boshlang‘ich ta‘limga oid belgilangan vazifalar ijrosini ta‘minlashda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ma‘naviyatni shakllantirish muhim o‘rin tutadi. Chunki davlatimiz rahbari tomonidan ma‘naviyat masalasi Yangi O‘zbekistonni barpo etishning asosiy poydevorlaridan biri sifatida belgilangan.¹⁰ Shu jihatdan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida hozirgi zamon talablari asosida va innovatsion jamiyatning ehtiyojlariga mos ravishda ma‘naviyatni shakllantirish dolzarb bo‘lib turibdi. Buning uchun innovatsion yondashuvlar va metodikalarni ishlab chiqish taqozo etiladi. Bu o‘rinda e‘tiborimizni boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mashg‘ulotlar vositasida ma‘naviyatni shakllantirish innovatsion metodikasi tahliliga tortamiz:

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ma‘naviyatini shakllantirishda mashg‘ulotlar vositasi muhim o‘rin tutadi. Lekin bu vositaga nisbatan innovatsion yondashuv metodikasini ishlab chiqish dolzarb bo‘lib turibdi. Shu ma‘noda bu masalada quyidagilarga asoslanish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

O‘quv fanlari turkumiga asoslanish. O‘quv fanlari turkumiga asoslanib boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ma‘naviyatini shakllantirish muhim o‘rin tutadi. Bunda quyidagi metodikaga asoslanish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

- a) o‘quv fanlarining xususiyatlaridan kelib chiqish;
- b) “Tarbiya” fanini yo‘naltiruvchi fan sifatida qabul qilish;
- v) o‘quv fanlari amaliyoti vositasiga asoslanish.

¹⁰ Mirziyoyev Sh.M. Ma'naviyat – hayotimizda yangi kuch, yangi xarakterga aylanishi kerak. – Toshkent, 2024

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ma‘naviyatini shakllantirishda o‘quv fanlarining xususiyatlariga asoslanish muhim o‘rin tutadi. Buning uchun quyidagicha yondashuv maqsadga muvofiq bo‘ladi: har bir o‘quv fanining mavzulari doirasida ma‘naviyatning muayyan tushunchalarini o‘quvchilar ongiga singdirish. Misol uchun, aniq o‘quv fanlari vositasida o‘quvchilarning ongiga mantiqiy fikrlash, o‘z fikrini asoslash va mustaqil fikrlashga intilish tushunchalarini singdirish mumkin; tabiiy fanlarni o‘qitish jarayonida boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ongida ona tabiatga oqilona munosabatda bo‘lish, Vatanni sevish, go‘zallikni his qilish va o‘zining ichki dunyosini boyitib borish tushunchalarini singdirish tabiiy kechadi; gumanitar fanlarni o‘qitish jarayonida o‘quvchilarning axloqiy ongi, fazilatlarini va axloqiy faoliyati ko‘nikmalarini tarkib toptirish mumkin bo‘ladi.

Bunday yondashuvni amalga oshirish uchun har bir o‘quv fanining o‘qituvchilari o‘zlarining individual metodikasi asosida ma‘naviy tarbiya ishini amalga oshirishi taqozo etiladi. Shu jihatdan bu o‘rinda Pedagogikaning dastlabki vazifasi bo‘lgan tarbiya vazifasi amalga oshiriladi. Mazkur masalada boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining aniq konseptual yondashuvga ega bo‘lishi maqsadga muvofiq bo‘ladi va bunda “Umumiy ma‘naviy konsepsiyasi”ga asoslanish kutilgan samarani beradi.

E‘tibor berilsa, o‘quv fanlarining imkoniyatlaridan foydalanilgan holda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ma‘naviyatini shakllantirish keng imkoniyatlarni beradi. Bunda ayniqsa, aniq va tabiiy fanlar mashg‘ulotlaridan foydalanish o‘ziga xos yangicha yondashuvdir. Chunki mazkur fanlar aniq va tabiiy ma‘lumotlarga asoslanadi. Kuzatishlar va tajriba shuni ko‘rsatadiki, ma‘naviyatni shakllantirishda gumanitar fanlar ko‘p hollarda abstraksiya, ya‘ni mavhum tushunchalarga tayanganligi uchun ma‘naviyatni shakllantirish jarayoni murakkab kechadi va shu sababli yillar davomida ma‘naviyat tushunchasini idrok qilish murakkab kechmoqda. Mazkur tushunchani ma‘noli fikrlash, ma‘noli yashash

va ma'nili faoliya ko'rsatishning majmui sifatida qabul qilish mazkur tushunchani idrok etishni qulaylashtiradi. Shu sababli aniq va tabiiy fanlarning imkoniyatlari hamda bu fanlar o'qituvchilarining mahoratlaridan foydalangan holda boshlang'ich sinf o'quvchilari ma'naviyatini shakllantirish amaliy jihatdan muhim ahamiyatga egadir.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviyatini shakllantirishda "Tarbiya" fanini yo'naltiruvchi va muvofiqlashtiruvchi fan sifatida qabul qilish maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki bu fan tarbiya nazariyasi, metodikasi va texnologiyasini taqdim qilishi bilan boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviyatni shakllantirishning asoslarini nazariy, metodik hamda texnologik jihatdan muvofiqlashtirib boradi. Ushbu fanning asosiy vazifasi ma'naviy, jismoniy, aqliy, estetik va ijtimoiy tarbiyani amalga oshirishdan iborat. Shu ma'noda "Tarbiya" fani boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviyatini shakllantirish ishini tashkil qiladi, uni metodik vositalar bilan ta'minlaydi va samaradorligini o'rganib boradi. Ushbu fan metodologiyasiga asosan aniq, tabiiy va gumanitar fanlar ma'naviyatni shakllantirish ishini amalga oshiradi. Chunki ma'naviyat masalasi inson ongi, ruhiyati va qalbi bilan bog'liq bo'lganligi uchun maxsus nazoratni taqozo etadi. Bu borada ayniqsa boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviy tarbiyasini maqsadli amalga oshirish muhim ahamiyatga egadir. Shu jihatdan "Tarbiya" fani boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviyatini shakllantirishda ularning ongini g'oyaviy tarkib toptirish, ruhiyatini rivojlantirish va qalb tuyg'ularini yuksaltirish vazifalarini bajaradi hamda boshqa fanlarning ma'naviy tarbiya ishlarini yo'naltirib boradi. Buning natijasida boshlang'ich sinf o'quvchilarida talab darajasidagi ma'naviy tushunchalar, qarashlar va ko'nikmalar tarkib topadi. Bunday yondashuv ushbu fan o'qituvchilarining metodik jihatdan yetuk bo'lishini taqozo etadi. Shu sababli bu fan bo'yicha oliy pedagogik ta'lim muassasalarida maxsus o'qituvchilar tayyorlanayotganligini eslatib o'tish joiz.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviyatini mashg'ulotlar vositasida shallantirishda o'quv fanlari amaliyotidan foydalanish ham muhim ahamiyatga egadir. Unga ko'ra, o'quv fanlarining amaliy mashg'ulotlari jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'zini tutishi, individual fikrlashi va jamoa bo'lib ishlash ko'nikmalari tarkib toptiriladi. Chunki amaliy mashg'ulotlar ko'p hollarda ma'naviyatning muhim tamoyillaridan biri bo'lgan jamoa bo'lib ishlashga tayanadi. Jamoa bo'lib ishlash ko'nikmasiga ega boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'zgalarga axloqiy munosabatda bo'lish, o'zaro yordamlashish, jamoa uchun fidoyilik ko'rsatish va ijtimoiy faollik kabi fazilatlar tarkib topadi. Fransuz faylasufi Alber Kamyu (1900-1960) o'zining "Isyonkor odam" asarida me'yorida ortiq darajada individuallik insonning ma'naviy olamini aynitishi va buning uchun insonni jamoa vositasida tuzatish lozimligini asoslab bergan. Uning bu g'oyasi butun dunyo pedagoglari tomonidan e'tirof etilgan. Shu ma'noda o'quv fanlarining amaliy mashg'ulotlaridagi jamoa bo'lib ishlash imkoniyatlaridan boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviy ko'nikmalarini shakllantirishda foydalanish kutilgan samarani beradi. Eslatib o'tish joizki, inson tabiati va ma'naviyatida jamoaga intilish tuyg'usi tug'ma bo'ladi. Esingizda bo'lsa, Aleksandr Dyumaning (1921-1973) "Robinzon Kruzo" asarida insonning yolg'iz yashay olmasligi badiiy asoslab berilgan va unda Kruzoning o'z insoniyligini yo'qotmasligi uchun kurashishi aynan ma'naviyatini saqlashga bo'lgan intilish edi. Bularning barchasi boshlang'ich sinf o'quvchilarini mashg'ulotlarning amaliy asoslaridan foydalangan holda ma'naviy ko'nikmalarini shakllantirish nisbatan to'g'ri metodika ekanligini ko'rsatadi.

E'tibor berilsa, mashg'ulotlar vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviyatini shallantirish o'ziga xos va amaliy imkoniyatlarni beruvchi metodikalardan biridir.

Qo'shimcha mashg'ulotlar vositasida ma'naviyatni shakllantirish. Bugungi kunda mamlakatimiz ta'lim tizimida har bir

o'quv fani bo'yicha qo'shimcha mashg'ulotlarni tashkil qilish va ularda mavzularni chuqurlashtirib o'qitish tizimi amal qilmoqda. Shu ma'noda qo'shimcha mashg'ulotlar vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviyatini shakllantirishda quyidagilarga asoslanish maqsadga muvofiq bo'ladi:

a) o'quvchilarning qiziqishi asosida qo'shimcha ta'limni tashkil qilish;

b) chuqurlashtirib o'qitiladigan fanlar bo'yicha qo'shimcha ta'lim vositasidan foydalanish;

v) muddatli qo'shimcha ta'limlarni yo'lga qo'yish.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari 3-sinfdan boshlab muayyan darajada o'quv fanlarining aniq, tabiiy va gumanitar tarkiblarini tanlay boshlaydi. Shu sababli bunda fanlar bo'yicha o'quvchilarning qiziqishlaridan kelib chiqib qo'shimcha ta'lim mashg'ulotlarini tashkil qilish ma'naviyatni shakllantirishning muhim vositalaridan biri hisoblanadi. Chunki qo'shimcha ta'lim mashg'ulotlarida o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida keng muloqot jarayoni kechadi. Bunday muloqot vositasida o'quvchilar o'zlarining qiziqqan masallari bo'yicha ma'lumot va axborotlar olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bunday muloqotlar boshlang'ich sinf o'quvchilarinin ma'naviy tushunchalarini kengaytirishga xizmat qiladi. Bunda boshlang'ich sinf o'quvchilariga qiziqishning yuqori ekanligini hisobga olish muhim ahamiyatga egadir. Qo'shimcha mashg'ulotlar asoslari bo'yicha ilmiy tadqiqot olib borgan rus pedagogi Aleksandr Gessin o'quvchilarning amaliy ko'nikmalari va ularda amaliy faoliyat ko'nikmalarini shakllantirishda qo'shimcha mashg'ulotlarni meva yetishtiruvchi bog'bonga qiyoslagan edi. Bog'bon mevali daraxtlarga shakl berganidek va bu bilan kutilgan mevani olganidek, qo'shimcha mashg'ulotlar jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviyatida ba'zan tarkib topadigan illatlarni o'z vaqtida korreksiyalab borish imkoniyati mavjud. Chunki o'qituvchi muloqot jarayonida o'quvchilardagi ma'naviy konfliktlarni tez sezadi. Shu sababli yangicha yondashuvlar asosida qo'shimcha mashg'ulotlar

imkoniyatlaridan foydalangan holda boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviyatini shakllantirish ishini amalga oshirish muhim ahamiyatga ega.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun bugungi kunda o'quv fanlari bo'yicha chuqurlashtirilgan mashg'ulotlar ham tashkil etilayotganligi muhimdir. Bunda o'quv fanlarining muayyan mavzulari bo'yicha o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini kengaytirishga alohida e'tibor berilmoqda. Shu ma'noda gumanitar o'quv fanlari bo'yicha o'quvchilarning qiziqishiga asosan muayyan mavzularga tayangan holda chuqurlashtirilgan mashg'ulotlar tashkil qilish maqsadga muvofiq bo'ladi. Misol uchun, kitob o'qish metodikasi, qiziqqan ma'lumotlarni izlab topish vositalari, mayyan vaziyatlarda o'zni tutish kabi mavzularda gumanitar fanlarning chuqurlashtirilgan mashg'ulotlarni tashkil etish bilan boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviyatini shakllantirishda keng imkoniyatlarga ega bo'linadi. Bunda asosiy e'tibor o'quvchilarning qiziqishiga qaratilishi kerak va bu bilan boshlang'ich sinf o'quvchilari imkoniyatlarini rivojlantirish tarkib topadi. Aslida ma'naviyatni shakllantirish o'quvchilarning imkoniyatlarni kengaytirib borishga asoslanishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Aksincha, ma'naviyatni faqat da'vat, tushuntirish yoki talab qilish bilan shakllantirib bo'lmaydi. O'quvchilarning o'zlarini faoliyatga yo'naltirish orqali ma'naviyatni kutilgan darajada shakllantirish mumkin. Bunda o'quv fanlarini chuqurlashtirib o'qitish keng imkoniyatlarni beradi va fanlarni chuqurlashtirish jarayonida eng zaruriy mavzular mashg'ulotlari kengaytiriladi. Bunday yondashuv chuqurlashtirib o'qitiladigan o'quv fanlarining imkoniyatlaridan yangicha foydalanish vositalariga kiradi.

Mamlakatimizning tajribali va mahoratli o'qituvchilari keyingi yillarda muddatli qo'shimcha mashg'ulotlarni tashkil qilish tajribasini o'zlashtirganligini eslatib o'tish joiz. Unga ko'ra, muayyan muammo yoki o'zlashtirish shart bo'lgan tushunchalar bo'yicha o'quvchilarning vaqti va qiziqishiga asoslangan qo'shimcha

mashg'ulotlar tashkil qilinadi. Bunday mashg'ulotlar suhbat yoki trening kabi metodikalar asosida amalga oshiriladi. Shu ma'noda sinf rahbarlarining qo'shimcha mashg'ulotlarni tashkil qilishga yetakchilik qilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Misol uchun, mamlakatimizda Matematika o'quv fani o'quvchilari qo'shimcha mashg'ulotlar tashkil qilish tajribasiga ega bo'lib, unda asosan fan olimpiadalari savolnomalari bilan tinishishga e'tibor qaratiladi. Shu jihatdan o'quv fanlari bo'yicha qo'shimcha mashg'ulotlarni tashkil qilish vositasida o'quvchilarning ma'naviy ko'nikmalarini yanada kuchaytirish mumkin. Chunki suhbat yoki treninglar vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilari o'zlarining ma'naviyat bo'yicha o'zlashtirgan tushunchalarini namoyon qiladi, mustahkamlaydi va o'rtoqlaridan o'rganadi. Shu sababli, bizningcha, qo'shimcha mashg'ulotlarning bunday imkoniyatlaridan foydalangan holda o'quvchilarning ma'naviy ko'nikmalarini kuchaytirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Diqqat qilinsa, mashg'ulotlar vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviyatini shakllantirish va ularning ma'naviy ko'nikmalarini mustahkamlash ishiga innovatsion yondashish dolzarb bo'lib turibdi.

Klaster asosida mashg'ulotlar tashkil qilish. Chirchiq davlat pedagogika universitetining tashabbusi bilan 2020-2021 o'quv yilidan boshlab klaster tizimiga asoslangan o'quv, ilmiy-tadqiqot va amaliyot tizimi yo'lga qo'yildi. Buning natijasida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarlik darajasi kuchayganligini eslatib o'tish joiz.¹¹ Shu ma'noda boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviyatini shakllantirishda klaster tizimiga asoslanish kutilgan samarani beradi.

a) umumiy o'rta ta'lim maktablari biriktirilgan oliy pedagogik ta'lim muassasalari imkoniyatlaridan foydalanish;

b) ma'naviyat bo'yicha mutaxassislar va tashkilotlar bilan hamkorlik qilish;

¹¹ Muxamedov G.I. Pedagogik ta'lim innovatsion klasteri. - // Xalq so'zi gazetasi. 2020 yil. 22 dekabr soni

v) keng ko'lamlı mutaxassislar imkoniyatlaridan oqılona foydalanish.

Klaster tizimining asosini o'zaro hamkorlik va bog'liqlik tashkil qiladi. Shu jihatdan boshlang'ich sinf o'quvchilari ma'naviyatini shakllantirishda umumiy o'rta ta'lim maktablari biriktirilgan oliy pedagogik ta'lim muassasalari imkoniyatlaridan foydalanish ham o'ziga xos imkoniyatlarni beradi. Bunda professor-o'qituvchilarning o'quvchilar bilan uchrashuvlarini tashkil qilish, o'quvchilarni oliy pedagogik ta'lim muassasalari bilan tanishtirish, bu muassasalarning o'quv-texnik vositalaridan foydalanish va ilg'or xodimlarni namuna sifatida ko'rsatish kabi tadbirlar amaliy jihatga egaligi bilan muhimdir. Boshlang'ich sinf o'quvchilari maktabdan tashqari tashkilotlar yoki mutaxassislar bilan hamkorlik qilishi ularning ma'naviy qarashlarini kengaytiradi va ularda qiziqish paydo qiladi. Chunki oliy pedagogik ta'lim muassasalarida shaxsni bilim va faollikga boshlovchi ta'lim-tarbiya muhiti mavjud. Bunday muhit boshlang'ich sinf o'quvchilarida intilish, qiziqish va havas paydo qiladi. Natijada ular ham huddi shunday dargohlarda faoliyat yuritish fikriga keladi. Aynan mana shunday qiziqish, intilish va harakatning tarkib topishi boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviyatni shakllantirishning muhim vositalari hisoblanadi. Shu ma'noda bunday omillar imkoniyatlaridan maqsadli foydalanish muhim ahamiyatga egadir.

Bugungi kunda ta'lim muassasalarida ma'naviyat va ma'rifat tashkilotlarining faoliyati kengayib va kuchayib bormoqda. Bunday tashkilotlar tomonidan teatrlashtirilgan tadbirlar tashkil qilish, kitobxonlik tadbirlarini o'tkazish, mashg'ur shaxslarning yubileylarini nishonlash va xalqimizning daho farzandlari to'g'risida ma'lumotlar berish kabilar boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviy olamini boyitadi, ichki dunyosini uyg'otadi va qalbida ma'naviyat uchun zaruriy bo'lgan tuyg'ularni tarkib toptiradi. Shu sababli bunday tadbirlarda ko'proq o'quvchilarning o'z faolligi bilan ishtirok etishiga e'tibor berish maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki

ma'naviy tadbirdan maqsad yoki uni o'tkazishdagi hamkorlikning asosini o'quvchilarning fikrini, mulohazalarini va intilishlarini boyitishdir. Bugungi kunda mazkur tashkilotlar yangicha vositalar asosida tadbirlar o'tkazayotganligini eslatib o'tish joiz. Misol uchun Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi tomonidan "Bir bolaga bir kitob" loyihasi amalga oshirilmoqda. Buning natijasida kitobxonlik vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviyatini amaliy jihatdan mustahkamlashga erishish mumkin.

Mamlakatimiz Davlat rahbarining tashabbusi bilan umumiy o'rta ta'lim maktablarida mashhur san'atkorlarning maxsus to'garaklari yo'lga qo'yilgan. Shu ma'noda bunday san'atkorlarning imkoniyatlaridan foydalangan holda mahorat darslari o'tkazish va ular vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviy ko'nikmalarini mustahkamlash maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki bunday mutaxassislarda bolalarga nisbatan tabiiy yondashuv, ularning tuyg'ulariga ijobiy ta'sir ko'rsatish vositalari havas uyg'otish va bolalar bilan ishlashda ularning imkoniyatlarini hisobga olish ko'nikmalari mavjudligini eslatib o'tish joiz. Bu omillar boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviy ko'nikmalarini mustahkamlashda amaliy asoslar bo'lib xizmat qiladi. Shu sababli sinf rahbarlari boshchiligida bunday mahorat darslarini tashkil qilish bilan boshlang'ich sinf o'quvchilarini ma'naviy yo'nlatirish dolzarb bo'lib turganligini eslatib o'tish joiz.

E'tibor berilsa, klasterga asoslangan mashg'ulotlar vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviyatini shakllantirish ham innovatsion yondashuvlardan biridir.

Shunday qilib boshlang'ich sinf o'quvchilarida mashg'ulotlar vositasi ma'naviyatni shakllantirish o'ziga xos xususiyatlarga egadir. Buning uchun o'quv fanlari, qo'shimcha va klasterga asoslangan mashg'ulotlar asosida shakllantirish kutilgan samarani beradi.

2.2. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida to'garaklar mashg'ulotlari vositasida shakllantirish innovatsiyasi

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviyatini shakllantirishda innovatsion yondashuv muhim ahamiyatga ega. Chunki ma'naviyat muntazam o'zgarish jarayonida bo'ladigan hodisa sifatida inson ongining yangilanib borishini ta'minlaydi. Shu sababli inson ongi, axloqi va xarakterini talab darajasida tarkib toptirish uchun har bir davrning extiyojlaridan kelib chiqib ma'naviyat shakllantiriladi. Shu sababli boshlang'ich sinf o'quvchilarida yangicha asoslarda ma'naviyatni shakllantirishning innovatsion shakllari ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Mazkur yondashuvlardan kelib chiqib bu o'rinda e'tiboringizni boshlang'ich sinf o'quvchilarida *to'garaklar mashg'ulotlari* vositasida ma'naviyatni shakllantirishning innovatsiyasi tahliliga e'tiboringizni tortamiz.

Ta'lim va tarbiya taraqqiyotida to'garaklar mashg'ulotlari o'ziga xos tajribaga ega. Biroq bu mashg'ulotlarning imkoniyatlaridan foydalangan holda boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviyatini shakllantirish masalasiga kam e'tibor berilgan.

Fan to'garaklari vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviyatini shakllantirish innovatsiyasi. Bugungi kunga qadar har bir fan bo'yicha tashkil etiladigan to'garaklardan muayyan mavzularni chuqurlashtirish, o'zlashtirganlarni mustahkamlash va asosiy yondashuvlarni takrorlash sifatida foydalanib kelinmoqda. Shu jihatdan to'garaklar mashg'ulotlaridan foydalangan holda boshlang'ich sinf o'quvchilari ma'naviyatini shakllantirish o'ziga xos innovatsiyadir. Buning uchun quyidagilarga asoslanish maqsadga muvofiq bo'ladi:

a) fanlar mavzularidan foydalangan holda ma'naviyat tushunchalarini tarkib toptirish;

b) fanlarga bo'lgan qiziqish asosida ma'naviyat ko'nikmalarini tarkib toptirish;

v) fanlar bo'yicha o'quvchilar bilan ishlash vositasida ma'naviyatni tarkib toptirish.

Boshlang'ich ta'limda aniq, tabiiy va gumanitar fanlar umumiy tarzda o'qitiladi va ularning har biri fan asoslari bo'yicha boshlang'ich sinf o'quvchilarining tushunchalarini tarkib toptirishga yo'naltirilgan. Shu ma'noda aniq fanlar vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviyatning asoslaridan biri bo'lgan fikrlash ko'nikmasini tarkib toptirish muhim ahamiyatga ega. Bunda fan to'garaklarini erkin tashkil qilish va unda o'quvchilarni faollashtirishga e'tibor berish muhimdir. Tabiiy fanlar to'garaklari mashg'ulotlarida boshlang'ich sinf o'quvchilarida tabiat, hayvonot olami va o'simliklar olami to'g'risida to'g'ri tushunchalarni tarkib toptirish bilan ularda ma'naviyatni shakllantirish mumkin bo'ladi. Chkunki bunda o'quvchilar tabiat hodisalari va voqeligi bilan chuqur tanishadi hamda o'zining fikrlariga ega bo'ladi. Masalan, yovvoyi va uy hayvonlari to'g'risida tushunchalarni o'quvchilar aynan boshlang'ich sinflarda oladi, bu hol ham ular ma'naviyatining tarkibiy qismi hisoblanadi. Gumanitar fanlar bo'yicha to'garak mashg'ulotlarida esa boshlang'ich sinf o'quvchilarining his-tuyg'ulari va didini shakllantirish bilan ularning ma'naviyatini tarkib toptirishga erishiladi. Buning uchun bu to'garak mashg'ulotlarida o'quvchilarni ko'proq ijodiy ishlashga yo'naltirish muhim ahamiyatga egadir. E'tibor berilsa, o'quv fanlari to'garaklari mashg'ulotlarining har biri vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarida fikrlash, tushunish, his qilish va farqlash kabi ma'naviy ko'nikmalarini tarkib toptirish imkoniyatlariga ega bo'linadi. Buning uchun to'garaklarda fanlar mavzularini kengaytirish va chuqurlashtirish kutilgan samarani beradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari boshlang'ich ta'limda o'qitiladigan har bir fanga kutilgan darajada qiziqish bilan yondashadi. Bunda rus pedagogi Konstantin Ushinskiy to'g'ri

ta'kidlaganidek, bola ongidagi bilim olishga bo'lgan extiyoj sabab bo'ladi. Shu sababli boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv fanlariga bo'lgan qiziqishidan foydalangan holda to'garak mashg'ulotlarida ularning ma'naviyatini shakllantirish muhim yangicha yondashuvdir. Buning uchun quyidagi metodikaga asoslanish maqsadga muvofiq bo'ladi: aniq fanlar to'garaklarida shu fanlarga qiziquvchi o'quvchilarning ongi va ko'nikmalari chuqurlashtiriladi, tabiiy fanlar to'garaklari o'quvchilarida esa ularni tabiiy kuzatish va tajriba o'tkazish vositasida tabiat va voqeilik haqida tushunchalari takomillashtiriladi, gumanitar fanlar to'garaklari mashg'ulotlarida o'quvchilarning ijodkorlik tuyg'ulari rivojlantirilib, uning malakaga aylanishi vositasida ma'naviyati shakllantiriladi.

Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'zlarining o'quv fanlariga qiziqqan o'quvchilar bilan keng ko'lamlilik tarzda ishlashga harakat qiladi. Bunday harakat negizida o'quvchilarning ma'naviyatli bo'lishi g'oyasini anglash muhimdir. Shu jihatdan o'qituvchilarni yangi metodikalarga o'rgatish va ularning malakasini oshirish kurslarida amaliy faoliyatdagi o'qituvchilar fanlar to'garaklari vositasida o'quvchilarning ma'naviyatini shakllantirish metodikasi bilan qurollantirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunday yangicha metodikalardan foydalangan holda shaxsning ma'naviyatini shakllantirish ushbu tushunchaning qotib qolgan g'oyalar tizimiga aylanishidan saqlaydi.

Fan to'garaklarida ko'p hollarda o'quvchilarning mustaqil va erkin shug'ullanishini yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq bo'ladi. Shu ma'noda to'garaklar mashg'ulotlari jarayonida o'quvchilar bilan ishlash vositasida ularning ma'naviyatini tarkib toptirish muhimdir. Bunda trening metodiga asoslanish amaliy samarani beradi. Unga ko'ra, o'quvchilar kichik guruhlarga bo'linib ma'naviyatga oid asosiy tushunchalar bo'yicha topshiriqlarni bajaradi va uning natijasida ular o'zlashtirgan ma'naviy ko'nikmalar mustahkamlanadi hamda o'z ko'nikmalaridan foydalanish tajribasi tarkib topadi. Bunday

treninglarning topshiriqlari sifatida ma'naviyat deganda nimani tushunasiz, insonning ichki olami nima, siz kimni ma'naviyatli inson deb hisoblaysiz, siz yoqtirgan kishining nimasi ma'qul keladi, o'qituvchilarning qaysi jihatlari yoqtirasiz, eng yomon holatlarda o'zinigzni qanday tutasiz, o'rtoqlaringiz yordam so'rasa qanday ko'mak berasiz kabi topshiriqlarning berilishi boshlang'ich sinf o'quvchilarini guruh bo'lib ishlashga da'vat qiladi va buning natijasida guruhdagi o'quvchilarning ma'naviy ko'nikmasi darajasi namoyon bo'ladi. Keyingi paytlarda tajribali boshlang'ich sinf o'qituvchilari trening metodining imkoniyatlaridan keng foydalangan holda o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini amaliyot bilan bog'lashga xarakat qilayotganligini eslatib o'tish joiz. Shu jihatdan to'garaklar mashg'ulotlarida o'quvchilar bilan turli shakllarda ishlash ularning ma'naviyatini kutilgan darajada shakllantirish imkonini beradi.

Diqqat qilinsa, o'quv fanlari bo'yicha tashkil qilinadigan to'garaklar va ularning mashg'ulotlari boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviyatini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Bunda to'garak mashg'ulotlari 1-2-sinflar va 3-4-sinflar o'quvchilari xususiyatlariga mos ravishda tashkil etilishi metodik jihatdan to'g'ri hisoblanadi.

Maxsus to'garaklar vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviyatini shakllantirish innovatsiyasi. Bugungi kunda boshlang'ich ta'lim jarayoni turli tajriba-sinov maydonlari bosqichini o'tamoqda. Bundan maqsad boshlang'ich ta'lim mazmunini yanada aniqlashtirish va o'quvchilarning o'zlashtirish ko'rsatkichlarini yuksaltirishdan iborat. Shu ma'noda boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviyatini innovatsion yondashuv asosida shakllantirish uchun maxsus to'garaklar tashkil etilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunda quyidagilarga tayanish kutilgan samarani berishini eslatib o'tish joiz:

a) maxsus to'garaklarni muddatli tashkil etish;

b) maxsus to'garaklar mashg'ulotlarini noan'anaviy shakllarda amalga oshirish;

v) maxsus to'garaklar samaradorligini o'rganib borish.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviyatini shakllantirishda ixtiyoriy ishtirok etiladigan maxsus to'garaklar tashkil qilish maqsadga muvofiq bo'ladi. Misol uchun, bunda "Ma'naviyat" maxsus to'garagini yo'lga qo'yish muhimdir. Bunday to'garaklar muddatli faoliyat ko'rsatishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Shu jihatdan maxsus to'garaklarni muammoning qo'yilishiga qarab bir oylik va choraklik muddatlarda tashkil etish samarali hisoblanadi. Chunki o'quvchilar muddatli to'garaklarga qiziqish bilan qaraydilar va ulardagi har bir mashg'ulotlarni qiziqish bilan o'zlashtiradi.

Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, umuman o'quvchilar uchun tashkil etiladigan maxsus to'garaklarning muddatli vaqtga asoslanishi samara beradi va bunda to'garakning maqsad-muddaolariga erishish qulay kechadi. Chunki bu hol inson faoliyatining vaqt rejimi bilan bog'liq ijtimoiy hodisadir. Xorijiy mamlakatlardan Rossiya Federatsiyasi ta'lim muassasalarida muayyan mavzu yoki yo'nalish bo'yicha muddatli maxsus to'garaklarni tashkil etish bo'yicha o'ziga xos tajriba mavjud. Bunda mashg'ulotlar olib boradigan shaxslar bevosita muddatli to'garaklarning kutilgan darajada samara berishi uchun harakat qiladi va bu hol boshlang'ich sinf o'qituvchilariga bo'lgan o'ziga xos yordam ko'rinishidir. Shu ma'noda mamlakatimiz umumiy o'rta ta'lim maktablarida "Ma'naviyat", "Mening orzuim", "Mening oilam madaniyati", "Madaniyat olami", "Kitobxonlik - mening mashg'ulotim" kabi nomlarda va mavzularda muddatli maxsus to'garaklar tashkil etish bilan boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviyatini shakllantirish ishi yangilanadi hamda bu borada kutilgan samaradorlikka erishiladi.

Tashkil etiladigan maxsus to'garaklarning mashg'ulotlari noan'anaviy shaklda olib borilishi yoki tashkil etilishi boshlang'ich

sinf o'quvchilari ma'naviyatini shakllantirishning muhim amaliy vositalaridan biridir. Bunda bolalar kino tomoshasi, sahna ko'rinishlari, o'quvchilarning ijodlari va o'qilgan kitoblarining tahlilini amalga oshirish muhim ahamiyatga ega. Tahlil jarayonida har bir boshlang'ich sinf o'quvchisining fikr bildirishiga e'tibor berish kerak. Bahs va munozaraning mavzusiga qarab tahlillar og'zaki yoki yozma shakllarda tashkil qilinishi mumkin. Misol uchun, muayyan bolalar kinosi tahliliga bag'ishlangshan mashg'ulotlarni yozma shaklda amalga oshirish samarali hisoblanadi. Chunki boshlang'ich sinf o'quvchisi yozma shaklda o'z fikrini erkin ifodalaydi, fikrni ifodalashning ko'nikmasini egallaydi, so'zlarning to'g'ri yozilishi bilan qurollanadi va ularning so'z boyligi o'sib boradi. Bular boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviyati uchun muhim omillardir. Shu ma'noda maxsus to'garaklarning mashg'ulotlarida imkon qadar noan'anaviy ta'lim shakllaridan foydalanish vositasida o'quvchilarning ma'naviy olamini yanada boyitish imkoniyatiga ega bo'linadi. Bunday mashg'ulotlarning o'quvchilar uchun qiziqarli bo'lishini ham eslatib o'tish joiz.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviyatini shakllantirishda maxsus tashkil etiladigan to'garaklarning samaradorligi albatta, o'rganib borilishi kerak. Bunday o'rganish to'garaklarning muddatiga asoslanadi va uni "Tarbiya" o'quv fani o'qituvchisi amalga oshirishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki mazkur fan o'qituvchisi boshlang'ich ta'lim o'quv fanlari o'qituvchilari tomonidan amalga oshiriladigan tarbiya ishlarini muvofiqlashtiruvchi hisoblanadi. Shu ma'noda maxsus to'garaklarning samaradorligi o'quvchilar ma'naviy ongida yaxshi g'oyalarning tarkib topganligi, axloqida fazilatlarining ko'payib borganligi va xatti-harakatlarida tartib intizomga rioya qilish ko'nikmasining mavjudligi kabilar bilan belgilanadi. Aynan mana shu masalalarni o'rganish boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviyatning shakllanganlik darajasini va maxsus to'garaklarning samaradorligini baholab borish imkonini beradi. O'rganish va

baholash o'quvchilar va o'qituvchilar uchun manfaatli hodisadir. Shu jihatdan bugungi kunda o'rganish va baholash komponentini telekshirish hodisasidan fraq qilish lozim bo'ladi. Agar tashkil etilgan maxsus to'garaklar mashg'ulotlari kutilgan samarani bersa boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviyatidagi ijobiy o'zgarishlar yaqqol namoyon bo'ladi.

E'tibor berilsa, maxsus to'garaklarni tashkil etish o'quvchilar ma'naviyatini shakllantirishda keng imkoniyatlarni beradi. Buning uchun maktab hisobidagi o'quv soatlaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi va bunday to'garaklar boshlang'ich sinf rahbarlarining faoliyat samaradorligini kengaytiradi.

Yo'naltiruvchi to'garaklar vositasi boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviyatini shakllantirish innovatsiyasi. Pedagogika tarixida ta'lim va tarbiyaning turli shakllari tajribadan o'tib kelmoqda. Yo'naltiruvchi to'garaklar ana shunday tajribalardan biridir. Unga ko'ra, muayyan muammolarning yechimi bo'yicha yo'naltiruvchi va muayyan vaqtga ega to'garaklar tashkil etiladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviyatini shakllantirishda yo'naltiruvchi to'garaklar imkoniyatlaridan ham foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Buning uchun quyidagilarga asoslanish kerak:

- a) o'quvchilarda uchrayotgan muayyan ma'naviyatga oid muammoni hal qilish;
- b) o'quvchilarni eng so'nggi ma'naviyatga oid yangiliklar bilan tanishtirish;
- v) ma'naviy ko'nikmalari shakllangan o'quvchilarni rag'batlantirish.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviyatini shakllantirishda ularda vaqtinchalik muddatga ega bo'lgan muammolarni hal etish bo'yicha yo'naltiruvchi to'garaklarni tashkil etish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunda boshlang'ich sinflar kesimida o'quvchilar ma'naviyatining darajasini aniqlash, ularning ma'naviyatida uchrayotgan illatlarni bartaraf etish, o'quvchilar ongida bo'layotgan

yangilanish va o'zgarishlarni aniqlash masalalariga e'tibor berish muhim ahamiyatga ega. Chunki boshlang'ich sinf o'quvchilari deyarli har kuni o'zlari uchun yangi bo'lgan ma'lumotlar va axborotlarga duch keladi. Bunday ma'lumotlar va axborotlar ba'zida ma'naviy ongi rivojlanish jarayonida bo'lgan boshlang'ich sinf o'quvchilari ma'naviyatida illatlarni ham paydo qiladi. Misol uchun, ba'zi sinflarda manmanlik, o'z sinfini o'zga sinflardan ustun qo'yish, o'zi yoqtirgan o'qituvchilarga yanada yaqinroq bo'lish, yoshiga nomuvofiq so'zamonlik kabi ma'naviy muammolarning uchrashi tabiiy holdir. Shu sababli sinflar kesimida o'quvchilarda uchraydigan ma'naviyatga oid muayyan muammolarni hal qilishga yo'naltirilgan to'garaklarni tashkil qilish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunda o'quvchilar hurmatini qozongan tajriba o'qituvchilar, maktab psixologi, maktab tibbiyot xodimi va ota-onalarning faol vakillari birgalikda muammoni hal qilishda ishtirok etishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Shuni ta'kidlash lozimki, boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan ma'naviy muammolarni hal etishda faqat murosa metodiga asoslanish metodik jihatdan to'g'ri bo'ladi. Aynan murosa muammoni xal etishning o'ziga xos omilidir. Bunda maxsus tashkil etilgan yo'naltiruvchi to'garak muammo hal etilgunga qadar bo'lgan muddatga tashkil etilishi lozim bo'ladi.

Bugungi kunda jamiyatimizda yangiliklarning ko'p bo'lishi va muntazam ularning rivojlanish jarayoni kuzatilmoqda. Shu ma'noda yo'naltirilgan to'garaklar vositasida o'quvchilarni yangiliklar bilan muntazam tanishtirib borish ularning ma'naviy ko'nikmasini takomillashtiradi. Misol uchun, muayyan hodisa yoki voqelik to'g'risida to'g'ri ma'lumot berish, yangi darsliklardan foydalanish bo'yicha tavsiyalar taqdim etish, yangi kitoblar bilan tanishish bo'yicha yo'naltirishlar berish, maktab hayotida bo'layotgan yangiliklardan xabardor qilish kabi ma'lumotlar boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun qiziqarli hisoblanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari o'zlari duch keladigan har bir yangilik mazmunini tushunishni xohlaydi. Shu sababli o'quv fanlari kesimida

boshlang'ich sinf o'quvchilarini kundalik va haftalik yangiliklar bilan tanishtirib borish muqsadga muvofiq bo'ladi. Misol uchun, bugungi kunda Davlatimiz rahbari to'g'ri ta'kidlaganidek, yoshlarni kino san'ati asoslari bilan tanishtirish ham muhimdir. Buning uchun yaratilayotgan yangi kinolar to'g'risida boshlang'ich sinf o'quvchilariga ma'lumot berib borish va ularni kino ko'rish madaniyati bilan tanishtirish muhim ahamiyatga egadir. Bunday yo'naltirilgan to'garaklar 1-2-sinflar va 3-4-sinflar uchun o'ziga xos tarzda tashkil etilishi kerak. 1-2-sinflar yo'naltirilgan to'garaklarida yangiliklar bilan tanishtirishda o'qituvchi faol bo'lsa, 3-4-sinflar yo'naltirilgan to'garaklar mashg'ulotlarida esa o'quvchilarning faolligiga ham tayaniladi. Aynan yangiliklar bilan tanishtirib borish vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviyatini takomillashtirish mumkin bo'ladi.

Pedagogik metodologiyada har bir yutuq va muvaffaqiyat uchun ta'lim oluvchilarni rag'batlantirish tajribasi mavjud. Shu ma'noda ma'naviyati talab darajasida rivojlanayotgan boshlang'ich sinf o'quvchilari yo'naltirilgan to'garaklar vositasi rag'batlantirib borish ularning ma'naviy ko'nikmasini rivojlantirishning muhim asosidir. Unga ko'ra, muayyan mavzu bo'yicha o'quvchining taqdimoti tayyorlanadi va u o'quvchilarga taqdim etiladi. Taqdimot jarayonida o'quvchi o'zi o'zlashtirgan ma'naviy ko'nikmalarni to'liq namoyon qiladi va unda yanada qiziqish ko'lami ortadi. Buning natijasida o'quvchining o'qituvchilarga bo'lgan intilish ko'lami ham kengayadi. Chunki har qanday mavzudagi taqdimot jarayoni o'quvchida o'ziga bo'lgan ishonchni, fikrlashni va o'zgalarning qikrni eshitish kabi ko'nikmalarni tarkib toptiradi. Bu ko'nikmalar ma'naviyat uchun muhim omillardir.

Taqdimot vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'zlashtirgan ma'naviy tushunchalardan foydalanish ko'nikmasi ham tarkib topadi. Shu sababli tajribali pedagoglar ta'lim oluvchilarning taqdimoti masalasiga keng e'tibor beradi. Yo'naltirilgan to'garaklar

vositasida o'quvchilarni rag'batlantirish bilan ularning ma'naviyati rivojlantiriladi.

Diqqat qilinsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviyatini shakllantirishda yo'naltirilgan to'garaklar amaliyotga yo'naltirilganligi bilan muhim ahamiyatga egadir. Buning uchun boshlang'ich ta'lim Metodik kengashi a'zolarining faol bo'lishi taqozo etiladi.

Shunday qilib, boshlang'ich sinf o'quvchilarida to'garak mashg'ulotlari vositasida ma'naviyatni shakllantirish innovatsion yondashuvi o'ziga xos xususiyatga egadir. Unda fanlar bo'yicha to'garaklar, maxsus to'garaklar va yo'naltirilgan to'garaklardan foydalanish samarali hisoblanadi.

2.3. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida sinfdan tashqari mashg'ulotlar vositasida ma'naviyatni shakllantirish innovatsiyasi

Mamlakatimizda boshlang'ich ta'limni rivojlantirishning muhim asoslaridan biri o'quvchilarning ma'naviyatlilik darajasini talab ko'rsatkichlari asosida shakllantirishdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 22 dekabrda Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashi yig'ilishida so'zlagan nutqida har bir kishining ma'naviyatlilik darajasi onglilik, uyg'oq qalblik va ularga amal qilish bilan belgilanishi alohida ta'kidlangan. Shu sababli boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviyatni shakllantirish uchun ularning ongi, qalbi va dunyoqarashi to'g'ri tarkib toptirilishi kerak. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich ta'limdan keyingi ta'lim bosqichlarida amalga oshiriladigan ma'naviyatga oid ishlar qo'shimcha vazifasini bajaradi. Chunki 11-12 yoshli o'quvchilarda miya qatlamining mustahkamlanishi, egallangan tushunchalarning turg'unlashuvi va o'zlashtirilgan ko'nikmalarga amal qilish tajribalari tarkib topadi. Shu sababli boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviyatini shakllantirishda yangi va noana'anaviy innovatsion yondashuvlarga asoslanish dolzarb bo'lib

turibdi. Bu o'rinda e'tiborimizni sinfdan tashqari ishlar vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviyatini shakllantirish masalasi tahliliga tortamiz.

Tabiatga sayohat vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilari ma'naviyatini shakllantirish innovatsiyasi. Milliy pedagogikamiz tajribasida tabiatga sayohat omilidan oqilona foydalanish metodlari mavjud. Biroq keyingi yillarda mazkur metoddan foydalanishning susayganligini ta'kidlash lozim. Shu sababli sinfdan tashqari vosita hisoblangan tabiatga sayohat asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviyatini shakllantirish uchun quyidagilarga tayanish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- a) tabiat go'zalligi bilan tanishtirish;
- b) hayvonot olami bilan tanishtirish;
- v) o'simlik dunyosi bilan tanishtirish.

Bunday yondashuv boshlang'ich sinf o'quvchilari ma'naviyatini tarkib toptirishda amaliy yordam beradi. Shahar hududlarida joylashgan maktablarni boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun tabiatga sayohat muhim motivasiya vazifasini ham bajaradi. Qishloq hududlarida joylashgan maktablarning boshlang'ich sinf o'quvchilari ma'naviy ongini kengaytirishda tabiatga sayohat muhim o'rin tutadi. Bu borada avvalo tabiat go'zalligi bilan tanishtirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Buning uchun Yurtimiz fasllarining o'ziga xosligi va bu to'rt fasl ba'zi yurtlarda mavjud emasligini tushuntirish, tabiat go'zalligidan zavqlanishni o'rgatish va tabiat go'zalligini asrash burch ekanligini anglatish muhim ahamiyatga egadir. Mashhur faylasuf Aflatun (Platon) aytganidek, "Bolalarning ongi pressga o'xshaydi, unga nima taqdim qilinsa shimib oladi". Shu ma'noda boshlang'ich sinf o'quvchilarining ongida tabiat go'zalligini his qilish va undan zavqlanish, tabiat go'zalligini asrashga o'rgatish ko'nikmalarini tarkib toptirish ma'naviyatni shakllantirishning muhim asoslaridan biridir. Buning uchun har bir faslda tabiatga sayohat uyushtirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki har bir faslda tabiatning go'zalligi o'zgacha bo'lishini va u kishiga ruhiy ta'sir

ko'rsatishini hisobga olish lozim. Mashhur faylasuflardan biri Diniy Dedro ta'kidlaganidek, insonning tabiatdan zavqlanishi uni hayvonot olamidan ajratib turadi. Shu ma'noda bugungi kunda mamlakatimizda ekologik muammolar to'g'risida ko'p gapirilmoqda, xo'p gapirilmoqda va bunday muammolarni hal etishning pedagogik asoslaridan biri shaxs ongida ma'naviyatning omillaridan biri bo'lgan tabiat go'zalligidan zavqlanish ko'nikmasini tarkib toptirishdir.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida hayvonot olamiga bo'lgan qiziqish juda yuqori bo'ladi. Ular tabiiy fanlar turkumi vositasida hayvonot olamining umumiy xususiyatlari, uy va yovvoyi hayvonlarga bo'linishi kabilar to'g'risida tushunchalarga ega bo'ladi. Biroq tabiatga sayohat vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarini hayvonot olamining xususiyatlari bilan tanishtirish, ular to'g'risida amaliy ko'nikmalar berish, yashash tarzi va inson hayotida tatgan o'rni to'g'risida yo'naltirishlar taqdim etish, hayvonot olami parvarishi to'g'risida ma'lumotlar berish muhim ahamiyatga egadir. Agar o'quvchi hayvonot olami to'g'risida aniq tushunchalarga ega bo'lsa, ularning hayot va jamiyat hayotida tutgan o'rni bo'yicha tasavvurga ega bo'ladi. Bunda ayniqsa boshlang'ich sinf o'quvchilarini hayvonot parvarishiga yo'naltirish muhim ahamiyatga ega. Chunki parvarish jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarida hayvonot olamiga nisbatan mehr-oqibat, ularni asrash, himoya qilish kabi ko'nikmalar tarkib topadi. Bunday yondashuv o'quvchilarning ma'naviyatlilik darajasini kengaytiradi.

Pedagogik tajriba shuni ko'rsatadiki, ko'pchilik boshlang'ich sinf o'quvchilari uy hayvonlari parvarishi bilan shug'ullanishi natijasida ularning ongida himoya immuniteti paydo bo'ladi. Shu ma'noda ayniqsa shahar hududlaridagi umumiy o'rta ta'lim maktablarining boshlang'ich sinf o'quvchilarini hayvonot olami bilan keng tanishtirish ular ma'naviyatini talab darajasida shakllantirishning o'ziga xos omillaridan biri hisoblanadi. Chunki boshlang'ich sinf o'quvchilari faqat darsliklar, Internet ma'lumotlari

va multfilmlar vositasida hayvonot olami bilan tanishishi cheklanish hisoblanadi. Buning tabiiy ta'siri aynan tabiatga sayohat vositasida hayvonot olami bilan tanishtirish bilan belgilanadi. Umuman, o'quvchilar ongida tabiiylik vositasida ma'naviyatning shakllantirilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviyatni shakllantirishning muhim vositalaridan biri ularni o'simliklar dunyosi bilan tanishtirishdir. Tabiatga sayohat vositasida yoki to'garak mashg'ulotlari vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'simliklar dunyosi bilan tanishtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda yovvoyi o'simliklar turlari, xonakilashtirilgan o'simliklar, madaniylashtirilgan o'simliklar, ularni parvarishlash, asrash va himoya qilish bo'yicha tushunchalar berish boshlang'ich sinf o'quvchilari ma'naviyatida muhim ko'nikmalarni tarkib toptiradi. Chunki boshlang'ich sinf o'quvchilari o'simliklar dunyosi bilan tanishish vositasida ma'naviy tushunchalari kengayib, go'zallik ko'nikmasi yanada kuchayadi. Pedagogik tajriba shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich sinf o'quvchilari gullar parvarishiga qiziqadi va bu qiziqish ularda oilada tarkib topganligini eslatib o'tish joiz. Shu ma'noda boshlang'ich sinf o'quvchilarini gullarning turlari va ularni parvarish asoslari bilan chuqur tanishtirish muhim ahamiyatga ega. Ma'lumki, gul o'zini parvarishlayotgan kishini taniydi va o'zga kishining ishinini murakkablik bilan qabul qiladi. Shu ma'noda bunday ma'lumotlar boshlang'ich sinf o'quvchilarda o'simlik dunyosiga bo'lgan qiziqishni kuchaytiradi va ularda go'zallikni xis qilish ko'nikmasining rivojlanib borishiga asos bo'ladi. Bu ma'naviyat uchun muhim omillardan biridir.

E'tibor berilsa, tabiat qo'yniga sayohat uyushtirish bilan boshlang'ich sinf o'quvchilarida manaviyat tushunchasini go'zavllik va mehr-muruvvat qonuniyatlari asosida tarkib toptirish mumkin.

Tarixiy shaharlarga sayohat vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviyatini shakllantirish innovatsiyasi. Mamlakatimizda boshlang'ich sinf o'quvchilarini, umuman, ta'lim

oluvchilarning qadimiy va zamonaviy shaharlarimizga sayohatini amalga oshirish 2021-2022 o'quv yilidan boshlab yangi an'ana tusini oldi. Shu ma'noda tarixiy shaharlarga sayohat uyushtirish vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'anaviyatini shakllantirishda quyidagilarga e'tibor berish kutilgan samarani beradi:

- a) obidalar to'g'risida ma'lumot berish;
- b) muzeylar bilan tanishtirish;
- v) o'quvchilarda fahrlanish hissini tarkib toptirish.

Mamlakatimizda muhim tarixiy obidalarga ega bo'lgan shaharlarimiz ko'p. Ulardan Shahrisabz, Buxoro, Termiz, Xiva, Samarqand shaharlari YuNESKOning Insoniyat va moddiy merosi ro'yhatiga kiritilganligini eslatib o'tish joiz. Bu shaharlarimizda qurilgan obidalar o'zining dizayni, bezaklari, qulayligi va shinamligi bilan har bir insonda ma'naviy zavq uyg'otadi. Misol uchun, tarixiy obidalarimizga ishlatilgan rangli bo'yoqlar minglab yillardan buyon o'zgarishsiz kelmoqda va ularning kimyoviy xususiyatlari hamon o'rganilayotganligini ta'kidlab o'tish lozim. Bunday ma'lumotlar boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviy tushunchalarini boyitadi, ularni o'z ko'zi bilan ko'rgan o'quvchilarda hayratlanish va zavqlanish hissi paydo bo'ladi. Shu sababli obidalar bilan tanishtirish boshlang'ich sinf o'quvchilarini ma'naviy meros olamiga olib kirish va ularda vorisilik ko'nikmasini ham shakllantirish bilan ham bog'liq hodisadir. Bunday amaliy tadbir boshlang'ich sinf o'quvchilarida qiziquvchanlik, fikrlash, hamjihatlik kabi ko'nikmalarni ham tarkib toptiradi. Shu ma'noda tarixiy shaharlarga bo'lgan sayohat boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviy olamini amaliy boyitish bilan amaliy ahamiyatga egadir. Bundan tashqari, zamonaviy shaharlarimiz bilan ham tanishtirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Masalan, Toshkent shahri va viloyatlar markazlaridagi yangi obidalar, turar joylar va ulardagi muzeylar bilan tanishtirish boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviyatini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Eslatib o'tish joizki, shaharlarimizda bir

necha muzeylar faoliyat yuritmoqda. Tabiat muzeyi, tarixiy yodgorliklar muzeyi, noyob eksponatlar muzeyi kabilar ma'naviyat maskanlari sifatida boshlang'ich sinf o'quvchilariga ruh beradi. Shu sababli bunday imkoniyatlardan foydalanish zaruriyat bo'lib turganligini eslatib o'tish joiz.

Mamlakatimizning muzeylari keyingi besh yil davomida yangi konsepsiyaga asosan yangi eksponatlar bilan boyitildi va ular bilan o'quvchilarni tanishtirishda moliyaviy imkoniyatlar joriy etildi. Misol uchun, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan jadid ma'rifatparvarlari merosi ma'naviyatning muhim asosi sifatida taqdim qilinganligini eslatib o'tish joiz. Shu ma'noda mamlakatimiz boshlang'ich sinf o'quvchilarining Toshkent shahrida joylashgan Jadid ma'rifatparvarlari muzeyi bilan tanishtirilishi muhim ahamiyatga egadir. Bu muzeyda Abdurauf Fitrat, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulxamid Cho'lpon, Mahmud Xodiev, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy kabilarga oid noyob topilmalar, ularning yozuvlari va ma'naviy merosi joylashtirilgan. Bu meros bilan tanishish boshlang'ich sinf o'quvchilarida va ularning ongida jadid ma'rifatparvarlari ta'kidlaganidek, "Tilda, fikrda va ishda birlik" ko'nikmasini shakllantiradi.

Tilda birlik tushunchasi ona tilini chuqur bilish va uni himoya qilishni, fikrda birlik tushunchasi milliy g'oya asosida mustaqil fikrga ega bo'lishni va ishda birlik tushunchasi esa faoliyatda samaradorlik ma'nosini anglatadi. Bunday omillar boshlang'ich sinf o'quvchilarida muhim ma'naviy tushunchalarni tarkib toptiradi va ularda ma'naviyatning asosi bo'lgan g'ururlanish ko'nikmasini shakllantiradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari o'z ko'rgan narsasiga tez ishonadi va uni xotirasida uzoq vaqt saqlaydi. Shu jihatdan muzeylarga sayohat boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviy tushuncha, ma'naviy ko'nikma va ma'naviy faoliyat asoslarini kutilgan darajada shakllantirish uchun omil hisoblanadi. Misol uchun, Amir Temur va temuriylar davlat muzeyi dunyo miqyosidagi eng noyob eksponatlarga ega. Muzeyda hatto asrlar davomida rangi

va shaklini yo'qotmay kelayotgan obidalarimizning arxitekturasi va dizayni asoslari bo'yicha ham ma'lumot beriladi. Bunday ma'lumotlar boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviyatning muhim tushunchalaridan biri bo'lgan vorisiylik ko'nikmasini tarkib toptiradi. Chunki ma'naviyatning muhim talablaridan biri yosh avlodni ajdodlarga munosib tarbiyalash bilan bog'liqdir. Shu ma'noda boshlang'ich ta'lim bosqichidayoq o'quvchilarni mamlakatimiz miqyosida muzeylar faoliyati bilan tanishtirish va u asosda ularning ma'naviyatini tarkib toptirish yangicha yondashuvlardan biridir. Pedagogikamiz tajribasidan o'tgan bunday yondashuvlarni qayta tiklash sifatli ta'limga erishishning ham asoslaridan biri hisoblanadi.

O'quvchilarda fahrlanish hissini tarkib toptirish muhim masalalardan biri bo'lib turibdi. Chunki fahrlanish ko'nikmasi boshlang'ich sinf o'quvchilarining qalbi va ongini uyg'otadi, ularning his-tuyg'ularini tartibga soladi va eng asosiysi o'quvchilarda o'zligini anglash jarayonini tarkib toptiradi. Pedagogik tajribalar shuni ko'rsatadiki, fahrlanish ko'nikmasiga ega shaxsda Vatanni sevish, uni ardoqlash va Vatan xizmatida bo'lish fazilatlarini tarkib topgan bo'ladi. Shu sababli boshlang'ich sinf o'quvchilarida fahrlanish hissini tarkib toptirishda tabiat va muzeylarga sayohat sinfdan tashqari mashg'ulotlar imkoniyatlaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Mashhur faylasuf Artur Shapingaur "Jamiyatdan qochish" asarida yosh avlodning ko'nglida noto'g'ri tuyg'ularning tarkib topishi, fahrlanish va ibrat olish ko'nikmasining mavjud bo'lmasligi, ularga e'tiborning kamligi jamiyatdan qochish va o'zini begona his qilish tuyg'usining shakllanishiga olib kelishini asoslab ko'rsatgan. Shu sababli boshlang'ich sinf o'quvchilarini jamoa va jamiyat hayotiga tayyorlashda ma'naviyat qanchalik o'rin tutsa, ma'naviyatning shakllanishida fahrlanish ko'nikmasi ham shunchalik ahamiyatga ega. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, xorijiy mamlakatlar tajribasida o'quv fanlarini o'qitish jarayonida ta'lim oluvchilar ongiga faxrlanish kabi ko'nikmalarni shakllantirishga

asosiy e'tibor qaratiladi. Shu sababli men o'zbekman, men inglizman, man amerikalikman, men olmonman kabi iboralar ta'lim oluvchilar faoliyatida ko'p ishlatiladi. Bu millatchilik ko'nikmasi emas, balki millatining qudrati va qadriyati bilan fahrlanishdir. Shu ma'noda boshlang'ich sinf o'quvchilarida fahrlanish hissini tarkib toptirish bilan ularning ma'naviyatini kutilgan darajada shakllantirish imkoniyatiga ega bo'lish mumkin.

E'tibor berilsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviyatni shakllantirish uchun muzeylarga sayohat va ular vositasida fahrlanish hissini tarkib toptirish muhim amaliy imkoniyatlarni beradi. Bu innovatsion yondashuvdan foydalanish metodik jihatdan to'g'ri ekanligini eslatib o'tish joiz.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari ma'naviyatini tanlovlar asosida shakllantirish innovatsiyasi. Turli tanlovlar sinfdan tashqari mashg'ulotlarning tarkibiy qismi sifatida idrok etilishi muhim ahamiyatga egadir. Shu jihatdan bunda tanlovlarning quyidagi turlaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- a) insholar tanlovi;
- b) yangi ishlanmalar tanlovi;
- v) yangiliklar tanlovi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviyatini shakllantirishda insholar tanlovidan foydalanish muhim amaliy ahamiyatga ega. Bunda muayyan mavzu bo'yicha, asosan ma'naviy tushunchalarni qamrab olgan mavzular bo'yicha insholar tanlovini o'tkazish muhimdir. Misol uchun, "Mening orzuim", "Mening onam", "Mening Vatanim", "Mening Ustozim", "Mening maktabim", "Mening o'rtog'im", "Men sevgan kitob" kabi mavzularda inshorlar tanlovini o'tkazish boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviy ko'nikmalari ko'rsatkichlarini yaqqol namoyon qiladi. Chunki inshoni yozish jarayonida o'quvchilar izlanadi, fikrlaydi, o'z fikrini ifodalashni o'rganadi, O'zining ma'naviy tushunchalarini namoyon qiladi va ma'naviy faoliyatga tayyorgarlik darajasi to'g'risida tabiiy ma'lumotlarni taqdim etadi. Shu sababli an'anaviy Pedagogikada

insho yoki bayon tanlovlariga asosiy e'tibor qaratib kelinganligini eslatib o'tish joiz. Bunda insholar tanlovini o'tkazishda 1-2-sinflar va 3-4-sinflar o'quvchilari xususiyatlarini hisobga olish hamda insholarni baholashda ekspertlar guruhidan foydalanish yoki raqamli texnologiyalarga asoslanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Insho jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilari o'zlarining his-tuyg'ulari va estetik didini namoyon qilishini ham hisobga olish kerak. Buning natijasida boshlang'ich sinf o'quvchilari ma'naviy ongida kechayotgan kechinmalar, fikr va mulohazalarni aniqlash imkoniyatiga ega bo'linadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari ma'naviyatini shakllantirishda ularni yangi ishlanmalar yaratishga yo'naltirish ham muhim ahamiyatga ega. Bunda plastilin yoki karton qog'ozlardan foydalangan holda turli ishlanmalar yaratishga asoslanish muhimdir. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining xususiyatlarini hisobga olgan holda narsalar, buyumlar, hayvonlar, o'simliklar kabilarning nusxalarini yaratish bo'yicha ishlanmalarni amalga oshirish kutilgan samarani beradi. Chunki yangi ishlanmalarda boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviy ko'nikmalari va borliqqa bo'lgan munosabati o'z ifodasini topadi. Mashhur pedagog Yevgeniy Bepalko quyidagicha tajriba o'tkazgan: 2-sinf o'quvchilariga "Mening oilam" mavzusida rasm chizish topshirig'i berilgan. Ye.Bepalko boshlang'ich sinf o'quvchilari chizgan rasmlarni tahlil qilib o'quvchilar o'z oilasida qaysi oila a'zosiga ishonishi va suyanishini aniqlagan. Chunki o'quvchilar rasmda otasi, onasi yoki opasi kabilarni nisbatan yorqinroq rangda hamda o'zining yonida tasvirlagan. Bunda oiladagi muhitning boshlang'ich sinf o'quvchilariga qanday ta'sir ko'rsatishi to'g'risida aniq ma'lumotga ega bo'lish mumkin. Shu ma'noda bunday tajribalar asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarini yangi ishlanmalar yaratishga yo'naltirish bilan ularning ma'naviy ko'nikmalarini boyitish va baholash imkoniyatlariga ega bo'linadi.

Mamlakatimizning rivojlanish jarayonida yangiliklarning muntazam ro'y berayotganligi ijtimoiy hayotning o'zgarib borishiga asos bo'lmoqda. Bundan tashqari, Internet global axborot tarmog'i vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilari kundalik yangiliklardan xabardor bo'lib borishi tarkib topdi. Shu sababli bo'layotgan yangiliklarni saralash, tarkiblashtirish va ularning eng muhimlari bilan boshlang'ich sinf o'quvchilarini tanishtirib borish vositasida ma'naviyatini kutilgan darajada tarkib toptirish mumkin. Bunda mashhur rus pedagogi Konstantin Ushinskiy ta'kidlaganidek, yangiliklar o'quvchilarni boshqaradi, tamoyiliga asoslanish muhim ahamiyatga ega. Boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'z o'quv fanlari xususiyatlaridan kelib chiqib o'quvchilarga muntazam yangiliklarni taqdim etib borishi ularning ma'naviy faoliyatga tayyorgarligini kuchaytirishga xizmat qiladi. Fanlar vositasida o'quvchilarni yangiliklar bilan tanishtirish ularni ijtimoiy faollashtirishga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bularning barchasi boshlang'ich sinf o'quvchilari ma'naviyatini shakllantirishda yangiliklar tizimi vositasidan foydalanishni ham taqozo etadi.

Diqqat qilinsa, turli tanlovlar vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviyatini tarkib toptirish innovatsion yondjashuvlardan biri hisoblanadi.

Shunday qilib boshlang'ich sinf o'quvchilarida sinfdan tashqari mashg'ulotlar vositasida ma'naviyatni shakllantirish innovatsiyasi samaradorligi bilan diqqatni tortadi. Bu innovatsiyada tabiatga sayohat, tarixiy shaharlarga sayohat va turli tanlovlar sinfdan tashqari mashg'ulotlar amaliyotga yo'naldirilganligi bilan muhimdir. Bularning barchasi oliy pedagogik ta'lim jarayonida boshlang'ich sinf o'qituvchilari tomonidan o'zlashtirilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

III BO'LIM
BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARI MA'NAVIYATINI
SHAKLLANTIRISHNING INNOVATSION METODOLOGIYASI

3.1. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviyatni
shakllantirishning individual yo'naltirish innovatsion
metodikasi

Boshlang'ich sinf o'quvchilari ma'naviyatini shakllantirishning innovatsion metodologiyasini ishlab chiqish zaruriyat bo'lib turibdi. Shu sababli tadqiqotimizning birinchi bo'limida boshlang'ich sinf o'quvchilari ma'naviyatini shakllantirish innovatsion metodikasining nazariy masalalarini va ikkinchi bo'limida ushbu muammoning innovatsion didaktikasi masalasi e'tiborimizga taqdim etilgan edi. Bu o'rinda ana shu masalaning *innovatsion metodologiyasini* ishlab chiqish masalasiga diqqatimizni tortamiz.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviyatni shakllantirishning individual yo'naltirish innovatsion metodikasi mazkur masala metodologiyasida muhim o'rin tutadi. Shu sababli individual yo'naltirish metodikasini ishlab chiqishda butunlay yangicha yondashuvlarga extiyoj mavjud.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari ma'naviyatini shakllantirishning individual yo'naltirish metodikasida layoqatni rivojlantirish innovatsiyasi. Layoqat – shaxsning tug'ma va tabiiy ravishda ongi, qalbi va dunyoqarashida mavjud bo'lgan ko'nikmalar, xususiyatlar va o'ziga xosliklar majmuidir. Pedagogik ta'limotlar har bir shaxsda layoqatning mavjud bo'lishini e'tirof etadi va u tarbiya vositasida ko'nikma hamda malakaga aylanishi alohida ta'kidlanadi. Shu ma'noda boshlang'ich sinf o'quvchilarida layoqat asosida ma'naviyatni shakllantirish uchun quyidagilarga asoslanish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- a) o'quvchilarning ma'naviy layoqat darajasini aniqlash;
- b) o'quvchilarni layoqatlik darajasiga ko'ra guruhlariga bo'lish;

v) o'quvchilarning layoqatini rivojlantirish tadbirlarini rivojlantirish.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviy layoqatini aniqlashda ularning tushunish tushunchalari, ongining shakllanganligi va ularning tafakkurida maqsad-muddaolarning tarkib topganligiga asoslaniladi. Bunda boshlang'ich sinf o'quvchilarida tushunish tushunchalarini to'g'ri belgilash muhim ahamiyatga egadir. Ba'zi o'quvchilar topshiriqlarni tez tushunadi, ba'zilari matnni o'qigach topshiriqni tushunadi va ba'zilari esa bir ishora asosida darhol topshiriqni tushunadi. Bunda ularning maktabgacha ta'lim va oilada tarbiya olganlik darajasi namoyon bo'ladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotida tarbiya olgan boshlang'ich sinf o'quvchilarida muayyan masalalarni tez tushunish mavjud bo'ladi, oila tarbiyasida to'g'ri boshlang'ich ta'limga kelgan o'quvchilarda tushunish darajasi nisbatan quyi ko'rsatkichga ega bo'ladi. Biroq boshlang'ich sinf o'quvchilarining tushunish ko'nikmasi rivojlanish darajasida bo'lganligi uchun uning darajasini tez anglash mumkin. Shuningdek, boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviy ongi darajasini ham aniqlab olish taqozo etiladi. Bunda o'quvchilarning ijtimoiylashuv darajasiga ahamiyat beriladi. Buning natijasida boshlang'ich sinf o'quvchilari ongining ko'rsatkichlari aniq belgilab olinadi. Shuningdek, boshlang'ich sinf o'quvchilari ongida muayyan maqsadlarning tarkib topganligini ham o'rganish kerak bo'ladi. Bunda bilim olishga intilish, tarbiyalanganlik ko'rsatkichlarini namoyon qilish va faoliyatda faollik kabi masalalarga e'tibor qaratiladi. Chunki boshlang'ich sinf o'quvchilari aniq maqsad-muddaoga ega bo'lishi ular layoqatining rivojlanish asosini belgilovchi omillardan biridir. E'tibor berilsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarining tushunish, ongliligi va maqsadga egaligini o'rganish vositasida ularning ma'naviy layoqati darajasi aniqlanadi. Buning natijasida ma'naviy layoqatni rivojlantirish tadbirlarini belgilash imkoniyatiga ega bo'linadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviy layoqatlilik darajasi aniqlangach ular kichik guruhlariga bo'linadi. Bunda 3-4 yoki 10-15 o'quvchilardan iborat guruhlarni shakllantirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Buning uchun asosiy e'tibor ma'naviy layoqati rivojlanish jarayonida bo'lganlar bir guruhga, ma'naviy layoqati nisbatan shakllangan o'quvchilar ikkinchi guruhga va ma'naviy layoqati ko'nikma darajasida tarkib topgan o'quvchilar uchinchi guruhga bo'linishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Eslatib o'tish joizki, bundan maqsad boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviy layoqatini tadrijiy asosda rivojlantirish ishini amalga oshirishdan iborat. Shu ma'noda 1-2-sinflarda o'quvchilarning ma'naviy layoqatlik guruhlari nisbatan ko'proq bo'ladi va 3-4-sinflarda esa o'quvchilarning ma'naviy layoqatlik guruhlari kam bo'ladi. Chunki 3-4-sinflarda tabiiy ravishda o'quvchilarning ma'naviy layoqati ko'nikmaga aylanadi. Shu sababli xorijiy mamlakatlar tajribalarida 3-4-sinflar o'quvchilarini nisbatan makro guruhlariga bo'lish mavjud. Misol uchun, Rossiya Federasiyasi ta'lim muassasalarida 3-4-sinf o'quvchilariga layoqatlilik ko'nikmasi shakllangan shaxs sifatida munosabatda bo'linadi, ya'ni ularga har qaynday bilim asoslarini yoki ma'lumotlarni taqdim qilish mumkin deb hisoblanadi. Haqiqatan ham 3-4-sinflarda o'quvchilarning ma'naviy layoqatlilik ko'nikmasi shakllanganligi bilan diqqatni tortadi. Bu davrda o'quvchilar ongida yaxshilik va yomonlikni farqlash, jamoatchilik joylarini o'zini tutish, o'rtoqlariga yordam berish kabi ko'nikmalarning namoyon bo'lishi ularda ma'naviy layoqatlik turg'un ko'nikma sifatida shakllanganligidan dalolat beradi. Bunday yondashuv o'ziga xos metodik izlanishlar olib borishni taqozo etadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviy layoqati darajasi aniqlanib, ular kichik guruhlariga bo'lingach layoqatni rivojlantirishga qaratilgan individual tadbirlar majmui ishlab chiqiladi. Bunday tadbirlarida asosiy e'tibor boshlang'ich sinf o'quvchilarining faolligini tarkib toptirishga diqqat qilishni taqozo etadi. Bugungi kunga qadar boshlang'ich ta'limda o'quvchilar

ma'naviyatini shakllantirishda o'rgatish, tushuntirish va da'vat qilish kabi an'anaviy metodlardan foydalanib kelinmoqda. Hozirgi sharoit esa boshlang'ich sinf o'quvchilari ma'naviyatini shakllantirish uchun ularning layoqatini rivojlantiruvchi tadbirlar majmuini ishlab chiqish va bu ishga yangicha yondashish dolzarb bo'lib turibdi. Shu ma'noda boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'zlarini mustaqil ishlashga da'vat qiladigan tadbirlarni shakllantirish muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Misol uchun, muayyan topshiriqlar vositasida ularning mustaqil ishlashini tashkil qilish ommaviyligi bilan diqqatni tortadi. Chunki mustaqil ishlash jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilari o'zlarining layoqat kuchi va ko'nikmasiga tayanadi. Shu sababli o'quvchilarning ma'naviy layoqatini rivojlantiruvchi tadbirlar va ularni amalga oshirish metodikasini ishlab chiqish dolzarb bo'lib turibdi. Bunday tadbirlarda tashqi ta'sirning, ya'ni ota-onalar, jamoatchilik va ta'limdan manfaatdorlarning ta'sir ko'lamini kamaytirish muhim ahamiyatga egadir. Agar boshlang'ich sinf o'quvchilari ma'naviy layoqatini rivojlantirish tadbirlarida jamoatchilik keng ishtirok etsa, layoqatni rivojlantirish ishlari kutilgan darajada bo'lmasligini ta'kidlab o'tish lozim. Chunki layoqatni rivojlantirish individual yondashuvni, maqsadli tadbirlarni va psixologik qonuniyatlarga asosan harakatlarni amalga oshirishni taqozo etadi.

E'tibor berilsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviyatni shakllantirish uchun eng avvalo ularning ma'naviy layoqatini rivojlantirish tadbirlari amalga oshirilishi kerak.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari ma'naviyatini shakllantirishning mustaqil faoliyat innovatsiyasi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari ma'naviyatini shakllantirishda ularni mustaqil faoliyatga yo'naltirish muhim o'rin tutadi. Buning uchun quyidagilarga asoslanish maqsadga muvofiq bo'lishini eslatib o'tish joiz:

- a) o'quvchilarga mustaqil faoliyat asoslarini tushuntirish;
- b) o'quvchilarni mustaqil faoliyatga o'rgatish;

v) o'quvchilarning mustaqil faoliyat ko'nikmasini kuzatib borish.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga mustaqil faoliyat asoslarini tushuntirish muhim ahamiyatga ega. Bunda ularga bilimlarni qanday o'zlashtirish, fazilatlarini o'rganish, yaxshilardan ibrat olish, Ustozlarning topshiriqlarini o'z vaqtida bajarish, o'rtoqlariga mehribon bo'lish va jamoaparvarlikka ko'niktirish ishlari amalga oshirilishi muhim o'rin tutadi. Chunki boshlang'ich sinf o'quvchilari mustaqil faoliyat asoslari bilan to'g'ri tanishsa, ularda mustaqil xarakter va murakkab vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalari tadriijiy rivojlanib boradi. Bugungi boshlang'ich sinf o'quvchisi tezkor rivojlanish jarayonida yashayotganligi va ular ma'lumotlar olamida kezayotganligini alohida ta'kidlash lozim. Aynan jamiyatning tezkor rivojlanishi va ma'lumotlarning ko'pligi jamiyatni rivojlantirganligi holda, boshlang'ich sinf o'quvchilaridan uning talablariga moslashib borishni taqozo etadi. Shu sababli boshlang'ich sinf o'quvchilariga mustaqil faoliyat va uning bilim olish, tarbiyalanish hamda jamoatchilik bilan hamkorlikda tutgan o'rnini to'g'risida aniq tushunchalar berilishi kerak. 1-2-sinf o'quvchilari yo'naltirilgan tarzda mustaqil faoliyat asoslari bilan tanishtiriladi, 3-4-sinf o'quvchilari esa aynan turli murakkab holatlar va vaziyatlarni tashkil qilgan holda mustaqil faoliyatga yo'naltiriladi. Buning natijasida asta-sekin boshlang'ich sinf o'quvchilarini mustaqil faoliyat asoslarini o'zlashtirish jarayoni tarkib topadi.

Milliy pedagogikamiz tarixida jadid ma'rifatparvarlari o'quvchilarni ilmiy asoslangan mustaqil faoliyatga yo'naltirishni amalga oshirgan. Bunda o'qitilayotgan o'quv fanlarini individual o'zlashtirish hamda o'g'il va qiz o'quvchilarning birgalikda o'qishi hamda izlanishini tashkil qilishga asoslanilgan. Buning natijasida jadid maktablarida boshlang'ich ta'lim yakunida o'quvchilar mustaqil faoliyat asoslari bo'yicha aniq tushunchalarga ega bo'lishgan va shu tushunchalar asosida ta'limning keyingi turlarini

tanlashgan. Qizig'i shundaki, jadid maktablarida boshlang'ich ta'lim yakunida o'quvchilar hozirgi oliy ma'lumot beruvchi institutlar o'rnida bo'lgan madrasalarda o'qishni ham tanlashgan. Misol uchun, Abdurauf Fitrat "Munozara" asarida jadid maktablari boshlang'ich bosqichini bitiruvchi o'quvchilarini tibbiyot yoki muhandislikka ixtisoslashgan madrasalarga o'qishi zaruriyatini asoslab ko'rsatgan. Shu ma'noda boshlang'ich sinf o'quvchilari mustaqil faoliyat ko'nikmasini tarkib toptirish uchun avvalo uning asoslari muntazam tushuntirib borilishi kerak.

Boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilar mustaqil faoliyatga o'rgatilishi ularning ma'naviyatini shakllantirishdagi muhim omillardan biridir. Bunda ularda qiziqqan kitoblarni tanlash, ma'lumotlarni topa olish, murakkab vaziyatlarda o'zgaralar bilan muloqotda bo'lish, sinfda va maktabda o'z intilishlariga ega bo'lish, sinfdan va maktabdan tashqari tadbirlarda faol bo'lish kabilarga o'rgatilishi muhim o'rin tutadi. Mazkur masala ham jadid ma'rifatparvarlari tomonidan juda yaxshi yo'lga qo'yilgan. Misol uchun, hozirgi trening shaklidagi mashg'ulotlar jadid maktablarida o'quvchining mustaqil ishi shaklida amalga oshirilgan. Unga ko'ra, o'quvchi o'zi qiziqqan mavzu bo'yicha material to'plagan va bu material sinfda o'quvchilar guruhi tomonidan muhokama qilingan. Buning natijasida muayyan muammo bo'yicha o'quvchilarda fikrlar silma-xilligi tarkib topgan. Shu sababli Abdulla Avloniy "Birinchi muallim" o'qish darsligida asosiy e'tiborni o'quvchilarning o'quv materiallarini mustaqil faoliyat asosida o'zlashtirishga qaratgan. Unda muayyan matn bo'yicha taxlil fikr chiqarish va hayotdan misollar keltirish topshiriqlari berilgan. Buning natijasida o'quvchilar o'ziga xos o'quv izlanishini amalga oshirgan. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini mustaqil faoliyatga o'rgatish jarayonida bunday tajribaviy tadbirlardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Eslatib o'tish joizki, Abdurauf Fitrat "Oila" asarida jadid maktabi o'quvchisi va oila tarbiyasining hamkorligi masalasini tahlil qilganida, o'quvchilarda mustaqil faoliyat ko'nikmasining

tarkib topganligiga asosiy e'tiborni qaratgan. Shu sababli bu asar jadid pedagogikasi yetakchisi Mahmudxo'ja Behbudiy tomonidan "hammamiz uchun bu asar birinchi muallim" deb baholangan. Demak, pedagogik tajribalar asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarini mustaqil faoliyatga o'rgatishda ularning ma'naviyatini amaliy tarkib toptirish imkoniyatlariga ega bo'lish mumkin.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviyatini kutilgan darajada shakllantirish uchun ular amaliy ko'nikmalar bilan ham qurollantirilishi kerak va buning uchun boshlang'ich sinf o'quvchilarida mustaqil faoliyat ko'nikmasining shakllanish jarayonini o'rganib borish taqozo etiladi. Bunda o'quvchining o'zini tutish, faolligi, fikrini ifodalay olishi, jamoaparvarlik, Ustozlarga munosabati, o'zgalarga nisbatan hurmati va o'rtoqlariga yordam berish harakatlari kabi mezonlar kuzatilib baholanadi. Buning natijasida boshlang'ich sinf o'quvchilarida mustaqil faoliyat ko'nikmasining shakllanganlik darajasi aniqlanadi. Kuzatish jarayonini amalga oshirishda, albatta, 1-2-sinflar va 3-4-sinflar o'quvchilariga xos bo'lgan xususiyatlardan kelib chiqish metodik jihatdan to'g'ri bo'ladi. Shu jihatdan boshlang'ich sinf o'quvchilarida mustaqil faoliyat ko'nikmasini o'rganish va baholab borish ishlari sinf rahbarlari boshchiligida maktab psixologi va maktab tibbiyot xodimi ishtirokida amalga oshiriladi.

Diqqat qilinsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarini mustaqil faoliyat asoslari bilan tanishtirish, ularni mustaqil faoliyatga o'rgatish va mustaqil faoliyat ko'nikmasining rivojlanishini kuzatib borish asosida ma'naviyatni kutilgan darajada shakllantirish mumkin:

- a) o'quvchilarning sahna asarlari ko'rinishlarini tashkil qilish;
- b) o'quvchilarda ijodiy qiziqish bo'lgan sohalar vositasida mazkur ko'nikmani rivojlantirish;
- v) o'quvchilarni muntazam ravishda ijodkorlikka yo'naltirib borish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 22 dekabrda Respublika Ma'naviyat va Ma'rifat kengashi yig'ilishida so'zlagan nutqida ma'naviyatning eng muhim asoslaridan va yo'nalishlaridan biri sifatida musiqa, kino, teatr, tasviriy san'at kabilarni alohida ta'kidlab o'tdi. Shu sababli boshlang'ich sinf o'quvchilarini teatr san'ati asoslariga yo'naltirish bilan ularda ma'naviy-estetik ko'nikmalarni kutilgan darajada tarkib toptirish mumkin. Bunda o'quvchilarning o'zlari tomonidan tashkil etiladigan va amalga oshiriladigan sahna asarlari ko'rinishlaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega. An'anaviy pedagogikamizda bu metoddan oqilona foydalanib kelingan, lekin keyingi yillarda o'quvchilarning ijodkorlik ko'nikmasini tarkib toptiruvchi bunday omillardan foydalanish sust kechayotganligini eslatib o'tish joiz. Chunki sahna asarlari va ko'rinishlari boshlang'ich sinf o'quvchilari ongida ezgu g'oyalar, intilishlar, havaskorlik, his qilish, tushunish, jamoa bo'lib harakat qilish kabi ma'naviyatning muhim omillarini tarkib toptiradi. Shu ma'noda Amerikalik pedagog Jon Dyui "Qalbim bolalarga" asarida boshlang'ich sinf o'quvchilarini sahnada ko'rish har bir jamiyatning yutuq va kamchiliklarini idrok etishdir mazmunidagi fikrni bayon qilgan edi. Buning ma'nosi shuki, boshlang'ich sinf o'quvchilari obrazlar vositasida nafaqat o'zining ma'naviy olamini, balqi jamiyatda kechayotgan jarayonni ham namoyon qiladi. Shu jihatdan boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun sahna asarlari majmuini tayyorlash dolzarb bo'lib turibdi. Misol uchun, bu borada Mahmudxo'ja Behbudiyning "O'qimagan bolaning holi", G'ulom Zafariyning "Bolalar qo'shiqlari", Abdurauf Fitratning "Hind sayyohi bayonoti", Hamza Xakimzoda Niyoziyning "Yangi hayot", Oybekning "Bolalik", Abdulla Qodiriyning "Uloqda" kabi sahna asarlarini tavsiya etish mumkin. Bu sahna asarlarining bosh g'oyasi boshlang'ich sinf o'quvchilariga ma'naviyatning muhim omillaridan biri bo'lgan o'zlikni anglatish tashkil qiladi. Shu ma'noda sahna asarlari ko'rinishi vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviyatini talab darajasida tarkib toptirish metodikasiga ega bo'linadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari ijtimoiy hayot yoki jarayonning juda ko'p yo'nalishlariga qiziqadi. Bunda asosiy masala ularning ijodiy qiziqishlari asosida yo'naltirishdan iborat. Shu sababli boshlang'ich sinf o'quvchilarini adabiyot, san'at, teatr, kino, ilmiy tadqiqotchilik, kitobxonlik, izlanuvchanlik kabilarga yo'naltirish ularning ijodiy qiziqishlarini rivojlantirishga olib keladi. Misol uchun, agar boshlang'ich sinf o'quvchilari o'quv fanlarining muayyan sohalariga aniq yo'naltirilsa, ularda shu yo'nalish bo'yicha ko'nikmalar tarkib topadi.

Bunga Matematika o'quv fanining o'qituvchilari tomonidan amalga oshirilayotgan matematik savodxonlikni tarkib toptirishga doir faoliyati yorqin misoldir. Shu ma'noda keyingi paytlarda tabiiy fanlar o'qituvchilari ham o'quvchilarda ushbu fanlar turkumi bo'yicha qiziqish ko'nikmalarini tarkib toptirishga e'tibor bera boshlaganligini eslatib o'tish joiz. Biroq gumanitar fanlar o'qituvchilar o'quv fanlarining ko'pligi bois o'quvchilarning ijodiy qiziqishi bo'yicha soha va yo'nalishlarga dav'at qilishi sust kechmoqda. Bir paytlar Pedagogikamiz milliy tajribasida masalan, o'quvchilarni badiiy ijodga o'rgatish metodikasidan oqilona foydalanilar edi. Chunki boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijod tuyg'usi talab darajasida bo'ladi va bu tuyg'uni rivojlantirish bilan ularda ijodiy qiziqishni rivojlantirish mumkin. Pedagogik tajribamiz shuni ko'rsatadiki, 4-sinf o'quvchisi o'ziga xos she'rlar yozish ko'nikmasini egallaganligi namoyon bo'lgan. Demak, bugungi kunda boshlang'ich sinf o'quvchilari ijodiy qiziqishlariga asosan yo'naltirilishi maqsadga muvofiq bo'ladi va bu bilan ma'naviyatni shakllantirishning estetik metodikasidan foydalanish imkoniyatiga ham ega bo'linadi.

Tajibali boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'z o'quvchilarini o'quv fanlari vositasida muntazam ijodkorlikka yo'naltirib borish tajribasi mavjud. Misol uchun, "Tarbiya", "Texnologiya", "Tasviriy san'at", "Musiqqa madaniyati" kabi o'quv fanlari asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarini ijodkorlikka yo'naltirib borish mumkin. Bunda

o'quvchilarning har bir yaratgan ishlanmalari baholanishi, yutuqlarining ta'kidlab ko'rsatilishi, ular duch kelayotgan muammoni xal etishga e'tibor berish kabilar muhim o'rin tutadi. Tajriba shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich sinf o'quvchilari tomonidan yaratilgan ijodiy ishlanmalar orginalligi, badiiy didga boyligi, o'quvchining tasavvur olamini namoyon qilishi kabi jihatlar bilan e'tiborga molik. Shu sababli bizning yondashuvimizga ko'ra, boshlang'ich ta'lim bosqichidayoq o'quvchilarda ijodkorlikni tarkib toptirish ular ma'naviyatini shakllantirishning tarkibiy qismi bo'lishi kerak. Masalan, Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti tomonidan har yili o'quvchilarning tasvriy san'at asarlari bo'yicha o'tkazib kelinayotgan "Nihollar" tanlovining asarlarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich sinf o'quvchilarida tasviriy san'at bo'yicha layoqat tabiiy bo'ladi. Shu ma'noda o'quv fanlari vositasida o'quvchilarda ijodkorlikka qiziqishni amalga oshirish ma'naviyat metodikasida keng ko'lamli omillardan biri hisoblanadi.

Shunday qilib boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviyatni shakllantirishning individual yo'naltirish innovatsion metodikasida o'quvchilarning o'zini faoliyatga boshlash, ularning imkoniyatlari doirasida ma'naviy tushunchalarni tarkib toptirish hamda ularda ma'naviy-estetik layoqatlarni rivojlantirish muhim o'rin tutadi. Mazkur masala bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari tomonidan oliy pedagogik ta'lim jarayonida chuqur o'zlashtirilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

3.2. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviyatni shakllantirishning rag'batlantirish innovatsion metodikasi

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviyatini shakllantirishda yangi metodikalarni ishlab chiqish va ularni joriy qilish muhim ahamiyatga ega. Chunki jamiyatimizning rivojlanish jarayoni an'anaviylikdan ko'ra muntazam innovatsiyalarga asoslanishni taqozo etmoqda. Shu ma'noda boshlang'ich sinf

o'quvchilarida ma'naviyatni shakllantirishning *rag'batlantirish* innovatsion metodikasi tahliliga e'tiboringizni tortamiz.

Pedagogika tajribasida rag'batlantirish muhim o'rin tutadi. Chunki bu metodika o'zlashtirish jarayonini amaliyot bilan bog'laydi va o'zlashtiruvchilarning mustaqil harakat ko'nikmasini tarkib toptiradi. Mashhur chex pedagogi Yan Amos Komenskiy "Buyuk didaktika" asarida o'quvchilarni jazolashdan ko'ra rag'batlantirish tez voyaga yetkazishini asoslab ko'rsatgan. Mazkur metodika keyinchalik jadid ma'rifatparvar pedagoglarimiz tomonidan qabul qilingan. Ushbu jadid pedagogikasi manbalari tahlili shuni ko'rsatadiki, mamlakatimizda tashkil qilingan barcha jadid maktablarida rag'batlantirish metodikasi ustuvor qo'yilgan va jazolash metodikasi butunlay inkor etilgan. Chunki an'anaviy madrasalar qoshida faoliyat yuritgan boshlang'ich ta'lim bosqichida jazolash metodikasi birlamchi bo'lganligini eslatib o'tish joiz. Shu ma'noda boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviyatni shakllantirishning rag'batlantirish innovatsion metodikasi asoslarini ishlab chiqish taqozo etiladi. Bu o'rinda uning tahlilini taqdim etamiz.

Ma'naviyati shakllangan boshlang'ich sinf o'quvchilarini namuna sifatida ko'rsatish. Bunday yondashuv sinf rahbari boshchiligida ma'naviyati kutilgan darajada shakllangan boshlang'ich sinf o'quvchilarini namuna sifatida ko'rsatishga asoslanadi. Shu sababli ma'naviyati shakllangan boshlang'ich sinf o'quvchilarini tanlashda quyidagilarga e'tibor berish kutilgan samarani beradi:

- a) ma'naviy ongning mavjudligi;
- b) axloqiy fazilatlarining shakllanganligi;
- v) o'quvchining faolligi.

Bu ko'rsatkichlarni aniqlash boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviyatning shakllanganligini ko'rsatadi. Chunki ma'naviy ongga ega boshlang'ich sinf o'quvchisida har bir voqeilik va hodisaga nisabatan tushunuvchan munosabatda bo'lish, xatti-harakatda

axloqiy fazilatlariga rioya qilish va o'quv-biluv jarayonida faollik ko'rsatish namoyon bo'lib turadi. Shu sababli ma'naviyatning shakllanganlik darajasini 1-2-sinflar va 3-4-sinflar kesimida tahlil qilish maqsadga muvofiq bo'ladi. Tajriba shuni ko'rsatadiki, ta'lim boshqa bosqich o'quvchilariga nisbatan boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviyati shakllanganligini aniqlash oson kechadi. Shu sababli aynan mana shunday yondashuv asosida o'quvchilarni namuna sifatida ko'rsatish belgilab olinadi. Buning natijasida boshlang'ich sinflar kesimida ko'rsatkich jadvali tayyorlanishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Biroq bunday ma'lumot har oyda yangilanishni taqozo etadi. Chunki boshlang'ich sinf o'quvchilari ma'naviy jihatdan muntazam rivojlanishda bo'lishi ma'lum. Bizning fikrimizcha, namuna sifatida ko'rsatilgan o'quvchilar o'zga o'quvchilar uchun motivasiya guruhi hisoblanadi. Ayni paytda, namuna sifatida ko'rsatish pedagogik va psixologik qonuniyatlarga asoslanishi kerak. Bir o'quvchini namuna sifatida ko'rsatish bilan ikkinchi o'quvchining manfaatlari cheklanmasligi lozim. Bu masalani tajribali boshlang'ich sinf o'qituvchilari yordamida amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki mamlakatimiz umumiy o'rta ta'lim maktablarida hali tajriba orttirish bosqichida bo'lgan maktab psixologlari faoliyat yuritmoqda. Namuna sifatida ko'rsatiladigan boshlang'ich sinf o'quvchilari tarkibi boshlang'ich ta'lim Metodik kengashi tomonidan tasdiqlanishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Ma'naviyati shakllangan o'quvchilarning faoliyatini ommalashtirish. Bunday yondashuv rag'batlantirishning o'ziga xos shakllaridan biridir. Shu sababli ma'naviyati shakllangan boshlang'ich sinf o'quvchilarining faoliyatini ommalashtirishda quyidagilarga asoslaniladi:

- a) bilimlarni o'zlashtirish darajasi;
- b) o'zgalarga munosabat darajasi;
- v) mustaqil faoliyat ko'rsatish darajasi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari bilimlarni o'zlashtirish jarayonida ma'naviyatga oid barcha g'oyalari, tushunchalar va yondashuvlarni o'zlashtirib boradi. Shu sababli ularda bilimdonlik ko'nikmasi tarkib topadi. Bunday o'quvchilar o'zgalarga munosabatda axloq qoidalariga rioya qiladi va bu hol ularning ma'naviyatlilik darajasini ko'rsatadi. Bilimlarni o'zlashtirish va faoliyatda axloqiylik qoidalariga rioya qilish boshlang'ich sinf o'quvchilarida mustaqil faoliyat ko'nikmasini tarkib toptiradi. Shu sababli 1-2-sinflar va 3-4-sinflar kesimida boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilim, axloq va faoliyat ko'rsatkichlariga asoslangan holda ularning faoliyatini ommalashtirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich sinflar kesimida amalga oshirilgan o'quvchilar faoliyatini ommalashtirish o'zga sinflar uchun o'ziga xos amaliy ta'sirlardan biri hisoblanadi. Xorijiy mamlakatlardan Fransiya Respublikasi boshlang'ich ta'lim jarayonida aynan ko'nikmaga ega o'quvchilar faoliyatini avval maktab miqyosida, keyin hudud miqyosida va nihoyat respublika miqyosida ommaviy axborot vositalariga tayangan holda ommalashtirishga asosiy e'tibor qaratiladi. Buning natijasida nafaqat boshlang'ich sinf o'quvchilarining, balki o'qituvchilar va otionalarning ham ta'lim jarayonidagi faoliyatiga baho beriladi. Faoliyati ommalashtirilgan boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'zlashtirishning navbatdagi bosqichiga intiladi. Shu sababli mamlakatimizda ma'naviyati shakllangan boshlang'ich sinf o'quvchilarining faoliyatini ommaviy axborot vositalariga tayangan holda ommalashtirish kutilgan samarani beradi. Bu hol muvaffaqiyatga erishgan o'quvchilarning aynan ma'naviyat vositasida faoliyatga ega bo'lganligini ham ko'rsatadi. Kuzatishlarimizdan shu narsa ayon bo'ladiki, boshlang'ich sinf o'quvchilari fan olimpiadalarida faol ishtirok etishga qiziqishadi. Chunki bu jarayonda ular nafaqat bilimlarini sinashadi, balki faoliyatining samaradorligini ham sinovdan o'tkazadi. Bunday tajribadan foydalangan holda ma'naviyatni shakllantirish ishlarini

yo'lga qo'yish metodik yangilanishni tarkib toptiradi. Umuman bilning yondashuvimizga ko'ra, boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviyatni shakllantirishda bugungi kun talablari asosida noan'anaviy usullarga tayanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviyatlilik darajasini baholash. Ma'naviyati shakllangan boshlang'ich sinf o'quvchilarini namuna sifatida ko'rsatish va ular faoliyatini ommalashtirishdan keyin baholash bosqichiga o'tiladi. Unga ko'ra, boshlang'ich sinf o'quvchilari aynan ma'naviyat tushunchasiga ega bo'lganligi nuqtai nazaridan o'rganiladi. Bu ish sinf rahbarlari rahbarligida "Tarbiya" fani o'qituvchisi tomonidan amalga oshirilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Shu ma'noda boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviyatlilik darajasini baholashda quyidagilarga asoslanish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- a) yaxshi;
- b) namunali;
- v) a'lo.

Bunda yaxshi baholashning mezonlarini boshlang'ich sinf o'quvchilarining yaxshilik va yomonlikni farqlash ko'nikmasi tashkil qiladi. Yaxshilik va yomonlikni farqlash boshlang'ich sinf o'quvchilarida kundalik ko'rsatkichlar asosida rivojlanib borishini eslatib o'tish joiz. Namunali baholash mezonini esa boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviy ko'nikmalarining tarkib topganligi bilan belgilanadi. Ma'naviy ko'nikmalar boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'zni tutish va jamoat joylarida o'zgalarga ibrat bo'lish ko'rsatkichlari bilan namoyon bo'ladi. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, mamlakatimizda ma'naviy ko'nikmaga ega bo'lish vositasida namunali baholash mezoniga ko'pchilik boshlang'ich sinf o'quvchilari mansubdir. Chunki bunda sinflararo kechadigan o'zaro ichki raqobat motivasiya vazifasini bajaradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviyatlilik darajasini a'lo shaklda baholashda asosan maxsus tuzilgan guruh faoliyatiga asoslanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki davlat ta'lim standartlariga qo'yilgan

tarbiyaga oid talablar, ma'naviyatga oid qoidalar va amaliy faoliyatda ulardan foydalanish ko'nikmasi boshlang'ich sinf o'quvchilarida tarkib topgan bo'lishi kerak. Bunday baholashda shu sababli mutaxassislar guruhining ishtirok etishi xolislik tamoyiliga asoslanishni keltirib chiqaradi.

E'tibor berilsa boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviyatni shakllantirishning rag'batlantirish innovatsion metodikasi boshlang'ich sinf o'quvchilarini ma'naviyat nuqtai nazaridan namuna sifatida ko'rsatish, ularning faoliyatini ommalashtirish va amaliy ko'nikmalarini baholashga asoslanadi. Kezi kelganda ta'kidlash lozimki, mustaqillik yillarida mamlakatimizda ta'lim barcha bosqich va turlariga xos ravishda boshlang'ich ta'limda o'quvchilarni rag'batlantirish masalasiga kam e'tibor berildi. Bunda faqat o'qituvchilarning maqtashi, ota-onalar majlisida sinf rahbarlarining ba'zi o'quvchilar to'g'risida ijobiy fikr bildirishi kabilar ustuvor darajada namoyon bo'ldi. Rag'batlantirishning bu shakllari boshlang'ich sinf o'quvchilariga motivasiya bermasligi amaliy tajribadan ma'lum bo'ldi. Shu sababli boshlang'ich sinf o'quvchilarida aynan ma'naviyatni shakllantirishda rag'batlantirish innovatsion metodikasidan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bugungi kunda bizning oldimizda bu metodikani ishlab chiqish bo'yicha quyidagilar asosida tadqiqot ishlarini yaratish dolzarb bo'lib turganligini eslatib o'tish joiz:

1) boshlang'ich sinf o'quvchilari ma'naviyatiga qo'yiladigan talablarni aniq, qulay va tushunarli shaklda ishlab chiqish;

2) boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviyatning shakllanganlik darajasini o'rganish metodikasini yaratish;

3) noan'anaviy va innovatsion usullarga tayangan holda boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviyatni shakllantirish asoslarini belgilash;

4) oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini o'quvchilarda ma'naviyatni shakllantirishning mutalaqo yangi shakllari bilan qurollantirish;

5) pedagogik kadrlarni yangi metodikalarga o'rgatish va ularning malakasini oshirish markazlari vositasida boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun o'quvchilarda ma'naviyatni shakllantirishga doir innovatsion tavsiyalarni muntazam taqdim qilib borish;

6) boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviyatni shakllantirishning tadbirlar vositasi, muntazam da'vat qilish va ularni nazoratga olish metodikalaridan voz kechish, aksincha, "Tarbiya" fani o'qituvchilari uchun ma'naviyatni shakllantirishning yangi asoslarini muntazam belgilab borish;

7) boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan omillarni, ya'ni ba'zi ota-onalar, jamoatchilik vakillari va maktab muhitidagi nohush xatti-harakatlar ta'sirini muntazam kamaytirib borish, chunki boshlang'ich sinf o'quvchilari nimani eshitsa yoki ko'rsa shunga ishonadi;

8) umumiy o'rta ta'lim maktablari miqyosida eng yaxshi ma'naviyati shakllangan boshlang'ich sinf o'quvchilarini fan olimpiadalari, turli tanlovlar va festivallarga jalb qilish;

9) san'atning musiqa, tasviriy san'at va amaliy san'at turlarining imkoniyatlari asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviyatni amaliy shakllantirish bosqichiga o'tish, bu borada Davlat rahbarining "Ma'naviyat hayotimizda yangi kuch, yangi harakatga aylanishi kerak" nutqida ham alohida ta'kidlab o'tilganligini eslatib o'tish lozim;

10) boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviyatlilik darajasini baholashda o'ziga xos metodikaga asoslanish va uni ishlab chiqish.

Bularning barchasi boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviyatni shakllantirishning rag'batlantirish innovatsion metodikasini ishlab chiqishni taqozo etadi.

Shunday qilib, boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviyatni shakllantirishning rag'batlantirish innovatsion metodikasi mazkur masala bo'yicha yangicha yondashuvlarga asoslanadi. Buni bo'lajak

boshlang'ich sinf o'qituvchilari idrok etishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

3.3. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviyatni shakllantirishning tanlov innovatsion metodikasi

Mamlakatimizda boshlang'ich ta'lim jarayonini innovatsion yondashuvlar asosida rivojlantirib borish ishlari amalga oshirilmoqda. Bunda asosiy e'tibor o'qitishning va tarbiya ishini amalga oshirishning innovatsion shakllari, vositalari va uslublariga qaratilishi kerak. Chunki pedagogik tajribalar shuni ko'rsatadiki, ta'lim va tarbiyaning noan'anaviy uslublarini takomillashtirib borish kutilgan samarani beradi. Shu jihatdan boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviyatni shakllantirishning *tanlov innovatsion metodikasini* ishlab chiqish zaruriyat bo'lib turibdi. Bu o'rinda ana shu masalaning tahliliga e'tiborimizni tortamiz.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviyatni shakllantirishning insholar tanlovi innovatsion metodikasi. Milliy Pedagogikamiz tajribasida insho omilidan foydalanish tajribasi mavjud. Chunki o'qitishning va tarbiyaning bu omili o'quvchilar uchun qiziqarliligi, ularga keng imkoniyatlar berishi va o'zlashtirganlarini namoyon qilishni ifodalash omillarini ro'yobga chiqarishi bilan diqqatni tortadi. Shu ma'noda boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviyatni shakllantirishning yangi insholar tanlovini tashkil etishda quyidagilarga asoslanish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- a) milliy g'oya asoslari bo'yicha insholar tanlovini tashkil qilish;
- b) ma'naviyat tushunchalari bo'yicha insholar tanlovini tashkil qilish;
- v) ma'naviy tadbirlar bo'yicha insholar tanlovini tashkil qilish.

Davlatimiz rahbari "Ma'naviyat - hayotimizda yangi kuch, yangi harakatga aylanishi kerak" nomli nutqida milliy g'oyamizni ma'naviyat va madaniyat sohasidagi ishlarning *metodi asosi* deb

baholaydi. Haqiqatan ham insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik tamoyillaridan iborat bo'lgan yangi milliy g'oyamiz boshlang'ich sinf o'quvchilari ongida ma'naviyatni shakllantirishning muhim omili va metodik asosidir. Shu sababli gumanitar fanlar o'quv darsliklari ana shu milliy g'oyamizning tamoyillariga asosan qaytadan ishlab chiqilib amaliyotga joriy etilmoqda. Bunga qadar milliy istiqloq g'oyasi amalda bo'lganligini ham eslatib o'tish joiz. Milliy istiqloq g'oyasi jamiyatning mustaqilligini ta'minlash vazifasini amalga oshirdi. Yangi milliy g'oyamiz esa shaxs rivoji vositasida yangi jamiyatning tarbiyaviy asoslarini belgilaydi. Shu jihatdan boshlang'ich sinf o'quvchilari o'rtasida milliy g'oyamiz asoslariga tayangan quyidagi mavzularda insholar tanlovi o'tkazish kutilgan samarani beradi: Insonparvarlik deganda nimani tushunasiz? Mening insonparvar do'stim, Ezgulik nima? Ezgu ishlar deganda men quyidagilarni tushunaman, Mening ezgu do'stim, Bunyodkorlik deganda nimalarni tushunasiz? Men bunyodkor bo'lmoqchiman, Bizning bunyodkor sinfimiz va h.k. Bu mavzular bo'yicha insholar tanlovi birinchidan, boshlang'ich sinf o'quvchilari ongiga milliy g'oyani kutilgan darajada singdirish imkonini beradi; ikkinchidan, insholar tanlovi boshlang'ich sinf o'quvchilarining milliy g'oya bo'yicha tushunchasi ko'rsatkichlarini namoyon qiladi; uchinchidan, bunday toifa insholar o'quvchilar ma'naviyatining asosi bo'lgan milliy g'oyani qanday o'qitilayotganligi bo'yicha aniq ma'lumot beradi. Bundan tashqari, inshoni yozish jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilari o'z fikrlarini yozma ifodalash, fikrlash ko'nikmasini namoyon qilish, qanday so'z boyligiga egaligi va xusnixat bo'yicha ko'nikmalarini yaqqol namoyon qiladi. Shu sababli boshlang'ich sinf o'quvchilaridan kutilgan darajada ma'naviyatni shakllantirish uchun sinflar kesimida milliy g'oya bo'yicha insholar tanlovini o'tkazib borish muhim ahamiyatga egadir.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviyatni shakllantirishda ma'naviyat tushunchalari bo'yicha ham insholar tanlovini o'tkazish kutilgan samarani beradi. Bu borada quyidagi metodikaga

asoslanish maqsadga muvofiq bo'ladi. 1-2-sinflarda ushbu mavzular boyicha insholar tanlovini o'tkazish muhimdir: Ma'naviyat deganda nimani tushunasiz? Mening ma'naviy tushuncham, Mening ma'naviyatli o'rtog'im, Ma'naviyat fikrim va h.k. 3-4-sinflarda quyidagi mavzularda insholar tanlovini tashkil qilish samarali hisoblanadi: Ajdodlarimiz haqidagi fikrim, Ma'naviy ongini tushunishim, Mening ma'naviy fazilatlarim, Ma'naviyat to'g'risida fikrim va h.k. Bunday mavzularda insholar tanlovi sinflar kesimida o'tkaziladi. Insholar "Tarbiya" o'quv fani o'qituvchisi boshchiligida o'qituvchilar guruhi tomonidan baholanadi, maktab psixologi insholar mazmuni va g'oyalarini psixologik nuqtai nazaridan o'rganadi. Buning natijasida boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviyatning shakllanganlik darajasi aniqlanadi.

Boshlang'ich ta'lim jarayonida turli bayram tadbirlari va mahsus ma'naviy tadbirlar ko'p o'tkaziladi. Shu ma'noda boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviyatlik darajasini aniqlashda quyidagi mavzularda insholar tanlovini sinflar kesimida o'tkazish maqsadga muvofiq bo'ladi: Mening sevimli bayramim, Onajonim bayrami, Mening tug'ilgan kunim, Men yaxshi ko'rgan kun, Mening bayramga sovg'am va h.k. Bunday mavzular boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviy tushunchalarni mustahkamlaydi va ularning ma'naviy tadbirlarga bo'lgan munosabatini ko'rsatadi. Shuningdek, insholar ma'naviy tadbirlarning qanday samara berayotganligi to'g'risida ham ma'lumot beradi. Shu ma'noda insholar tanlovi ma'naviyatni shakllantirishning noan'anaviy va innovatsion metodikalardan biri hisoblanadi.

E'tibor berilsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviyatni shakllantirishni insholar tanlovi innovatsion metodikasi samaradorligi bilan diqqatni tortadi. Shu sababli Rossiya Federatsiyasi pedagog olimlari insholar metodikasiga muhim o'rin ajratadi. Misol uchun, pedagog olim G.P Lazarenko o'z o'quvchilarining 250 eng yaxshi inshosini kitob holida nashr ettirgan (Moskva,1997). Bu o'z vaqtida insholarning o'quvchi ta'lim

va tarbiyasidagi tutgan o'rnini isbotlab bergan edi. Shu ma'noda mamlakatimizda boshlang'ich sinf o'quvchilarining muntazam insholar tanlovini o'tkazib borish bilan ularning ma'naviyatni kutilgan darajada shakllantirish imkoniyatini beradi.

3.4. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviyatni shakllantirishning kitobxonlik tanlovi innovatsion metodikasi

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviyatni shakllantirish uchun kitobxonlik tanlovin o'tkazish ham muhim o'rin tutadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'naviyat hayotimizda yangi kuch, yangi harakatga aylanishi kerak" nutqida jamiyatimizda kitobxonlik madaniyatini yanada rivojlantirish vazifasi qo'yilgan. Bunda 2024 yilda quyidagilarni amalga oshirish belgilangan:

- milliy va jahon adabiyotining eng sara namunalarini ko'p ming nus'halarda chop etish va barcha kutubxonalarga yetkazib berish;
- har yili eng yaxshi badiiy asarlar yaratish, tarjima qilish uchun ijodiy buyurtmalar berish, muallif va tarjimonlarni munosib qalam haqi bilan ta'minlash;
- "Yoshlar uchun – ming kitob" loyihasi asosida yoshlarga rag'bat beradigan eng mashg'ur ilmiy ommabop kitoblarni o'zbek tiliga tarjima qilib maktab va kutubxonalarga bepul tarqatish;
- olimlarni bolalarbop kitoblar yozishga yo'naltirish, jumladan, Muhammad Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, ibn Sino, Abu Nasr Forobiy, Alisher Navoiy, Ahmad Farg'oniy, Mirzo Ulug'bek, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi allomalarning bolalik davri haqida kitoblar tayyorlab ularni bolalarga bepul tarqatish;
- 2024 yilda Xalqaro bolalar adabiyoti ko'rgazmasini tashkil qilish;
- kitob nashr etadigan nashriyot va korxonalarini besh yilga soliqlardan ozod qilish;
- kitob tarjimonlari mehnatini rag'batlantirish maqsadida Ogahiy nomidagi xalqaro mukofotni tashkil qilish;

- Respublika bolalar kutubxonasi rekonstruksiya qilinganidan so'ng bu yerda yangi ma'rifiy hayotni yo'lga qo'yish;

- Samarqanddagi bolalar kutubxonasini rekonstruksiya qilish va boshqa hududlardagi kutubxonalarni bolalarni sevimli maskaniga aylantirish;

- sahiy va keng qalbli insonlarni kitobxonlikka homiylik qilishga keng jalb qilish va ularning faoliyatini davlat tomonidan rag'batlantirib borish (masalan, andijonlik Qaxramon Qobiljon Obidov o'zining shaxsiy kutubxonasidan 50 mingdan ziyod kitobni kutubxonaga sovg'a qilganligi ma'lum va u tomonidan tashkil qilingan kutubxonada 300 ming kitob ham mavjud);

- men o'ylaymanki, bugungi kunda kitobxonlik madaniyatiga har tomonlama yordam beradigan kishilar jadid bolalarimizning munosib davomchilari hisoblanadi.

Bunday yondashuv boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviyatni shakllantirishda kitobxonlik tanloviga alohida e'tibor berishni taqozo etadi. Shu jihatdan bu borada quyidagilarga asoslanish maqsadga muvofiq bo'ladi:

a) o'quvchilar o'qigan kitoblar to'g'risida ma'lumotlar tayyorlatish;

b) o'quvchilarni o'qigan kitoblari tahlil qilishga o'rgatish;

v) o'quvchilarni kitob tanlashga ko'niktirish.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari o'zlari o'qigan kitoblar to'g'risida ma'lumot tayyorlashi ularning ma'naviy olamini kengaytirishga xizmat qiladi. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich sinf o'quvchilari darsliklardan tashqari imkon qadar badiiy asarlar va publitsistik asarlarni o'qishadi. Bunda ko'proq ertaklar kitoblarni ustuvor turishi ko'zga tashlanadi. Haqiqatan ham ertaklar o'zining sehrli olami bilan boshlang'ich sinf o'quvchilarini jalb etadi, ulardagi qaxramonlar ijobiy jihatlari bilan o'quvchilarga ibrat bo'ladi va salbiy qaxramonlar esa o'quvchilar tomonidan salbiy baholanadi.

Shu ma'noda o'quvchilarning ertaklarni o'qish ko'nikmasini kuchaytirish, ularni bolalarbop dostonlar, hikoyalar va qissalarni

o'qitishga ko'niktirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Misol uchun, keyingi paytlarda "Alpomish" dostonining multfilmi yaratilganligi o'quvchilar uchun munosib sovg'a bo'lganligini eslatib o'tish joiz. Shu ma'noda eng muhim dostonlarimiz, ertaklar va qissalarning multfilm, elektron variantlarini yaratish ham boshlang'ich sinf o'quvchilarining kitobxonlik madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

Kuzatishlarimiz shuni ko'rsatadiki, keyingi paytlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitob o'qishning yangi bosqichi boshlandi va bu hol ularning ma'naviy dunyosida o'ziga xos g'oyalar, tushunchalar hamda intilishlarni tarkib toptirmoqda. Bundan tashqari, kitob o'qiydigan o'quvchilarda axloqiy illatlardan chekinish va jamoat intizomiga rioya qilish ko'nikmalari kutilgan darajada tarkib topadi. Shu ma'noda boshlang'ich sinf o'quvchilari o'rtasida o'zlari o'qigan kitoblar bo'yicha ma'lumotlar tayyorlashga doir muntazam tanlovlar o'tkazib borish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunday yondashuv boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviyatni shakllantirishning eng muhim mexanizmlaridan biridir.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari o'zlari o'qigan kitoblar tahliliga o'rgatilishi muhim yo'nalishlardan biridir. Bu bilan boshlang'ich sinf o'quvchilari o'zlari o'qigan kitoblarning mavzulari, mazmuni, voqeligi va obrazlarini tahlil qilish ko'nikmasini egallaydi. Misol uchun, mashhur "Ur to'qmoq" xalq ertagi tahlilini amalga oshirish boshlang'ich sinf o'quvchilarida to'g'rilik, yolg'on gapirmaslik, bag'rikenglik, o'zgalarni hurmat qilish va hamisha o'z maqsadi sari intilish kabi ko'nikmalarning tarkib topishiga asos bo'ladi. Shu sababli "Tarbiya" o'quv fani va bu fanning to'garak mashg'ulotlari vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'zlari o'qigan kitoblarni tahlil qilish bo'yicha ko'nikmalarini tarkib toptirish muhim ahamiyatga egadir.

Bundan tashqari, boshlang'ich sinf o'quvchilarining kitob tahlilini tarkib toptirishda mashhur adiblar bilan uchrashuvlar va mutaxassislar bilan suhbatlar o'tkazib borish ham muhim ta'sir

vositalaridan biridir. Buning natijasida boshlang'ich sinf o'quvchilarida tadjiriy ravishda kitoblarni tahlil qilish ko'nikmasi tarkib topib boradi. Kitoblar tahlili o'quvchilarning mustaqil fikrlash ko'nikmasini tarkib toptiradi, ularning o'zgaralar bilan hamkorlik qilish malakalarini tarkib toptiradi va o'quvchilarda kitoblarga nisbatan ijobiy yondashish tajribasini yuzaga keltiradi. Shu sababli xorijiy mamlakatlarda, jumladan, Rossiya Federatsiyasi umumiy o'rta ta'lim maktablarida gumanitar fanlar o'qituvchilari o'quvchilarning kitoblar tahlili ko'nikmasini tarkib toptirishga asosiy e'tiborni qaratishadi. Bunday tajribadan foydalangan holda boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'qigan kitoblarga tahliliy munosabatda bo'lish ko'nikmasini tarkib toptirish kutilgan samarani beradi va ularning ma'naviyati uchun muhim omillarni yuzaga keltiradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari bugungi kunga qadar o'z imkoniyatlariga suyangan holda kitob tanlab kelmoqda. Shu sababli umumiy o'rta ta'lim maktablari boshlang'ich sinf o'qituvchilari va maktab psixologi hamkorlikda boshlang'ich sinf o'quvchilarini kitob tanlash ko'nikmasini tarkib toptirishi muhimdir. Tajribadan o'tgan bu boradagi metodikalardan biri quyidagicha: dastlab kitobning shakli, rangi va dizayniga e'tibor beriladi; shundan so'ng uning mavzusi o'qilib, idrok etiladi; mazkur jarayondan keyin kitobning dastlabki varog'ida berilgan annotatsiya, ya'ni mazmuni bo'yicha izoh o'qiladi; kitobning muallifiga albatta e'tibor beriladi va nihoyat kitobning mundarijasi o'qiladi. Buning natijasida kitob to'g'risida to'liq ma'lumotga ega bo'lgach uni mutolaa qilish uchun olinadi. Shu sababli mashg'ur fizik olim Albert Eynshteyn o'zining "Esdaliklari"da shunday yozgan: "Menga birinchi o'qituvchim kitob tanlashni o'rgatganligi uchun undan bir umr qarzdorman va u menga beminnat bir do'stni taqdim ham etgandi. Nimagaki erishgan bo'lsam kitob tufaylidir va har bir yutug'imda birinchi o'qituvchimni eslayman va eng mashhur asarlarimni unga bag'ishlaganman". Shu ma'noda boshlang'ich sinf o'quvchilariga kitob tanlashni o'rgatish

ularning ma'naviyatini shakllantirishdagi muhim mexanizmlardan biridir. Chunki kitob tanlash ko'nikmasiga egalik boshlang'ich sinf o'quvchilarining kelgusi faoliyatida tayanch vazifalardan birini o'taydi. Bizning yondashuvimizga ko'ra, bu masala boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviyatni shakllantirishning innovatsion yondashuvlaridan biridir.

Diqqat qilinsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviyatni shakllantirishning kitobxonlik tanlovi innovatsion metodikasi mazkur masala bo'yicha keng ikoniyatlarni beruvchi tayanchlardan biridir.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviyatni shakllantirishning tashabbuslar innovatsion metodikasi.

Pedagogik olimlarning umumiy fikricha, tashabbus – bu ta'lim-tarbiyani jonlantiruvchi manba bo'lib, tashabbus bo'lmagan joyda ta'limiy va tarbiyaviy turg'unlik kelib chiqadi. Shu ma'noda boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviyatni shakllantirish uchun tashabbuslar tanlovi innovatsion metodikasiga asoslanish ham muhim o'rin tutadi. Unda quyidagilarga e'tibor berish kerak:

- a) o'quvchilarning tashabbuslari tanlovini o'tkazish;
- b) o'qituvchilarning tashabbuslari tanlovini o'tkazish;
- v) ota-onalarning tashabbuslari tanlovini o'tkazish.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviyat masalalari bo'yicha tashabbuslari tanlovini o'tkazib borish muhim ahamiyatga ega bo'lib, unda keng ko'lamlı yangi ma'lumotlarga ega bo'linadi. Misol uchun, "Siz qanday kitobni o'qishni xohlaysiz?", "Milliy g'oyani o'zlashtira olasizmi?", "Ajdodlarimizdan qaysi birini yoshligini bilasiz?", "Sinfigizda bolalar qanday kitodlar o'qiydi?" kabi mavzularda o'quvchilar tashabbusi tanlovini o'tkazish nihoyatda qiziqarli bo'lib, ular vositasida o'quvchilarning ma'naviy intilishlari, orzulari va istaklari to'g'risida aniq ma'lumotlarga ega bo'linadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari o'zlarining ochiqqligi, fikrlarga boyligi, qarashlarni erkin namoyon qilishi bilan ajralib turadi.

Pedagogik tajriba shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarning tashabbuslari bo'yicha fikrlarni o'rganish yangi g'oyalar, yangi yondashuvlar va yangi munosabatlar tizimini shakllantirishda qo'l keladi. Bunda ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviyatini shakllantirishda yangicha yo'nalishlarga ega bo'lish imkoniyatlari paydo bo'ladi. Pedagogik tajribamiz shuni ko'rsatadiki, muayyan masalalar bo'yicha o'quvchilarning tashabbuslarini o'rganib borish va ularni tanlov shaklida o'tkazish amaliy natijalar berishi bilan amaliy ahamiyatga egadir. Dunyoning eng tajribali pedagoglari ta'lim va tarbiya jarayonini ko'p hollarda o'quvchilarning fikrlari va intilishlarini hisobga olib tashkil qilganligini eslatib o'tish joiz. Shu sababli o'quvchilarning tashabbus tanlovlarini o'tkazib borish vositasida ularning ma'naviyatini shakllantirish amaliy tadbirlarini ishlab chiqishda ma'lumotlar ko'lamiga ega bo'lishni tarkib toptiradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviyatini shakllantirishda o'qituvchilarning ham tashabbus tanlovlarini o'tkazib borish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunda tajribali o'qituvchilar o'z metodikasidan kelib chiqib ma'naviy mashg'ulotlarni qanday tashkil qilish, tadbirlarni o'tkazishda nimalarga e'tibor berish, o'quvchilar bilan qanday ishlash, ma'naviyatga oid o'quv materiallaridan qanday foydalanish kabi masalalar bo'yicha o'zlarining fikrlarini bildiradi. Buning natijasida boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviyatni shakllantirishning yangicha yondashuvlari majmuiga ega bo'linadi. Shu sababli boshlang'ich sinf rahbarlari boshlang'ich ta'lim Metodik kengashi a'zolarining ishtiroki asosida muntazam ravishda ma'naviyatga oid o'qituvchilarning tashabbus tanlovlarini o'tkazib borishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, o'qituvchilarning tashabbuslarida asosiy e'tibor o'quvchilar bilan ishlash va ularda ma'naviyatni shakllantirishning individual vositalariga qaratiladi. Bu hol o'quvchilarda ma'naviyatni shakllantirishda an'anaviylik va

turg'unlik yondashuvlaridan xolos etadi. Bir maktabning boshlang'ich sinf o'qituvchilari tashabbuslari ikkinchi maktabning o'qituvchilar uchun hamisha qiziqarli va o'ziga tortuvchi jozibador omil sifatida baholab kelingan. Shu sababli o'qituvchilarning tashabbusli tanlovlarini o'tkazish bilan muhim ma'lumotlarga ega bo'linadi.

Keyingi paytlarda Davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan ota-onalarning boshlang'ich ta'lim va tarbiya jarayonida faol ishtirok etishi ishlari amalga oshirilmogda. Shu jihatdan boshlang'ich sinf o'quvchilari ma'naviyati bo'yicha ota-onalarning tashabbus tanlovlarini ham o'tkazib borish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunda ota-onalar o'z farzandlarining imkoniyatlari va xususiyatlaridan kelib chiqqan holda o'quv materiallari, ma'naviyatni o'qitish metodikasi, ma'naviyatga oid tadbirlarning samaradorligi, boshlang'ich sinf o'quvchilarining intilishlari kabi masalalar bo'yicha tabiiy ravishda mustaqil va yangi fikrlarni bildirishini eslatib o'tish joiz. Chunki ota-onalarning tashabbuslari ko'p hollarda amaliyot bilan bog'langanligi bilan diqqatni tortadi. Ota-onalarning tashabbus tanlovlari "Tarbiya" o'quv fani o'qituvchisi tomonidan muntazam o'tkazib borilishi va o'rganilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Buning natijasida boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviyatni shakllantirish uchun bevosita amaliyot bilan bog'lanadi. Shu sababli bu yondashuv ham innovatsion vositalardan biri hisoblanadi.

E'tibor berilsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviyatni shakllantirishning tashabbus tanlovi innovatsion metodikasi amaliyot bilan bog'liqligi jihatidan mazkur jarayonni amalga oshirishda keng imkoniyatlarni beradi.

Shunday qilib, boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviyatni shakllantirishning tanlov innovatsion metodikasi o'ziga xos xususiyatlarga egadir. Bunda ayniqsa insholar tanlovi, kitobxonlik tanlovi va tashabbuskorlik tanlovi innovatsion yondashuvlarga asoslanish kutilgan samarani beradi.

IV BO'LIM
BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARI MA'NAVIYATINI
SHAKLLANTIRISH INNOVATSION METODIKASINING ISTIQBOLLI
YO'NALISHLARI

4.1. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviyatni
shakllanganlik darajasini baholash istiqbolli yo'nalishi

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining 2023 yil 22 dekabrda yig'ilishida so'zlagan "Ma'naviyat – hayotimizda yangi kuch, yangi harakatga aylanishi kerak" nomli nutqida "bugun ma'naviyat boshqa sohalardan o'n qadam oldinda yurishi kerak" deb ta'kidlab, ma'naviyatni iqtisoddan keyingi jamiyatning muhim asoslaridan biri sifatida belgilab berganligini eslatib o'tish joiz. Shu sababli bu o'rindagi "o'n qadam oldinda" iborasi ma'naviyat sohasida *istiqbolli yo'nalishlarni* mudom belgilab borish ma'nosini anglatadi. Shu ma'noda bu o'rinda e'tiboringizni boshlang'ich sinf o'quvchilari ma'naviyatini shakllantirish innovatsion metodikasining istiqbolli yo'nalishlari tahliliga e'tiborimizni tortamiz.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviyatni shakllanganlik darajasini **baholab borish** eng asosiy istiqbolli yo'nalishlardan biridir. Chunki baholash vositasida muayyan masalani o'zlashtirganlikning yutuqlari aniqlanib, unda muammolarni bartaraf etish tadbirlari ishlab chiqiladi.¹² Mazkur masala bo'yicha pedagog olimlarning yondashuvlari tushunchalar izohi, yondashuvlar tahlili va individual munosabatlar asosida bildirib kelinmoqda.¹³ Lekin mazkur yondashuvlarni umumlashtirib boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviyatning shakllanganlik darajasini baholashning istiqbolli yo'nalishlarini belgilab olish

¹² Jabborova O.M., Umarova Z.A. Boshlang'ich ta'lim diagnostikasi. – Toshkent, 2023

¹³ Hasanboyev J., To'raqulov O., Alqarov N., Usmonov N. Pedagogika fanidan izohli lug'at. – Toshkent, 2009

muhim o'rin tutadi. Mazkur masala bo'yicha bizning yondashuvimiz quyidagilardan iborat:

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviyatning individual shakllanganlik darajasini baholash istiqbolli yo'nalishi. Bugungi kunda jamiyatimizda individuallik va jamoaviylikning uyg'unligiga erishish jarayoni kechmoqda. Jamoaviylik ko'p jihatlardan jamiyatning ehtiyoj sifatida namoyon bo'ladi, individuallik esa shaxs ehtiyojlarining majmui hisoblanadi.¹⁴ Shu jihatdan shaxsda eng avvalo individuallik ehtiyojlarini shakllantirish bilan jamoa ehtiyojlarini tarkib toptirish mumkin. Biroq XX asrning 90-yillaridan boshlab XXI asrning 20 yillariga qadar milliy Pedagogikamizda jamoaning manfaatlarini ilk rejaga qo'yish an'anasiga amal qilindi. Buning natijasida shaxsning individualligi kutilgan darajada shakllanmadi va shaxsda o'zi yashayotgan jamiyatga nisbatan begonalik hissi tarkib topa boshladi. Shu sababli XXI asrning 19-20 yillaridan boshlab bozor iqtisodiyoti talablariga mos bo'lgan va Yevropa mamlakatlari hamda AQShda tajribadan o'tgan shaxsning individual manfaatlari va ehtiyojlarini birlamchi tarkib toptirish yondashuviga o'tildi. Bu hol tez orada jamiyatimiz yoshlari orasida marginallik, ya'ni jamiyatdan begonalashuv hissini bartaraf etdi. Shu ma'noda boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviyatning shakllanganligining individual darajasini aniqlash muhim ahamiyatga ega va bu jamiyatimizda ma'naviyatni rivojlantirishning muhim istiqbolli yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviyatning individual darajasi shakllanganligini aniqlash uchun quyidagilarni o'rganib baholash maqsadga muvofiq bo'ladi:

- a) boshlang'ich sinf o'quvchilarida shaxs kamolotiga asos bo'luvchi fikrlar va g'oyalarning tarkib topa boshlaganligi;
- b) boshlang'ich sinf o'quvchilarining faoliyatga tayyorgarligi ko'nikmasining tarkib topa boshlaganligi;

¹⁴ Философский словарь. Под редакцией И.Т. Фролова. – Москва, 1981

v) boshlang'ich sinf o'quvchilarida mustaqil fikrning shakllana boshlaganligi.

Bu baholashda har bir o'quvchida individuallik darajasi alohida o'rganiladi. Shu jihatdan ba'zi o'quvchilarda shaxs kamolotiga asos bo'luvchi umumiy fikrlar tarkib topgan bo'lsa, o'zgalarda muayyan g'oyalarning tarkib topganligi kuzatiladi. Bunda har bir o'quvchida tarkib topgan umumiy fikrlar va g'oyalarning axloq va pedagogika qonuniyatlariga javob berishiga asosiy e'tibor qaratiladi. Chunki umumiy fikrlar tarkibida isbottalab tushunchalar, biryozqlama yondashuvlar kabi elementlar ham bo'ladi, g'oyalar majmuida esa shaxs manfaatlarini ustun qo'yuvchi hudbinlik, o'zni haq bilish, o'zni o'zgalardan ustun qo'yish kabi g'oyalar ham mavjud bo'lishini eslatib o'tish joiz.

Shu sababli har bir boshlang'ich sinf o'quvchisida tarkib topgan umumiy fikrlar va g'oyalardagi insoniylik, yaxshilik va jamiyatning extiyojlariga moslik kabilar o'rganilib baholanadi. Agar bu o'rganish jarayoni ijobiy samaralarni bersa, har bir boshlang'ich sinf o'quvchisida ma'naviyat asoslari individual tarzda tarkib topgan deb hisoblanadi, lekin baholashda ma'lumotlar ko'rsatkichi salbiy axborotlarga boy bo'lsa u holda har bir boshlang'ich sinf o'quvchisida ma'naviyat individual darajada shakllanmagan mazmunidagi hulosa kelinadi. Buning natijasida boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviyatni shakllantirishning asoslari, metodlari va texnologiyalariga o'zgartirishlar kiritiladi. Misol uchun, boshlang'ich sinf o'quvchilarida illatli fikr yoki g'oyaning tarkib topishi tashqi kuchlar ta'sirida yuzaga kelishi mumkin va shu sababli baholash jarayonida bunday tashqi kuchlarning tarkibi hamda ularning imkoniyatlari batafsil tahlil qilib chiqiladi. Masalan, keyingi paytlarda muayyan oilalardagi boylikka bo'lgan ruhiy intilish shu oiladagi boshlang'ich sinf o'quvchilariga salbiy g'oyaviy ta'sir ko'rsatayotganligini eslatib o'tish joiz. Demak, har bir boshlang'ich sinf o'quvchisida ma'naviyatning individual darajada

shakllanganligini baholab borish asosiy istiqbolli yo'nalishlardan biridir.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviyatning individual darajada shakllanganligini o'rganish uchun ularning mustaqil faoliyatga ma'naviy tayyorgarlik ko'nikmasi ham e'tiborga olinishi kerak. Ma'naviy tayyorgarlik bu - o'ziga bo'lgan ishonch, bilimidan foydalana olish va o'zgalar bilan kirishimli bo'lish kabi ko'nikmalardan iboratdir. Shu sababli bunday ko'nikmalarning boshlang'ich sinf o'quvchilarida tarkib topganligini aniqlash va baholash ular ma'naviyatining individual darajasini o'rganishda muhim istiqbolli yo'nalish hisoblanadi. Bu o'rinda eng muhim bir narsaga e'tibor berish lozim. Gap shundaki, bugungi kunda boshlang'ich sinf o'quvchilari keng mustaqil faoliyatga egadir. Ular dars mashg'ulotlarining o'zidan turli-tuman metodikalar vositasida bilim o'rganayotganligi, turli to'garaklarda ishtirok etayotganligi, ota-onalarning xohishi bilan individual qo'shimcha mashg'ulotlarga qatnayotganligi, o'z qiziqishlariga ko'ra musiqa kabi san'atning muayyan turlari bo'yicha saboq olishga intilayotganligi, Bolalar ijodiyoti markazlari mashg'ulotlariga jalb etilayotganligi, xorijiy tillarni o'rganish bo'yicha qat'iy harakatlar jarayonida ishtirok qilayotganligi, sinfdan va maktabdan tashqari turli tadbirlarda faoliyatda bo'layotganligi kabilar boshlang'ich sinf o'quvchilarining naqadar keng faoliyatda bo'layotganligini ko'rsatadi. Bunday jarayonda ular ma'naviy ko'nikmalarga tayangan holda murakkabliklarni yengishi, nohush vaziyatlardan chiqib ketishi, vaqt rejimidan foydalana olishi kabi ko'nikmalarga ega bo'lish suv bilan havodek zaruriyat bo'lib turibdi. Shu sababli boshlang'ich sinf o'quvchilarida mustaqil faoliyat davomida ma'naviy ko'nikmalardan foydalana olishning individuallik darajasini o'rganish va baholash eng dolzarb masalalardan biri bo'lib turibdi. Faoliyat girdobidagi boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviy tarbiyaning individualligi ularning kundalik vaqt rejimida samarali foydalanayotganligi bilan belgilanadi. Shu ma'noda umumiy o'rta ta'lim maktablarining

boshlang'ich ta'lim Metodik kengashi bu boradagi o'rganish va baholash ishini har bir o'quvchiga individual yondashgan holda amalga oshirishi taqozo etiladi. Agar keng ko'lamlı faoliyatda boshlang'ich sinf o'quvchisi ma'naviy ko'nikmalaridan o'rınli foydalana olayotgan bo'lsa, uning individual ma'naviy ko'rsatkichlari yuqori baholanadi va o'quvchi faoliyatining samarali qisqartirilishi hamda ularga ma'naviyatning eng muhim tushunchalaridan biri bo'lgan dam olish vaqtlarini ajratish tadbirlari belgilanadi. Bunday istiqbolli yo'nalishning metodikasini ishlab chiqish boshlang'ich sinf o'quvchilarida mustaqil faoliyat davrida mustahkam ma'naviy ko'nikmalarga tayanish tajribasini berish bo'yicha tadbirlarnı amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'linadi. Shu sababli bu masalada muntazam baholab borilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Bugungi kunda butun dunyoda ta'lim oluvchılarning mustaqil fikrga ega bo'lishi ishlari amalga oshirilmoqda. Mustaqil fikrning mazmuniga ko'ra shaxs o'zini anglab yetgan bo'lishi kerak.¹⁵ Shu jihatdan o'zligini anglagan boshlang'ich sinf o'quvchisi o'z mustaqil fikriga ega bo'ladi. Bunda ularning mustaqil fikriga egaligini aniqlash uchun o'ziga xos tushunchalar, g'oyalar, fikrlar va o'zining individual xususiyatlarini namoyon qiluvchi xatti-harakatlari o'rganiladi. Buning natijasida har bir boshlang'ich sinf o'quvchisida mustaqil fikrlash ko'nikmasining mavjudligi aniqlanib, undagi individual ma'naviyatlik ko'rsatkichlari ishlab chiqiladi. Eslatib o'tish joizki, bizning pedagogik tajribamizga ko'ra, har bir boshlang'ich sinf o'quvchisida muayyan darajada mustaqil fikrlash ko'nikmasi tarkib topgan bo'ladi. Faqat ba'zi o'quvchilar o'z fikrlarini yozma va og'zaki tarzda ifodalay oladi, ayrimlari esa tajribasizlik tufayli o'z fikrlarini tushuntirib bera olmaydi. Shu sababli boshlang'ich sinf o'quvchilarida mustaqil fikrlash ko'nikmasini tarkib topganligini o'rganish va baholash uchun ko'p hollarda maxsus testlar hamda yozma ishlardan foydalanish kutilgan samarani beradi. Har bir sinfnıng rahbari har bir

¹⁵ Алберт Камью. Бунтующий человек. – Москва, 1988

boshlang'ich sinf o'quvchisining mustaqil fikrlash darajasidan xabardor ekanligini e'tibordan soqit qilmaslik kerak. Shu sababli bu jarayonda boshlang'ich sinf rahbarlarining fikr va mulohazalarini ham hisobga olish maqsadga muvofiq bo'ladi. Demak, ma'naviyatning muhim asoslaridan biri bo'lgan mustaqil fikrlash ko'nikmasining har bir boshlang'ich sinf o'quvchida shakllanganlik darajasini aniqlash va baholash uchun psixologik va ijtimoiy qonuniyatlarga asoslanish taqozo etiladi.

E'tibor berilsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviyatning individual shakllanganlik darajasini baholash uchun tajribali boshlang'ich sinf o'qıtuvchilari, psixologlar va boshlang'ich ta'lim Metodik kengashi vakillarining hamkorligi muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Bu ishda boshlang'ich sinf rahbarlari muvofiqlashtiruvchi vazifasini bajarishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviyatning shakllanganlik darajasini sinflar kesimi bo'yicha baholab borish istiqbolli yo'nalishi. Bugungi kunda jamiyatimizda boshlang'ich sinflar ko'lami kengdir. Chunki har bir A, B, S kabi sinf guruhlarga bo'linadi. Shu sababli sinflar kesimida boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviyatning shakllanganlik darajasini o'rganish va baholash juda murakkab kechadi. Buning uchun yangi yondashuvlardan cho'chimagan holda tajribaviy metodikalarnı qo'llab ko'rish maqsadga muvofiq bo'ladi va unda har bir boshlang'ich sinf o'quvchilaridagi ma'naviyatlik darajasi o'rganilib baholanadi. Shu sababli bu borada quyidagi tajribaviy metodikani taqdim etish mumkin:

- a) sinfda o'zlashtirishi yuqori bo'lgan boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviyatlilik darajasini aniqlash;
- b) sinfda o'g'il va qiz bolalarning ma'naviyatlilik darajasini aniqlash;
- v) sinf miqyosida ma'naviyatlilik darajasi bo'yicha umumiy baholashga erishish.

Har bir boshlang'ich sinfda keyingi paytlarda o'zlashtirishi yuqori bo'lgan o'quvchilarning tarkibi kengayib bormoqda. Bunga boshlang'ich ta'lim jarayonining texnologiyalashtirilayotganligi, o'qitishning turli metodikasi tadbiq etilayotganligi, darsliklarning tajribaviy metodikalarga asosan tuzilayotganligi va boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun ma'lumotlarni olish imkoniyatlari kengayib borayotganligi sabab bo'lmoqda. Shu jihatdan har bir boshlang'ich sinfdagi o'zlashtirishi yuqori bo'lgan o'quvchilarning ma'naviyatlilik darajasini aniqlash va baholash bilan muhim ma'lumotlarga ega bo'lish mumkin. Bunda past o'zlashtiruvchi yoki murakkabliklar asosida o'zlashtirish jarayonida muamolarga duch kelayotgan o'quvchilarning ma'naviyatlilik darajasiga shubha qilmaslik lozim. Bu toifa o'quvchilarda ham ma'naviyatlilik darajasi, ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarida tarkib topa boshlaganligini nazarda tutish joiz. Shu jihatdan o'zlashtirishi yuqori bo'lgan boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviyatini baholash vositasida boshlang'ich ta'limda amalga oshirilayotgan ma'naviy ta'lim va tarbiyaning samaradorligi to'g'risida aniq ma'lumotga ega bo'lish mumkin. Demak bunda quyidan yuqoriga tamoyiliga emas, balqi yuqoridan quyiga tamoyiliga asosan o'rganish va baholash ishlari amalga oshiriladi. Chunki agar o'zlashtirishi yuqori bo'lgan o'quvchilarning ma'naviyatlilik darajasi talablarga javob bersa, demak boshlang'ich ta'limda ma'naviy-ma'rifiy ishlar to'g'ri metodika asosida amalga oshirilmoqda hamda qolgan o'quvchilarning ma'naviyatini yuksaltirishga ham bunday jarayon ijobiy ta'sir qilish xususiyatlariga ega mazmunidagi diagnostik hulosaga kelinadi.

Bugungi kunda o'zlashtirishi past bo'lgan yoki o'zlashtirishda murakkab holatlar bosqichida bo'lgan boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviyatlilik darajasini aniqlash bilan butun sinf miqyosidagi ma'naviy-ma'rifiy ishlar ko'rsatkichlariga baho berib bo'lmasligini eslatib o'tish joiz. Bunday tajribaviy metodika sermehnat bo'lsa-da, lekin u har bir boshlang'ich sinfda

o'quvchilarning ma'naviyatlilik darajasi ko'rsatkichlari to'g'risida aniq ma'lumotlarni taqdim qiladi.

Keyingi 5-6 yil davomida milliy va an'anaviy Pedagogikamiz metodikasida e'tibordan soqit qilib klinayotgan genetik (irsiyat) qonuniyatlariga asosan ta'lim va tarbiya jarayonini optimallashtirish ishlari amalga oshirilmoqda. Bunda asosiy e'tibor nasl-nasabning kelib chiqishiga emas, balqi o'g'il va qiz bolalarning gender tengligiga qaratilmoqda.

Konseptual yondashuvlarga ko'ra, har bir o'g'il va qiz bola o'z ajdodlaridan yuz tuzilishi, organizmning o'ziga xos xususiyatlarga egaligi va miya tuzilishining davomiyligini saqlovchi xususiyatlarni qabul qilib oladi. Ayni paytda, har bir o'g'il va qiz bola bilimlarni o'zlashtirish, axloqli bo'lish, ijtimoiylashuv, kasb-hunarli bo'lish kabi ijtimoiy xususiyatlarni ta'lim va tarbiya jarayonida o'zlashtiradi. Bunday yondashuv Yevropa mamlakatlarida uzoq vaqt amaliy tajribalardan o'tib kelganligini va xatto XX asrning 20-50 yillarida ayollarning ilmiy ish bilan shug'ullanishida samara yo'q degan yondashuvlarning yashovchan bo'lib qolganligini eslatib o'tish joiz.¹⁶

XX asrning 90-yillaridan boshlab gender tenglik muammosining hal etilishi natijasida o'g'il va qiz bolalarning ijtimoiy jamiyatdagi tengligi hamda uning adolatligi tarkib topdi. Shu ma'noda pedagogik tajribalarimiz shuni ko'rsatadiki, qiz bola o'quvchilarning ma'naviyatlilik darajasi chuqur asoslarga egaligi va o'g'il bola o'quvchilarda ma'naviyatlilik darajasi nisbatan amaliy ko'nikmalarga egaligi namoyon bo'ladi. Bunda ma'naviyatning inson ichki olami bilan bog'liqligini hisobga olsak, qiz bola o'quvchilarda ma'naviyatlilik darajasi qanday bo'lishi va uning ular faoliyatidagi tutgan o'rni bo'yicha metodik to'xtamlarga kelinishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Shu jihatdan bizning yondashuvimizga ko'ra, boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviyatlilik darajasini sinf kesimida baholashda o'g'il va qiz bolalarni alohida o'rganish bo'yicha metodikaga

¹⁶ Коллектив авторов. Психология. – Ташкент, 2021

tayanish qiziqarli ko'rsatkichlarni beradi. Agar qiz bola boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviyatlilik darajasi yuqori bo'lsa, bu ma'naviy-ma'rifiy o'qitish ishlarining samaradorligini hamda gender tenglikning tarkib topganligini namoyon qiladi. Shuningdek, boshlang'ich sinf qiz bolalarida ma'naviyatlilik darajasi yuqori bo'lsa, bu hol nafaqat o'g'il boshlang'ich sinf o'quvchilari ma'naviyatlilik darajasiga, balki butun sinfning ma'naviyatlilik darajasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Chunki qiz bola boshlang'ich sinf o'quvchilari eng murakkab hollar va vaziyatlarda ham o'zini tuta oladi hamda muammodan chiqib ketadi, bu ma'naviyatlilik ko'rsatkichidir; ko'p hollarda o'g'il bola boshlang'ich sinf o'quvchilari murakkab va qiyin holatlarda radikal, ya'ni kutilmagan xatti-harakatlar qadamini tashlaydi, natijada ular ko'p hollarda muammolar girdobida qoladi. Shu ma'noda har bir boshlang'ich sinfda o'g'il va qiz bola o'quvchilarning ma'naviyatlilik darajasini alohida-alohida o'rganish hamda umumlashtirish shu sinfdagi ma'naviyatlili ko'rsatkichlari to'g'risida muhim ma'lumotlarni beradi.

Kezi kelganla ta'kidlash lozimki, bizning individual fikrimizga ko'ra, keyingi paytlarda ma'naviyat masalasi bo'yicha o'g'il bola o'quvchilar bilan individual tadbirlarni ko'proq amalga oshirish taqozo etilmoqda. Chunki bunday toifa o'quvchilarda o'jarlik, o'z fikrida turib olish, aytganini katta yoshlilarga o'tkazish kabi illatlarning yuzaga chiqayotganligi ham sir emas. Demak, har bir sinfda o'g'il va qiz bola o'quvchilarning ma'naviyatlilik darajasini baholashda diagnostikaning tajribaviy metodikalaridan foydalanish kutilgan samarani berishi mumkin.

Boshlang'ich ta'limning har bir sinfi va ularning o'quvchilari o'ziga xos tayanch omillar va xususiyatlarga ega. Shu sababli har bir boshlang'ich sinf bo'yicha ma'naviyatlilik darajasini baholashning yangicha istiqbolli yo'nalishini ishlab chiqish zaruriyat bo'lib turibdi. Bu borada boshlang'ich sinflar uchun teng ravishda yaratilayotgan shart-sharoitlar, jihozlar, texnik va texnologik imkoniyatlar kabi

omillarga e'tibor bermaslik maqsadga muvofiq bo'ladi. Aksincha, har bir boshlang'ich sinfda ma'naviy muhitning mavjudligi, o'quvchilarning o'zaro munosabatlari, sinfdagi jamoaviylik ruhi va muayyan muammolarni birgalikda hal etishga intilish kabi omillarni o'rganish va baholash maqsadga muvofiq bo'ladi.

Har bir oila o'ziga xos muhit va sharoitga ega bo'lgani holda, uning a'zolari umumiy ijimoiy xususiyatlarga ega bo'lganidek, har bir sinfda ham sharoit va muhit umumiy bo'lsa-da, lekin o'quvchilardagi ma'naviyatlilik darajasi turlicha bo'ladi. Shu sababli muayyan boshlang'ich sinf miqyosida o'quvchilarning ma'naviyatlilik darajasi o'rganilganda, asosiy e'tibor o'quvchilardagi ma'naviy holatlar va xususiyatlarni o'rganishga qaratiladi. Buning natijasida har bir boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviyatlilik ko'rsatkichlari yaqqol namoyon bo'ladi. Misol uchun, 1-A sinf o'quvchilarida ma'naviyatlilikning axloqiy jihatlari, 1-V sinf o'quvchilarida esa ma'naviyatlilikning ijtimoiy jihatlari kutilgan darajada tarkib topgan bo'lishi mumkin. Bunday rang-baranglik sharoitida diagnostika jarayonining turli indikatorlaridan, ya'ni mezonlaridan foydalaniladi. Bunday indikatorlar ro'yhatida ahloqiylik, ijtimoiylik, birodarlik, bag'rikenglik, jamoaparvarlik kabi ko'nikmalar bo'lsa, har bir boshlang'ich sinfda ularning uchrash ko'lami umumiy tahlil qilinadi va shu sinf o'quvchilarining ma'naviyatlilik darajasi baholanadi. Bunda har bir sinfning ma'naviyatlilik darajasi baholash indikatoridagi fazilatlaridan kelib chiqib amalga oshiriladi. Bunday tajribaviy metodika qanchalik murakkab bo'lmasin, lekin uning amaliy samaradorligi kutilgan darajada bo'ladi.

Diqqat qilinsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviyatning shakllanganlik darajasini sinflar kesimida baholab borish yangi va tajribaviy metodikalarga asoslanishni taqozo etadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviyatning shakllanganlik darajasini sinflar miqyosida baholab borish istiqbolli yo'nalishi. Boshlang'ich sinflar miqyosida

ma'naviyatlilikni o'quvchilarda shakllanganligini baholash muhim amaliy ahamiyatga ega. Bizning yondashuvimizga ko'ra, boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviyatning shakllanganlik darajasini sinflar miqyosida baholab borish uchun quyidagicha yondashuv maqsadga muvofiq bo'ladi:

a) 1-2-sinflarda ma'naviyatlilik darajasi;

b) 3-4-sinflarda ma'naviyatlilik darajasi;

v) chuqurlashtirilgan mashg'ulotlar bilan shug'ullanadigan sinflarda ma'naviyatlilik darajasi.

Boshlang'ich ta'limda 1-2-sinflar shakllantirish vazifalarini bajaradi. Shu sababli bu sinflarda ma'naviyatlilik darajasini aniqlash uchun umumiy indikatorlarga asoslanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunda 1-2-sinflar uchun yaratilgan ta'lim muhiti, sharoiti, jihozlanish ko'rsatkichlari, ma'naviy-ma'rifiy ta'lim va tarbiyaning amalga oshirish darajasi, belgilangan o'qituvchilar yoki mutaxassislarning mahoratlik ko'rsatkichlari masalalari o'rganiladi. Buning natijasida sinf miqyosida ma'naviyatlilik darajasiga ta'sir ko'rsatadigan omillarning to'g'ri tashkil qilinganligi samaradorligi yoki ularning muammolari ko'lami to'g'risida ma'lumotlarga ega bo'linadi. Bunday ma'lumotlar natijasida 1-2-sinflarda ma'naviyatlilik darajasi baholanib, uni rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishlari belgilanadi. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, mamlakatimiz boshlang'ich ta'lim jarayonida 1-2-sinflar uchun teng muhit va sharoitlar hamda jihozlanish bilan ta'minlangan. Lekin bu o'rinda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil qilish va boshqarish turli-tuman ekanligini eslatib o'tish joiz. Shu sababli 1-2-sinflarda ma'naviyatlilik darajasini o'rganib baholashda ma'naviy-ma'rifiy ishlarning tashkil etilganligi va samaradorligi o'rganiladi. Buning natijasida ushbu sinflarda ma'naviyatlilik darajasi yaqqol namoyon bo'ladi.

Eslatib o'tish joizki, ta'lim muhiti va sharoitning umumiy bo'lganligi uchun qishloq va shahar hududlaridagi 1-2-sinflarda ma'naviyatlilik darajasi faqat uni tashkil etish asoslari bilan

farqlanadi. Shu sababli bu borada yangicha va tajribaviy metodikalarni ishlab chiqish ham dolzarb bo'lib turibdi.

Sinflar miqyosida ma'naviyatlilik darajasini o'rganishda 3-4-sinflar tarkib toptirish bosqichi hisoblanadi. Bu jarayonda sinf miqyosida o'quvchilarda nafaqat ma'naviy ko'nikmalar, balki butun sinf bo'yicha ma'naviy holat va vaziyatlar tarkib topadi. Shu sababli 3-4-sinflarda ma'naviyatlilik darajasini o'rganib baholash uchun sinflardagi ma'naviy vaziyat, voqelik, muhit, holat va munosabatlar o'rganilib baholanadi. Buning natijasida 3-4-sinflardagi ma'naviyatlilik darajasi vaziyatlarga mos ravishda rivojlanishi yoki murakkablik holatlarida ekanligi aniqlanadi. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, 3-4-sinf o'quvchilari nisbatan o'zlarini mustaqil tuta boshlaydi va bu hol sinf miqyosida namoyon bo'ladi. Shu sababli bu sinflarda ma'naviyatlilik darajasini baholash uchun mavjud ma'naviy vaziyat va holatlar muntazam o'rganilib borilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Umumiy o'rganish natijasida 3-4-sinflardagi ma'naviy vaziyat va holatga baho beriladi. Aynan ma'naviy vaziyat va holatning ko'rsatkichlari 3-4-sinflar ma'naviyatlilik darajasini baholab, uning istiqbolli yo'nalishlarini belgilash muhim ahamiyatga ega.

Bugungi kunda 1-4-sinflarda muayyan sinflarning fanlar turkumi bo'yicha chuqurlashtirilgan tarzda o'qitish tajribalari ham mavjud. Bunda ayniqsa, boshlang'ich sinflarda aniq va tabiiy fanlar bo'yicha chuqurlashtirilgan sinflarning tashkil etilayotganligini eslatib o'tish joiz. Bu hodisa butun mamlakatimiz miqyosida amalga oshirilmoqda va bundan maqsad o'quvchilarga kutilgan darajada bilim hamda ko'nikmalar berishdir. Shu ma'noda bizning yondashuvimizga ko'ra, muayyan fanlar chuqurlashtirib o'qitiladigan 1-4-sinflarning ma'naviyatlilik darajasini alohida o'rganib baholash kutilgan samarani beradi. Chunki bunday sinflarda o'quvchilar ko'p vaqtlarini ta'lim olish va bilimlarni o'zlashtirish asosida kechiradi. Bu hol ularning ma'naviyatini shakllanishida qanday ko'rsatkichlar yuzaga kelayotganligini

o'rganish nuqtai nazaridan juda qiziqarlidir. Shu sababli muayyan o'quv fanlari bo'yicha chuqurlashtirilgan 1-4-sinflarda ma'naviyatlilik darajasini o'rganish bo'yicha maxsus mezonlarni belgilagan holda baholash ishlarini amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu borada tajribaviy metodikani ishlab chiqish dolzarb bo'lib turganligini eslatib o'tish joiz.

E'tibor berilsa, boshlang'ich sinflar miqyosida ma'naviyatlilik darajasini baholab borish o'ziga xos yondashuvlarga asoslanadi va bunda o'rganishning indikatorlari turli-tumanligiga asoslanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Shunday qilib, boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviyatni shakllanganlik darajasini individual baholab borish, boshlang'ich sinflar kesimida baholab borish va sinflar miqyosida baholab borish istiqbolli yo'nalishlari o'zining innovatsion metodikaga ega ekanligi bilan muhim o'rin tutadi.

4.2. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviyat ko'nikmalaridan foydalanishni o'rganish istiqbolli yo'nalishi

Mamlakatimiz boshlang'ich ta'lim jarayonini rivojlantirishning asoslaridan biri o'quvchilarni ma'naviy faoliyatga sifati tayyorlashdir. Chunki bugungi kunda yoshlarning ma'naviy ongi, ma'naviy fikri va ma'naviy axloqiga nisbatan turli salbiy yondashuvlarning bo'layotganligi ma'lumdir. Shu sababli Davlat rahbarining "Ma'naviyat – hayotimizda yangi kuch, yangi xarakterga aylanishi kerak" nutqida quyidagi g'oyalarga alohida urg'u berilgan:

- *farzandlarimizni buzg'unchi g'oyalar ta'siridan asrash;*
- *yoshlarni sog'lom ma'naviy muhitga ko'niktirish;*
- *kelajakni yoshlar omili asosida tasavvur qilish.*

Bunday g'oyalar boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviyat ko'nikmalaridan foydalanishning istiqbolli yo'nalishlarini o'rganib borishni taqozo etadi. Chunki boshlang'ich sinf o'quvchilari o'z ma'naviyat ko'nikmalaridan o'rinli foydalana olsagina, ularning faoliyati va hayotida ma'naviyat yangi kuchga aylanadi. Shu jihatdan

bu o'rinda e'tiborimizni boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviyat ko'nikmalaridan *foydalanishni o'rganish* istiqbolli yo'nalishi masalasi tahliliga tortamiz.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviy immunitet darajasini o'rganish. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviy ongning shakllanganligi, ma'naviy axloq ko'nikmasining mavjudligi va ma'naviy faoliyatga tayyorgarligini ko'rsatuvchi ko'rsatkichlardan biri ma'naviy immunitetdir. Ma'naviy immunitet – bu boshlang'ich sinf o'quvchilari ongida ma'naviy illatlar va ma'naviy xatti-harakatlarni yomonlik xususiyatlaridan saqlovchi ko'nikmadir. U bevosita ong bilan bog'liq bo'lganligi uchun boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'z ma'naviyat ko'nikmalaridan foydalanish bilan bog'liq hodisadir. Shu jihatdan boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviy immunitetning tarkib topganligini o'rganish uchun quyidagilarga e'tibor berish kerak:

- a) o'quvchilar ongida yomonlikni tez ilg'ay oluvchi tuyg'ularning mavjudligi;
- b) o'quvchilar ongida zararli g'oyalarni sezish ko'nikmasining tarkib topganligi;
- v) o'quvchilar ongida tartib-intizomga mos kelmaydigan xatti-harakatlardan tiyilishning tarkib topganligi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida agar ma'naviy ong kutilgan darajada shakllanish jarayonida bo'lsa, ularda yomonlikni tez ilg'ay oluvchi tuyg'ulari tarkib topadi. Misol uchun, unga notanish kishilarning munosabatidagi maqsadlarning yaxshi va yomonligi tez ma'lum bo'ladi. Shu sababli boshlang'ich sinf o'quvchilari qanchalik tartibli tinglovchi sifatida namoyon bo'lsa-da, lekin ular har bir munosabatdagi yaxshilik va yomonlikni farqlab turadi. Shu sababli boshlang'ich sinf o'quvchilarida yomonlik tuyg'ularining shakllanganlik darajasini o'rganish asosida ularning ma'naviy immuniteti to'g'risidagi dastlabki ma'lumotga ega bo'linadi.

Pedagogik tajribalar shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich sinf o'quvchilarining ko'pchiligida yomonlikni tez sezish tuyg'ulari

mavjud bo'ladi. Bunga sabab ularning ichki olami rivojlanish jarayonida bo'lganligidir. Shu sababli boshlang'ich sinf o'quvchilarida yomonlikka nafrat emas, balki yomonlikni sezish ko'nikmasini tarkib toptirish metodik jihatdan to'g'ri hisoblanadi. Chunki bolaning ongiga yomonlik to'g'risida turli fikrlar va g'oyalarni singdirish uning ongida yomonlikka nisbatan noto'g'ri qo'zg'alishlar paydo qiladi. Bu borada nafaqat pedagogik, balki psixofiziologik qonuniyatlarni hisobga olgan holda boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviy ongida yomonlikni ilg'ay olish tuyg'usining mavjudligini aniqlash maqsadga muvofiq bo'ladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviy immunitetning shallanganligini aniqlash yo'llaridan biri ularda zararli g'oyalarni sezish ko'nikmasining mavjudligini o'rganishdir. Unga ko'ra, boshlang'ich sinf o'quvchilari kundalik faoliyati davomida turli g'oyaviy ta'sirlarga duch keladi. Ba'zilar yaxshilidan ibrat olib ezgulik sari intilsa, ayrimlari esa muayyan o'quvchilar guruhi ta'sirida o'zligida kechayotgan zararli g'oyalarga moylikni sezmaydi. Shu sababli xorijlik pedagog olimlar, jumladan, Jon Dyui 12 yoshgacha bo'lgan bolalarda zararli g'oyalarning tarkib topishi ularni turli yo'nalishlarga da'vat qilish bilan kechadi, degan fikrga keladi. Bu juda muhim masala. Masalan, bugungi jamiyatimizda ba'zi ota-onalar farzandlarining e'tiqodli bo'lishi extiyojidan kelib chiqib, 7-11 yoshli o'quvchilarni hayit namozi ibodatlariga olib borishadi. Namoz vaqtida bo'ladigan vazlar katta yoshli e'tiqodli kishilarga mo'ljallanganligini hisobga olsak, bu xatti-harakat boshlang'ich sinf o'quvchilarida sog'lom e'tiqodni shakllantirishi mumkinmi mazmunidagi muammoni keltirib chiqaradi. Bunda boshlang'ich sinf o'quvchisi e'tiqodga ega bo'lish yo'lida vazlar vositasida buzg'unchi e'tiqodlik kishilar to'g'risida ma'lumotlarni eshitishadi. Bu hol ularda sog'lom e'tiqodni shakllantiradimi yoki e'tiqodga oid zararli g'oyalarga nafrat uyg'otadimi?!

Bunday muammolar boshlang'ich sinf o'quvchilarining zararli g'oyalarni sezish ko'nikmasini shakllantirishda faqat ta'lim va

tarbiya muassasalariga tayanish lozimligini ko'rsatadi. Chunki bu muassasalarda boshlang'ich sinf o'quvchilariga zararli g'oyalarni farqlashga oid yondashuvlar pedagogik, psixologik, fiziologik va sotsiologik qonuniyatlarga asoslanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchisining o'zi zararli g'oyalarni sezish ko'nikmasiga tabiiy ravishda o'rgatilishi kerak. Misol uchun, agar unga o'qish yaxshi narsa emas, degan g'oya bilan murojaat qilinsa, u bu murojaatni qabul qilmaydi. Chunki barcha ta'lim muassasalari xodimlari mudom boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qishning ahamiyati to'g'risida tushuntirishlar berish bilan yo'naltirib keladi. Demak, boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviy immunitetida zararli g'oyalarni sezish ko'nikmasini mavjudligini o'rganish uchun bevosita ular bilan muloqot texnologiyasidan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari, umuman ta'lim tizimi ishtirokchilari uchun juda ko'p tartib-intizom va qoidalari majmui belgilangan. O'quvchilarning ularga rioya qilishini o'rganish va nazorat qilishning o'zi murakkab bir masalaga aylanganligini eslatib o'tish joiz. Shu sababli mazkur masalada biz boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviy tartib-intizomga rioya qilish ko'nikmasini tarkib topganligini o'rganish bilan cheklanish tarafdorimiz. Har tomonlama rivojlanish jarayonida bo'lgan boshlang'ich sinf o'quvchilarini tartib-intizom majmui girdobiga tortmasdan, ularda hayot va faoliyat uchun muhim bo'lgan ma'naviy immunitetning asosi hisoblangan ma'naviy tartib-intizomga rioya qilish ko'nikmasini o'rganish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunday tartib-intizom asoslarini o'quvchilarda o'zligini bilish ko'nikmasining tarkib topganligi, o'zini va o'zgalarni qadrlash malakasi shakllanganligi, sinf va sinfdan tashqari faoliyatda ichki olami tartib-intizomiga rioya qilishning mavjudligini o'rganish maqsadga muvofiq bo'ladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviy-tartib-intizomga rioya qilishi ularda ma'naviy immunitetning mavjudligini hamda o'z faoliyatida bu ko'nikmaga tayanish yuzaga kelganligini

ko'rsatadi. Pedagogik tajribalar shuni ko'rsatadiki, tartib-intizom o'rinsiz kuchaytirilsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarida unga qarshi munosabat tarkib topadi. Shu sababli boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviy tartib-intizmlilikni vujudga keltirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

E'tibor berilsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviy ko'nikmalaridan foydalanishni o'rganishning istiqbolli yo'nalishida ularda tarkib topgan ma'naviy immunitet darajasini aniqlash va rivojlantirish asosiy masalalardan biridir.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviy moslashuvchanlikning tarkib topganligini o'rganish.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari o'zlarining ma'naviyat ko'nikmalaridan oqilona foydalanishi uchun ularda ma'naviy moslashuvchanlik tarkib topgan bo'lishi kerak. Buning uchun quyidagilarga e'tibor berish maqsadga muvofiq bo'ladi:

a) boshlang'ich sinf o'quvchilarining maktab miqyosidagi ma'naviy muhitga moslashuvchanligi;

b) boshlang'ich sinf o'quvchilarining maktabdan tashqari muhitga moslashuvchanligi;

v) boshlang'ich sinf o'quvchilarining turli ijtimoiy muhitlarga moslashuvchanligi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari o'zi mansub o'quvchilar guruhi va sinfidagi ma'naviy muhitga ko'nikuvchan bo'ladi. Chunki bu muhit unga faoliyati davomida tanishdir. Ayni paytda maktab miqyosida ma'naviy muhitning turli-tuman bo'lishini e'tirof etish joiz. Shu sababli boshlang'ich sinf o'quvchilarining turdosh boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan ma'naviy munosabatga kira olishi, o'rta sinf (5-9-sinlar) ma'naviy muhitiga moslashuvchanligi va yuqori sinf (10-11-sinlar) ma'naviy muhitiga kirishimligi masalalarini o'rganish maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki har bir maktabda sinflar kesimida ichki ma'naviy muhit mavjud va u o'zining ko'rsatkichlariga ega bo'ladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchisi faoliyati davomida bunday muhitlar ma'naviy olamini tushunishi, ular bilan kirisha olishi va ma'naviy jihatdan rivojlanishi ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak. Yuqori sinf o'quvchilari boshlang'ich sinf o'quvchilariga nisbatan moslashuvchan munosabatda bo'lishini ta'kidlash lozim, o'rta sinf o'quvchilari esa psixofiziologik jihatdan rivojlanish jarayonida bo'lganligi uchun ko'proq boshlang'ich sinf o'quvchilarining guruhlariga e'tiborni qaratadi. Shu sababli boshlang'ich sinf o'quvchilarining 5-9-sinlar o'quvchilari bilan ma'naviy munosabatga kirishish darajasi va bu sinflardagi ma'naviy muhitga moslashuvchanlik ko'rsatkichlarini o'rganish muhim ahamiyatga egadir.

Bunda eng avvalo, boshlang'ich sinf o'quvchilarining maktab miqyosidagi ma'naviy muhitga moslashuvchanligi rivojlantiriladi va qolaversa ularning ma'naviy moslashuvchanligi turli salbiy ta'sirlardan himoya qilinadi. Buning natijasida boshlang'ich sinf o'quvchilarini maktab ma'naviy muhitiga kutilgan darajada moslashtirish imkoniyatlariga ega bo'linadi.

Bugungi kunda boshlang'ich sinf o'quvchilari maktabdan tashqari ma'naviy muhit girdobida faoliyat yuritayotganligini eslatib o'tish joiz. Bunday muhit boshlang'ich sinf o'quvchilari faoliyat yuritadigan qo'shimcha ta'lim muassasalari, bolalar ijodiyot markazlari, boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun uyushtiriladigan sayohat maskanlari kabi ma'naviy muhitlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarining moslanuvchanlik ko'nikmasiga ega bo'lishini taqozo etadi. Chunki maktabdan tashqari ma'naviy muhitlar o'zining ijobiy va salbiy xususiyatlariga ega bo'lishi ma'lum.

Bunday sharoitda boshlang'ich sinf o'quvchisi maktabdan tashqari ma'naviy muhitning ijodiy ko'nikmalarini o'zlashtirishi va salbiy xususiyatlaridan o'zini tiyish malakasiga ega bo'lishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Kuzatishlarimiz shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich sinf o'quvchilarining ko'pchiligi maktabdan tashqari ma'naviy muhitlardagi salbiy xususiyatlarni tez ilg'aydi va qabul

qilmaydi. Aksincha, bunday muhitlardagi ijobiy jihatlarga kirishimligi bilan namoyon bo'ladi. Demak, boshlang'ich sinf o'quvchilari maktabdan tashqari ma'naviy muhitga moslashuvchanlik ko'nikmasiga ega bo'lsa, ular o'zlari o'zlashtirgan ma'naviy ko'nikmalardan foydalana oladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari o'z faoliyati davomida turli ma'naviy muhitlarga duch keladi. Bunda ayniqsa, mahalla va oiladagi ma'naviy muhit boshlang'ich sinf o'quvchilari faoliyatida muhim o'rin tutadi.

Bugungi kunda mahallalarda olib borilayotgan ma'naviy muhimni takomillashtirishga oid ishlarni e'tirof etgan holda, eslatib o'tish joizki, mahallalarda boshlang'ich sinf o'quvchilarini yo'naltiruvchi emas, nazorat qiluvchi xodimlar ko'paydi. Bu "mahalla yettiligi", ya'ni mahalla raisi, mahalla inspektori, mahalla xotin-qizlar faoli, mahalla yoshlar yetakchisi, ijtimoiy ta'minotchi va tibbiyot xodimidan iborat. Bu toifalardan yoshlar yetakchisi bevosita boshlang'ich sinf o'quvchilari ma'naviy moslashuvchanligi bilan ishlashi mumkin, qolganlari o'rinsiz nazorat vazifasini bajarayotganligini ta'kidlab o'tish lozim. Buning natijasida boshlang'ich sinf o'quvchilarida mahalla hayotidan tortinish ko'nikmalari paydo bo'layotganligi pedagogik muammo sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu jihatdan mahallada boshlang'ich sinf o'quvchining ma'naviy holatini nazorat qilish emas, balki ularni mahalla ma'naviy hayotiga moslashishiga e'tibor berish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Bundan tashqari, oilalarda ham butunlay turli-tuman xususiyatlarga ega ma'naviy muhit tarkib topgan. Ba'zi oilalarda shaxsiy manfaatlarni ustun qo'yuvchi ma'naviy muhit va ba'zilarida esa umumiy manfaatlarni hisobga oluvchi muhit rivojlanib bormoqda. Bunday sharoitda boshlang'ich sinf o'quvchisi oiladagi ma'naviy muhitga qanchalik to'g'ri moslashadi va uni kuzatib borish kim uchun zarur muammosini hal etish dolzarb bo'lib turibdi. Shu ma'noda boshlang'ich sinf o'quvchilarida mahalla va oila kabi

ijtimoiy hayot tuzilmalaridagi ma'naviy muhitga moslashuvchanligini ta'lim muassasasi o'z nazoratiga olishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Buning uchun boshlang'ich sinf o'quvchisi ma'naviy moslashishda faqat o'zining ma'naviy ko'nikmalariga tayanish metodikasi bilan qurollantirilishi kutilgan samarani beradi.

Diqqat qilinsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'z ma'naviy ko'nikmalaridan foydalanishni o'rganishda ularning ma'naviy moslashuvchanlik malakasini kuzatish, o'rganish va tahlil qilish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviy barqarorlikka intilish ko'nikmasining tarkib topganligini o'rganish. Ma'naviy barqarorlik – shaxs ongida ma'naviy ko'nikmalarining to'laqonli tarkib topganligini ifodalaydi. Shu jihatdan boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviy barqarorlikka intilish ko'nikmasini tarkib topganligini o'rganish muhim ahamiyatga egadir. Bunda quyidagilarga e'tibor berish kerak:

a) boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'z so'zida sobit turishi ko'nikmasini o'rganish;

b) boshlang'ich sinf o'quvchilarining mas'uliyat sezishi ko'nikmasini o'rganish;

v) boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'z ko'nikmalarini namoyon qila olish malakasini o'rganish.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviy barqarorlikka intilishning dastlabki ko'rinishi ularning o'z so'zida sobit turishi bilan belgilanadi. Unga ko'ra, boshlang'ich sinf o'quvchisi to'g'ri yoki noto'g'riligidan qat'iy nazar o'z fikrini himoya qila olishi, agar xato qilgan bo'lsa tan olishi va to'g'ri fikrlayotgan bo'lsa o'zining haqligiga ishonishi kerak. Aytilgan fikrdan qaytish, o'zgalarning fikriga ko'r-ko'rona itoatda bo'lish yoki o'z fikriga ega bo'lmaslik ma'naviy itoatkorlik illatini keltirib chiqaradi. Aksincha, o'z so'zida sobit turish boshlang'ich sinf o'quvchisining ma'naviy barqarorlikka intilish ko'nikmasini ifodalaydi.

Bunda boshlang'ich sinf o'quvchisining o'jarlik, qaysarlik, o'zbilarmonlik kabi harakatlarga tayangan holda o'z so'zida sobit turishini ijobiy baholash lozim. Bu bilan u o'zidagi fikrni himoya qilishi va mustaqil fikriga intilishi ko'nikmasini namoyon qilayotgan hisoblanadi. Demak, yangicha ma'naviy yondashuvga asosan boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviy tushunchalarini aniqlashda pedagogik bag'rikenglik madaniyatiga amal qilish maqsadga muvofiq bo'ladi. O'qituvchi yoki boshlang'ich sinf o'quvchisining ma'naviy ko'nikmalarini o'rganayotgan shaxs ularning o'z so'zida sobit turish malakasini baholash vositasida ma'naviy barqarorlikka intilishini aniqlashi lozim bo'ladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchisining ma'naviy barqarorlikka intilish ko'nikmasiga ega bo'lishida unda tarkib topgan mas'uliyatni o'rganish ham taqozo etiladi. Buning uchun boshlang'ich sinf o'quvchisining o'z so'zi va xatti harakati uchun mas'uliyat sezishi, o'zi mansub o'quvchilar guruhi uchun mas'uliyat sezishi, sinfdoshlari uchun mas'uliyat sezishi va notanish vaziyatlarda ma'naviy mas'uliyat sezishi o'rganilishi kerak. Boshlang'ich sinf o'quvchilapim har qanday holat, vaziyat va voqelik jarayonida mas'uliyat sezishi pedagogik tajribadan ma'lum. Lekin ularning bu ko'nikmasini o'rganish va baholash keng ko'lamli yondashuvni taqozo etadi. Bu masalada ham an'anaviy yondashuvlar va metodikalardan tiyilgan holda, boshlang'ich sinf o'quvchilarida mas'uliyat ko'nikmasining mavjudligini o'rganish uchun yangicha yondashuvlar va individual tajribalarga asoslanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu borada ilmiy-metodik ishlanmalarni yaratish muhim ahamiyatga egadir.

Bizning fikrimizcha, boshlang'ich sinf o'quvchisi ishonadigan o'qituvchi, ota-ona, murabbiy yoki katta yoshlilar ishtirokida ularning ma'naviy mas'uliyat ko'nikmasini o'rganish maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki o'quvchilar o'zi ishongan shaxsga ma'naviy borlig'ini namoyon etadi. Ayni paytda, boshlang'ich sinf o'quvchilarining aqliy, axloqiy va estetik xususiyatlariga mos

kelmaydigan mas'uliyatlik ko'nikmasini talab qilish yondashuvidan voz kechish lozim. Bizning umumiy yondashuvimizga ko'ra, baribir boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviy mas'uliyat talab darajasida tarkib topgan bo'ladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviy barqarorlikka intilish ko'nikmasiga ega bo'lishida ular o'z ko'nikmalaridan foydalanish tajribasini o'rganish ham muhim ahamiyatga ega. Kuzatishlarimiz shuni ko'rsatadiki, ko'pchilik boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviy ong, ma'naviy fazilat, mustaqil va ijodiy fikrlash, murakaab vaziyatlarda o'zni tutish kabi muhim ma'naviy ko'nikmalar tarkib topgan bo'ladi. Lekin ulardan amaliy foydalanishda boshlang'ich sinf o'quvchilari murakkabliklarga duch keladi. Buning uchun bunday ko'nikmalardan foydalanishga o'rgatishda boshlang'ich sinf o'quvchilarini ko'proq turli ijtimoiy muhitlar bilan tanishtirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Misol uchun, boshlang'ich sinf o'quvchilarining boshqa umumiy o'rta ta'lim maktabi turdosh boshlang'ich sinfiga tanishuvini uyushtirish ularni ijtimoiy muhitga olib kirishning muhim vositalaridan biridir.

Bunday jarayonda har ikkala sinf o'quvchilari qanday munosabatda bo'lishini o'rganish va tahlil qilish maqsadga muvofiq bo'ladi. Agar o'quvchilar tezda kirishimlik ko'nikmasini namoyon qilsa, ularda o'z ko'nikmalaridan foydalanish malakasi tarkib topgan bo'ladi. Bordi-yu o'quvchilarda kirishimlik darajasi murakkab kechsa, demak har ikkala sinf o'quvchilarida ham o'z ma'naviy ko'nikmalaridan foydalanish malakasi rivojlanish jarayonida ekanligi namoyon bo'ladi. Shu sababli boshlang'ich sinf o'quvchilarini turli ijtimoiy muhitlar olamiga olib kirish bilan ularda o'zlari o'zlashtirgan ma'naviy ko'nikmalardan foydalanish malakasini tarkib toptirish mumkin.

E'tibor berilsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviy barqarorlikka intilish ko'nikmasi aynan ularning o'z ma'naviy ko'nikmalaridan foydalanish masalasi bilan bevosita bog'liqdir.

Mazkur istiqbolli yo'nalishni o'rganishda yanicha metodik yondashuvga asoslanish taqozo etiladi.

Shunday qilib boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'zlashtirgan ma'naviyat ko'nikmalaridan foydalanishni o'rganishning istiqbolli yo'nalishi ulardagi ma'naviy immunitet darajasi, ularning ma'naviy moslashuvchanligi va ma'naviy barqarorlikka intilish malakalarining tarkib topganligini tahlil qilishga asoslanadi. Bu masalalar bo'yicha yangi ilmiy-metodik tadqiqotlar majmuini yaratish maqsadga muvofiq bo'ladi.

4.3. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviy rivojlanish jarayonini tartibga solishning istiqbolli yo'nalishi

Mamlakatimizda boshlang'ich ta'limning sifat ko'rsatkichlariga erishishi 2026 yil yakuniga qadar bo'lgan ta'lim strategiyasining asosiy yo'nalishini tashkil qiladi. Shu sababli bu borada boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviyatini shakllantirish innovatsion metodikasini ishlab chiqish zaruriyati idrok etildi va mazkur tadqiqotda ana shu metodikaning eng muhim asoslari tahlil qilinganligini ta'kidlaymiz. Bu o'rinda ushbu metodikaning boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviy rivojlanish jarayonini *tartibga solish* istiqbolli yo'nalishi tahliliga tortamiz.

Ma'naviy rivojlanish - boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'zlashtirilgan ma'naviy ko'nikmalarni mustahkamlash va ularning ma'naviyatini turli salbiy ta'sirlardan himoya qilish tadbirlari majmuidir. Shu ma'noda bu o'rinda mazkur muammoning eng muhim metodik asoslari tahliliga e'tiboringizni tortamiz.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ma'naviy tahdidlardan himoya qilish istiqbolli yo'nalishi. Davlatimiz rahbarining respublika ma'naviyat va ma'rifat kengashining 2023 yil 22 dekabrda yig'ilishida so'zlagan nutqida ma'naviy tahdidlarning yana avj olganligi va bunda xalqimiz ongiga, ayniqsa, yoshlar ongiga buzg'unchi g'oyalarni singdirishga bo'layotgan o'zgarishlarning kuchayganligi alohida ta'kidlab o'tildi. Shu ma'noda **ma'naviy**

tahdid - shaxs va jamiyat xavfsizligi, uning ma'naviy va ruhiy dunyosiga salbiy g'oyaviy ta'sir ko'rsatish hamda amaliy harakatlar majmuidir.¹⁷ Ma'naviy tahdid boshlang'ich sinf o'quvchilari ma'naviy ongi va ko'nikmalariga salbiy ta'sir ko'rsatishi bilan ularning ma'naviy rivojlanishini izdan chiqaradi. Shu sababli boshlang'ich sinf o'quvchilarini quyidagi ma'naviy tahdidlardan asrash dolzarb bo'lib turibdi:

- a) o'quvchilarni sohta ma'lumotlardan saqlash;
- b) o'quvchilar ongini aqidalashtirishdan himoya qilish;
- v) o'quvchilar faoliyatini tashqi kuchlardan himoya qilish.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini sohta ma'lumotlardan himoya qilish ularni ma'naviy tahdidlardan asrashning eng muhim omilidir. Buning uchun o'quv adabiyotlari va darsliklarida, tarbiyaviy tadbirlar mashg'ulotlarida, sinfdan va maktabdan tashqari faoliyatda o'quvchilarga eng muhim va to'g'ri ma'lumotlarni berish taqozo etiladi.

Jumladan, mamlakatimizda 132 millat va elat vakillari yashaydi, ular uchun Vatan tushunchasi nimani ifodalaydi mazmunidagi savolga to'g'ri javob berish lozim. Chunki ko'pgina g'arazgo'y kishilar boshlang'ich sinf o'quvchilariga turli so'zlar ta'siri vositasida O'zbekiston o'zbeklar Vatani degan g'oyani singdirishga harakat qiladi. Ayni paytda, boshlang'ich sinf o'quvchilariga O'zbekiston o'zbek xalqi bilan birgalikda yashaydigan boshqa millatlarning Vatani ham ekanligini tushuntirish to'g'ri ma'lumot hisoblanadi. Chunki inson o'z tug'ilgan joyini Vatan deb qabul qiladi va bunda uning qaysi millat yoki elatga mansubligi muhim ahamiyatga ega bo'lmaydi. Shu kabi masalalarda boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun eng muhim to'g'ri ma'lumotlarni berish bilan ularni soxta ma'lumotlardan himoya qilish mumkin bo'ladi.

Yoki, O'zbekiston xalqini nima tashkil qiladi?

Buzg'unchi kimsalar O'zbekiston xalqini o'zbek millati vakillari tashkil qiladi deb talqin etadi va bu bilan mamlakatdagi totuvlikka

¹⁷ Ma'naviyat asosiy tushunchalar izohli lug'ati. Mualliflar jamoasi. - Toshkent, 2010. 315-bet

raxna solmoqchi bo'ladi. Aslida O'zbekiston xalqini mamlakatimizda yashovchi 132 millat va elat tashkil qiladi. Yohud, O'zbekistonda davlat tili o'zbek tili ekanligi boshqa millat va elatlarning tili rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatadi mazmunidagi soxta qarashlar ham targ'ibot qilishga urinilmoqda. Vaholangki, yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 141-moddasida O'zbekistonda davlat tili o'zbek tili va davlat mamlakatda faoliyat yuritayotgan millat va elatlarning tilini asrash hamda rivojlantirish choralarini ko'radi deb belgilab qo'yilgan. Shu ma'noda o'zbek tilining davlat tili ekanligi boshqa millat va elatlarning tilini ham rivojlantirish asosi bo'lishi to'g'ri ma'lumot hisoblanadi. E'tibor berilsa, aynan Vatan, xalq va millat kabi muhim tushunchalar bo'yicha boshlang'ich sinf o'quvchilariga to'g'ri ma'lumot berish bilan ularni soxta ma'lumotlardan himoya qilish ishlari amalga oshiriladi. Bunday ishlar boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kundalik diqqat markazlarida turishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ma'naviy tahdidlardan asrashning eng muhim asoslaridan biri ularning ongida aqidalashtirish harakatlarini amalga oshirishdir. Chunki aqidalashtirish o'quvchilar ongida muayyan tushuncha, g'oya yoki qarashni mutloq to'g'ri fikr deb qabul qilishga asoslanadi. Misol uchun, boshlang'ich sinf o'quvchisining bilim olish jarayonida ma'lumotlarning rang-barangligiga asoslanish ularning ongida aqidalashtirish tuyg'ularining paydo bo'lishining oldini oladi.

O'quvchi ko'rganini, bilganini va eshitganini to'g'ri deb qabul qiladi hamda uni himoya qilishga harakat etadi. Shu sababli boshlang'ich sinf o'quvchilarida mavjud tushunchalarni izohlab borish, ularga murakkab holat va ziyatlarni to'g'ri tushuntirish hamda ularning ongida ruhiy ko'tarinkilaini tarkib toptirish aqidalashtirishning eng muhim vositalaridan biridir. Bu borada boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviy ongi rivojlanish jarayonida ekanligini e'tibordan soqit qilmaslik kerak. Shu sababli maktab psixologlari muntazam ravishda boshlang'ich sinf

o'quvchilarining o'zlashtirgan tushunchalari va g'oyalarini tahlil qilib borishi, ularni tushunish darajasi bo'yicha ko'rsatkichlarni tuzishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Aslida maktab psixologining asosiy vazifalaridan ham o'quvchilarning ma'naviy ongi va undagi tushunchalar, g'oyalar hamda fikrlarning plyuralizm, ya'ni turli fikrlilik asosida tarkib toptirishdan iborat ekanligini eslatib o'tish joiz. Shu ma'noda birinchi o'zbek professori Abdurauf Fitrat "Najot yo'li" pedagogik asarida "o'quvchilarda fikrlar rang-barangligini shakllantirish ularning ongida aqidaparastlik kabi illatlarga zarba berishini asoslab ko'rsatgan edi". Demak, boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviy tushunchalarini o'rganib borish va ularda fikrlar rang-barangligini tarkib toptirish aqidalashtirishning oldini olishdagi eng muhim vositalardan biridir.

Bugungi kunda boshlang'ich sinf o'quvchilari maktabdan tashqari faoliyat davomida juda ko'p tashqi kuchlar bilan munosabatda bo'ladi. Bunday kuchlar ba'zida uyushgan holda mavjud bo'lishini eslatib o'tish joiz. Misol uchun, Internet jahon axborot tarmog'i vositasida muayyan tashqi kuchlar o'quvchilarda o'zga maktabning sharoitini maqtash yoki boshlang'ich sinf o'qituvchilarini nohaq ayblash kabi vositalarga asosan o'quvchilarda salbiy munosabatlarni uyg'otishga harakat qilishadi.

O'zbekiston Respublikasi Raqamlashtirish vazirligining ma'lumotiga ko'ra, 2023 yilda turli yo'nalishdagi tashqi kuchlar asosan ta'lim va ijtimoiy himoya masalalari to'g'risida mamlakatimizda noto'g'ri tushuncha uyg'otishga xarakat qilishini ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida tanlagan. Bunday salbiy targ'ibotlarda eng yomoni boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun ham mo'ljallangan soxta ma'lumotlar majmui mavjud. Masalan, ular boshlang'ich sinf o'quvchilarini "bugungi kunda o'qigan odamdan ko'ra, tadbirkor kishi boy yashamoqda", "boy bo'lish maqsadga erishishning eng muhim vositasidir" kabi tajavuzkorona g'oyalarni muntazam targ'ibot qilayotganligini eslatib o'tish joiz. Shu sababli boshlang'ich sinf o'quvchilarini tashqi kuchlarning ma'naviy

taxdidlaridan asrash uchun ularda aqliy, ruhiy va jismoniy imkoniyatlariga mos tushunchalarni tarkib toptirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Diqqat qilinsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviy rivojlanish jarayonini tartibga solish uchun ularni eng avvalo turli ko'rinishlar va vositalarga ega bo'lgan ma'naviy tahdidlardan himoya qilish lozim.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining axborot madaniyati bilan qurollantirish istiqbolli yo'nalishi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviy rivojlanish jarayonini tartibga solishda ularning axborot madaniyatini takomillashtirib borish muhim ahamiyatga egadir. Buning uchun quyidagilarga tayanish maqsadga muvofiq bo'ladi:

a) o'quvchilarni rasmiy matbuot nashrlari bilan tanishib borishga yo'naltirish;

b) o'quvchilarni axborot izlash va olish imkoniyatlarini kengaytirish;

v) o'quvchilarning axborot bilan ishlash ko'nikmasini o'rganib borish.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini mamlakatimizdagi rasmiy matbuot nashrlari bilan muntazam tanishib borishga o'rgatish ularni ma'naviy rivojlanishini tartibga solishning muhim asoslaridan biridir. Chunki rasmiy matbuot nashrlarida tasdiqlangan ma'lumotlar, axborotlar, tushunchalar, yo'nalishlar va tavsiyalar e'lon qilib boriladi. Shu ma'noda boshlang'ich sinf o'quvchilari "Tong yulduzi" gazetasi, "G'uncha", "Gulxan" kabi jurnallar bila muntazam tanishib borishi, birinchidan, ularning axborot madaniyatini to'g'ri shakllantirishga xizmat qiladi; ikkinchidan, o'quvchilarda gazetxonlik, jurnalxonlik va kitobxonlik ko'nikmalarini kuchaytiradi; uchinchidan, o'quvchilarda o'ziga xos ma'naviy axborot makonining tarkib topishi imkoniyatlarini beradi. Demak, bu borada boshlang'ich ta'lim "Tarbiya" o'quv fani o'qituvchisi rahbarligida boshlang'ich sinf o'quvchilarining rasmiy matbuot nashrlari bilan

tanishib borish ko'nikmasini tarkib toptirish dolzrab bo'lib turibdi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbusi bilan 2023 yildan boshlab ta'lim muassasalari rasmiy matbuot nashlari bilan davlat tomonidan ta'minlanayotganligi imkoniyatlaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilar axborot izlash va olish imkoniyatlariga keng eng bo'lishi lozim. Bunday axborotlarni ular eng avvalo darsliklar, kitoblar, matbuot nashrlari hamda Internet jahon axborot tarmog'idagi portallardan olishga ko'niktirilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Buning uchun boshlang'ich sinflar "Informatika va axborot texnologiyalari" o'quv fani o'qituvchilarining qo'shimcha mashg'ulotlarni, to'garaklarini va individual tadbirlarini muntazam tashkil qilib borish kutilgan samarani beradi. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, ushbu fan o'qituvchilar bugungi kunda o'quvchilarda kompyuter asoslari bilan tanishish ko'nikmasini shakllantirish bilan cheklanmoqda. Ayni paytda, mazkur toifa o'qituvchilarning asossiy vazifalaridan biri boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'ziga xos axborot izlash va olish ko'nikmalarini tarkib toptirish ekanligini eslatib o'tish joiz. Aynan axborot izlash va olish ko'nikmasi boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviy rivojlanishi uchun tayanchlardan biri bo'lib xizmat qiladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari axborot bilan ishlash ko'nikmasi bilan ham qurollantirilishi kerak. Unga ko'ra, ular olingan axborotlarni taxlil qilish, ulardagi eng kerakli ma'lumotlar va g'oyalarni qabul qilish, o'ziga kerakli axborotlarni oson topish malakalariga ega bo'lishi lozim. Buning uchun boshlang'ich sinf o'quvchilari axborot olayotgan manbalarni muntazam o'rganib borish taqozo etiladi.

Shu sababli AQShning mashhur faylasuflaridan biri Karl Popper "Axborot jamiyati" asarida "kim axborot bilan ishlash ko'nikmasiga ega bo'lsa, u jamiyatning faol shaxsi hisoblanadi" deb yozgan edi. Buning ma'nosi shuki, jumladan, boshlang'ich sinf o'quvchilarda axborot bilan ishlash ko'nikmasini tarkib toptirish

ularni jamiyat faoliyatiga tayyorlash bilan bog'liq hodisa ham hisoblanadi. Demak, boshlang'ich sinf o'quvchilarida axborot bilan ishlash ko'nikmasini tarkib toptirish vazifasi, eng avvalo, sinf rahbari va boshlang'ich ta'lim gumanitar fanlar o'qituvchilarining diqqat markazida bo'lishi lozim.

Diqqat qilinsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviy rivojlanish jarayonini tartibga solishning muhim asoslaridan biri ularning o'ziga xos axborot madaniyatini tarkib toptirishdir.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari ma'naviy rivojlanish jarayonini tartibga solishning monitoring istiqbolli yo'nalishi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviy rivojlanish jarayonini tartibga solish uchun o'ziga xos o'rganish va tahlilga asoslangan monitoringni yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki monitoring jarayonida yutuqlar baholanib, yo'l qo'yilgan kamchiliklar aniqlanadi va bartaraf etish bo'yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqiladi. Shu ma'noda boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviy rivojlanish jarayonini o'rgagib borishning monitoringida quyidagilarga asoslanish kutilgan samarani beradi:

a) har bir o'quvchida ma'naviy rivojlanishning mavjudligini monitoring qilish;

b) boshlang'ich sinflar kesimida o'quvchilar ma'naviy rivojlanishini monitoring qilish;

v) boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviy rivojlanishning monitoring ma'lumotlari asosida tavsiyalarni ishlab chiqish.

Har bir boshlang'ich sinf o'quvchisida ma'naviy rivojlanishning mavjudligini choraklik kesimida monitoring qilib borish maqsadga muvofiq bo'ladi. Buning uchun maxsus savolnoma asosidagi testlardan foydalanish kutilgan samarani beradi. Testlar turli variantlarda tayyorlanishi va ular ma'naviyat bo'yicha mutaxassislarning ekspertizasidan o'tkazilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Test savollari shunday tuzilishi kerakki, ularda har bir o'quvchining ma'naviy ongi, ma'naviy fazilatlarini, ma'naviy

munosabatlari va ma'naviy faoliyati bo'yicha ma'lumotlar olish nazarda tutilishi kerak.

Bu borada Rossiya Federatsiyasi Ta'lim vazirligining "O'quvchilarning axloqiy rivojlanishini monitoring qilish Dasturi" tajribasidan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Mazkur dasturda asosiy e'tibor o'quvchilarning axloqiy rivojlanishini monitoring qilish shakllari mavjud, bu shakllardan boshlang'ich sinf o'quvchilarining individual ma'naviy rivojlanishini monitoring qilishda foydalanish mumkin. Chunki dasturda yillar tajribasidan o'tgan savolnoma Testlarining bir necha variantlarda mavjudligini eslatib o'tish joiz.

Boshlang'ich sinflar kesimida o'quvchilarda ma'naviy rivojlanish jarayonini monitoring qilish ham dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Bizning fikrimizcha, bu borada Trening metodikasidan foydalanish kutilgan samarani beradi. Unga ko'ra, maxsus topshiriqlar va vazifalar majmuasidan iborat yagonalashtirilgan Trening majmuasi ishlab chiqiladi va unda asosiy e'tibor boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviy rivojlanish darajasini aniqlashga qaratilgan topshiriqlar aks etadi.

Har chorakda bir marotaba boshlang'ich sinflarda o'quvchilar guruhlariga bo'linib mazkur Trening o'yin-topshiriqlar amalga oshiriladi. Unda boshlang'ich sinf o'quvchilari o'zlarining ma'naviyatlilik darajasini to'liq namoyon qiladi. Shundan keyin olingan ma'lumotlar avvalo bir sinf miqyosida, keyin esa boshlang'ich sinflar qiyosida tahlil qilinadi. Buning natijasida boshlang'ich sinflar kesimida o'quvchilarning ma'naviy rivojlanish jarayoni bo'yicha muhim ma'lumotlarga ega bo'linadi. Ana shu ma'lumotlardan kelib chiqib boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviy rivojlanish jarayoni qanday kechayotganligi baholanadi va bu baholash natijasida boshlang'ich sinflarda amalga oshirilayotgan ma'naviy-ma'rifiy ishlarning amaliyoti to'g'risida xulosaga kelinadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari va sinflar kesimida o'tkazilgan monitoring asosida olingan ma'lumotlarga tayangan holda

o'quvchilarni ma'naviy rivojlantirish bo'yicha metodik tavsiyalar majmui ishlab chiqiladi. Bunda muayyan sinfda ma'naviy rivojlantirishning qaysi jihatlariga e'tibor berish, o'tkazilayotgan ma'naviy tadbirlarning qanday shakllari va turlarini ustuvor bilish hamda boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviy ko'nikmalarini rivojlantirishga doir qo'shimcha metodikalar majmui taqdim etiladi. Bunday taqdimot har o'quv yilining yarim yilligida amalga oshirilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki ma'naviy rivojlanishni tartibga solish aniq ma'lumotlarga asoslanishini eslatib o'tish joiz. Bunday ma'lumotlar majmuini aynan monitoring xulosalari taqdim etishiga e'tibor berish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Diqqat qilinsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviy rivojlanishni tartibga solishning monitoring istiqbolli yo'nalishi aniq ma'lumotlar berishi va bunday ma'lumotlar asosida zaruriy metodik tavsiyalarni ishlab chiqishi bilan muhim ahamiyatga egadir.

Shunday qilib, boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviy rivojlanish jarayonini tartibga solishning istiqbolli yo'nalishida o'quvchilarni ma'naviy tahdidlardan himoya qilish, ularni axborot madaniyati bilan qurollantirish va ma'naviy rivojlanish jarayonini monitoring qilib borish kutilgan samarani beradi. Bu masalalar oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari tomonidan nazariy va metodik jihatdan chuqur o'zlashtirilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

XULOSALAR

"O'zbekiston-2030" strategiyasida 2026 yil yakuniga qadar mamlakatimizda boshlang'ich ta'limda sifatli ko'rsatkichlarga erishish vazifasi qo'yilgan. Bu vazifalarda boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviyatini bugungi kun talablari darajasida shakllantirish ham muhim o'rin tutadi. Shu sababli boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviyatini shakllantirishda *innovatsion*, ya'ni yangicha asoslar, yondashuvlar va vositalarga tayangan metodikasini ishlab chiqish dolzrb bo'lib turibdi. Mazkur masalada quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Boshlang'ich sinf o'quvchilari ma'naviyatni shakllantirish innovatsion metodikasining yangi nazariy masalalarini tadqiq etish muhim ahamiyatga egadir. Shu ma'noda biz ma'naviyat tushunchasining yangi mazmunini idrok etish, boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviyatni shakllantirish zaruriyatini yangicha tushunish va bu masalaning innovatsion ahamiyati bo'yicha xulosalarga kelish muhim ahamiyatga egadir, deb hisoblaymiz. Bu masalalar tadqiqotimizning birinchi bobi tahlilida amalga oshirilganligini eslatib o'tish joiz.

2. Boshlang'ich sinf o'quvchilari ma'naviyatini shakllantirishning innovatsion didaktikasini idrok etish ham muhim ahamiyatga ega. Bunda asosiy e'tibor boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviyatni shakllantirishning mashg'ulotlar vositasi, to'garaklar vositasi va sinfdan tashqari mashg'ulotlar vositalariga oid innovatsion yondashuvlarga tayanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Tadqiqotning ikkinchi bobida ana shu masalalar bo'yicha nazariy-didaktik tahlil amalga oshirildi.

3. Boshlang'ich sinf o'quvchilari ma'naviyatini shakllantirishning innovatsion metodologiyasini belgilab olish ham dolzrb bo'lib turibdi. Bunda boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviyatni shakllantirishning individual yo'naltirish, rag'batlantirish va tanlov innovatsion metodikalarga asoslanish

kutilgan samarani berishini ta'kidlab o'tish lozim. Bu masalalar tadqiqotimizning uchinchi bobida amalga oshirilgan.

4. Boshlang'ich sinf o'quvchilari ma'naviyatini shakllantirish innovatsion metodikasining istiqbolli yo'nalishlarini ishlab chiqish ham bugungi kundagi eng asosiy vazifalardan biridir. Shu ma'noda bu masalada boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviyatning shakllanganlik darajasini baholash, ularda ma'naviyat ko'nikmalaridan foydalanishni o'rganish va boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviy rivojlanish jarayonini tartibga solish istiqbolli yo'nalishlariga asoslanish kutilgan amaliy samarani beradi. Tadqiqotning to'rtinchi bobida mazkur masalalar bo'yicha tahlillar amalga oshirilib, tavsiyalar taqdim etilgan.

5. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviyatini shakllantirish innovatsion metodikasi masalalari oliy pedagogik ta'lim jarayonida ilmiy tadqiqotchilikning yangi yo'nalishlaridan biri sifatida belgilanigi maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki Yangi O'zbekiston sharoitida boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviyatni shakllantirish ham o'ziga xos innovatsion metodikaga aosslanishi muhim ahamiyatga egadir.

6. Oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviyatini shakllantirish bo'yicha innovatsion metodika bilan qurollantirilishi maqsadga muvofiqdir. Buning uchun oliy pedagogik ta'lim muassasalarining imkoniyatlaridan oqilona foydalanish taqozo etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11 sentabdagi PF-158-son "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni // "Xalq so'zi" gazetasi, 2023-yil, 12 sentabr soni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Respublika ma'naviyat va ma'rifat kengashida 2023-yil 22 dekabrda so'zlagan "Ma'naviyat – hayotimizda yangi kuch, yangi harakatga aylanishi kerak" Nutqi. // "Xalq so'zi" gazetasi 2023-yil 23 dekabr soni.
3. Абдураззаков А.А. Национальные духовные ценности и их место в самосознании нации: Автореф.дис... канд.филос.наук. –Т., 1995. -24 с.
4. Абулханова-Славская К.А. Деятельность и психология личности. -М.: Наука, 1980. – 334 с.
5. Абулханова-Славская К.А. Жизненные перспективы личности// Психология и образ жизни личности. - М.: Наука, 1987. -С. 30.
6. Avesto (A. Mahkam tarjima).-Т.:Sharq, 2001.-385 b.
7. Алексеев В.А. Самосознание и мотивация деятельности детей на рубеже подросткового и старшего школьного возраста // Проблемы мотивации общественно-полезной деятельности школьников. - М.: 1984. - С. 103-107.
8. Амонашвили Ш.А. Воспитательная и образовательная функция оценки учения школьников. - М.: Педагогика. - 1984. -296 с.
9. Андреева Г.М. Социальная психология. - М., 1980. – 391 с.
10. Ананьев Б.Г. Избранные психологические труды в 2-х томах. - М., 1980.
11. Ананьев Б.Г. Человек как предмет познания. - Л., 1968. -С. 327.
12. Ананьев Б.Г. О проблемах современного человекознания. -

- М., 1977. - С. 247.
13. Анисимов С.Ф. Духовные ценности: производство и потребление. - М.: Мысль, 1988. - 253 с.
 14. Ансыферова Л.И. Психология формирования и развития личности. - М.: Наука, 1981.
 15. Архангельский Л.М. Ценностные ориентации и нравственное развитие личности. - М., 1987. - С. 64.
 16. Асеев В.Г. Мотивация поведения и формирования личности. - М.: Мысль, 1976. - 158 с.
 17. Асмолов А.Г. Личность как предмет психологического исследования. - М., 1984.
 18. Афанасьев В.Г. Системность и общество. - М., 1980. - С. 133.
 19. Афанасьева И.Г. Социалистические ценности и ценностные ориентации личности. - М.: МГУ, 1986. - 59 с.
 20. Ахаян Т.К. Характеристика классного руководителя как средство изучения общественной направленности учащихся // Герценовские чтения ЛГПИ им. А.И. Герцена. - Л., 1967. - С. 42-48.
 21. Балашатик Б. Уровень притязаний // Диагностика психического развития. - Прага, 1978. - С. 161-166.
 22. Бабанский Ю.К. Оптимизация учебно-воспитательного процесса. - М.: Просвещение, 1982. - 192 с.
 23. Бакштановский В.И. Моральный выбор личности: альтернативы и решения. - М., 1983.
 24. Балл Г.А. Теория учебных задач. - М.: Педагогика, 1990.
 25. Баллер Э.А. Преемственность в развитии культуры. - М.: Наука, 1969. - С. 15.
 26. Батракова И.С. Формирование коллективизма как ценностной ориентации в жизнедеятельности классного коллектива старшеклассников. Дис...д-ра пед. наук. - Л., 1980.
 27. Бауер А., Эйхгорн В. Философия и прогностика. - М.: Прогресс, 1971.

28. Берн Э. Игры, в которые играют люди. Люди, которые играют в игры. - М.: Прогресс, 1988.
29. Берне Р. Развитие "Я-концепции" и ее воспитание. - М.: Прогресс, 1986. - 422 с.
30. Бим-Бад Б.М. Педагогическая антропология. - М.: УРАО, 2003. - 208 с.
31. Битинас Б.П. Структура процесса воспитания. - Каунас, 1984. - 485 с.
32. Битинас Б.П. Некоторые проблемы измерения результатов воспитания учащихся / Измерения в исследовании проблем воспитания. - Тарту, 1973.
33. Бобнева М. И. Социальные нормы и регуляция поведения. - М., 1978. - 310 с.
34. Бодалев А.А. Личность и общение. - М., 1983.
35. Божович Л.И. Личность и ее формирование в детском возрасте. - М., 1968.
36. Бондаревская Н.В., Реан А.А. Педагогика. - СПб.: Питер, 2001. - 276 с.
37. Бороздина Л.В., Видинска Л. Притязания и самооценка. Вестник МГУ. Сер. 14. Психология. 1986. Н 3. - С. 21-31.
38. Братусь Б.С. О механизмах целеполагания // Вопросы психологии. 1977. Ч. 2. - С. 121 - 124.
39. Валлон А. Психологическое развитие ребенка. - М.: Просвещение, 1967. - 193 с.
40. Василенко В.А. Мораль и общественная практика. - М.: МГУ, 1983. - 175 с.
41. Василенко В.А. Ценности и ценностные отношения // Проблема ценности в философии. - М. - Л., 1966.
42. Василева З.И. Воспитание убеждений в процессе обучения. - Л., 1980.
43. Василева З. И. Единство воспитания и обучения школьников. - Л., 1980. - 36 с.
44. Василюк Ф.Е. Психология переживаний. - М.: МГУ. - 1984. -

- 200 с.
45. Веселова В.В. Билет в будущее. - М.: Знание. 1990.
 46. Вершловский С.Г. Воспитание активной позиции личности. -Л., 1981.-144 с.
 47. Вершловский С.Г. Учитель о себе и профессии. - Л., 1988. - 31 с.
 48. Вилюнас В.К. Психология эмоциональных явлений. - М.: МГУ, 1984. - 143 с.
 49. Вилюнас В.К. Теория деятельности и проблемы мотивации/А.Н. Леонтьев и современная психология/под ред. А.В. Запорожца, В.П. Зинченко, О.В. Овчинниковой, О.К. Тихомирова. -М.: Изд-во МГУ, 1983. - С. 191 - 200.
 50. Возрастные и индивидуальные особенности младших подростков/Под ред. Д.Б. Эльконина, Т.В. Драгуновой. - М., 1967. - 360 с.
 51. Волков Н.А. Динамика ценностных ориентации в структуре личностных характеристик у школьников. Дис. ... канд. псих, наук. - Л., 1983.
 52. Волков И.П. Воспитание творчеством // Вопросы психологии личности школьников/Под ред. Л.И. Божович, Л.В. Благоннадежиной. -М.,1961.-406 с.
 53. Гавриловес К.В. Теория и методика воспитания у школьников гуманного отношения к людям. Дис.... д-ра пед. наук. Л., 1989.
 54. Гаврилова Т.П. О воспитании нравственных чувств. - М.: Знание, 1984. - 73 с.
 55. Гегель Г. Энциклопедия философских наук. - М.. 1977. Т. 3. - С. 248.
 56. Гершунский В.С. Образовательно-педагогическая прогностика: методология, практика. - М.: Флинта, Наука, 2003. -768 с.
 57. Гончаров И.Ф. Эстетическое воспитание школьников средствами искусства и действительности. - М., 1986.

58. Громсева А.К. Самообразование школьников. - Л., 1988. -76 с.
59. Давыдов В.В. Проблемы развивающего обучения. - М., 1986. -С. 79.
60. Добрович А.В. Воспитателю о психологии общения. - М.: Просвещение, 1987.
61. Деятельность: теории, методология, проблемы. - М.: Политиздат, 1990. - 336 с.
62. Дмитриев Г.Д. Критический анализ дидактической мысли в США. - М.: Педагогика, 1987. - 103 с.
63. Дробницкий О. Проблемы нравственности. - М.: Наука, 1977. - 334 с.
64. Дробницкий О. Мир оживших предметов. Проблема ценности и марксистская философия. - М., 1967. - С. 33.
65. Дубровина И.В. Индивидуальные особенности школьника. -М., 1975. - 85 с.
66. Дубинин Н.Н., Карпес И.И., Кудрявцев В.И. Генетика, поведение, ответственность. - М., 1989. - 351 с.
67. Демин М.В. Диалектика познания. - Л., 1983.
68. Дяченко В.К. Организационная структура учебного процесса и ее развитие. - М.: Педагогика, 1989. - 160 с.
69. Jabborova O., Umarova Z. Boshlang'ich ta'lim diagnostikasi.- Toshkent, 2023
70. Занина Л.В., Меншикова Н.П. Основы педагогического мастерства.-Ростов-на-Дону: Феникс, 2003. -288 с.
71. Зисс В.Е. Преобразование нравственной позиции педагогически запущенных подростков в общественной деятельности. Дис...канд. пед. наук. - Л., 1990.
72. Засимовский А.В. Формирование общественной направленности личности в школьном возрасте. - М.: Изд-во МГУ, 1982. -200 с.
73. Зотова О.И. Направленность личности, социальная регуляция поведения молодежи //Психология личности и

- образ жизни. - М.: Наука, 1987.
74. Иззард К.Е. Эмоции человека. - М.: Изд-во МГУ, 1980. -427с.
 75. Каган М.С. Мир общения. - М.: Политиздат, 1988. -319 с.
 76. Казакина М.Г. Жизненные цели как компонент направленности личности школьников //Проблемы единства обучения и воспитания. - Л., 1978.
 77. Караковский В.А. Воспитавай гражданина: Записки директора школы. - М., 1987. - С. 50.
 78. Кириллова Г.Д. Совершенствование урока как целостной системы в условиях развивающего обучения. Дис. ... д-ра пед. наук. - Л., 1982.
 79. Кикнадзе Д.А. Потребности: поведение. Воспитание. - М.: Мысль, 1968.
 80. Komilov N. Komil inson – millat kelajagi. -Т.: O'zbekiston, 2001. -147 b.
 81. Кон И.С. Психология ранней юности. - М.: Просвещение, 1989. - 292 с.
 82. Кон И.С. Открытие "Я". - М.: Политиздат, 1984. - 367 с.
 83. Кондрайтева Н.И. Формирование системы знаний о живом организме у детей дошкольного возраста. Дис. канд. пед. наук. - Л., 1986.
 84. Конникова Т.Е. Роль коллектива в формировании личности школьника. Дис. ... д-ра пед. наук. - Л., 1970.
 85. Курганов С.Ю. Ребенок и взрослый в учебном диалоге. - М.: Просвещение, 1989.
 86. Леонтьев А.Н. Потребности, мотивы, эмоции. - М.: Изд-во МГУ, 1971. - 40 с.
 87. Личность в XX столетии. Анализ буржуазных теорий/Под ред. М.Б. Митина. - М.: Мысль, 1979. - 260 с.
 88. Mavrulov A. Ma'naviy barkamol inson tarbiyasi. -Т.: O'zbekiston, 2008. -80 b.
 89. Макаренко А.С. Сочинения в 8-ми т. - М., 1988.
 90. Мальковская Т.Н. Учитель - ученик. - М., 1977.

91. Mamadaliyev K., Risqulova K. Boshlang'ich sinflarda axborot texnologiyalari. – Toshkent, 2021.
92. Mardonov Sh.Q. Yangi ta'limiy qadriyatlar asosida pedagog kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish. –Т.:Fan, 2006. - 232 b.
93. Mardonov Sh.Q. va b. Pedagogik aksiologiya. –Т.: Fan va texnologiya, 2008. -184 b.
94. Mardonov Sh. Pedagogika fanidan o'qitishning elektron-modulli didaktik ta'minotini ishlab chiqish texnologiyasi. – Toshkent, 2021.-84 b.
95. Mardonov Sh., Zokirova U. Pedagogika nazariyasi va tarixi. – Toshkent, 2021.-272 b.
96. Mardonov Sh.K. Pedagogik aksiologiyaga kirish. Darslik. - Toshkent: Zebo print, 2023. -267 b.
97. Маркарян Э.С. Понятие культуры в системе современных социальных наук. - М.: Наука, 1973.
98. Ma'naviyat – asosiy tushunchalar izohli lug'ati. – Mualliflar jamoasi. – Toshkent, 2010
99. Мильтс А.А. Гармония и дисгармония личности. - М.: Политиздат, 1990.
100. Молодежь: Ориентации и жизненные пути. – Рига, 1988.
101. Musurmonova O. Ma'naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi.-Т.: O'qituvchi, 1996. -136 b.
102. Nazarov Q. Aksiologiya (Qadriyatlar falsafasi). –Т.:Akademiya, 2011. 384 b.
103. Наумова Н.В. Целеполагание как системный процесс. -М., 1982. - С. 17.
104. Неменский Б.М. Мудрость красоты. - М., 1987.
105. Nishonova M.Q. Milliy qadriyatlar va barkamol inson tarbiyasi//Xalq ta'limi. –Т., 1999, №3. –b.16-19.
106. Ortiqov N. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida o'quvchi shaxsini axloqiy shakllantirish: Ped.fan.dokt. ... diss. –Т., 2000. - 305 b.

107. Отношение школьников к природе/Под ред. И.Д. Зверева, И.Т. Суравегиной. - М.: Педагогика, 1988. - С. 128.
108. Ochilov M.O. Muallim – qalb me'mori. -Т.: O'qituvchi, 2001. - 429 b.
109. Пестерев В.Н. Цивилизация и ее исторические типы. -Л., 1987.
110. Печчеи А. Человеческие качества. - М., 1985.
111. Подласый И.П. Педагогика. Новый курс. В 2-х кн. -М.: ВЛАДОС, 2005. Кн.1. -574 с.; Кн. 2.-256 с.
112. Проблемы экологии человека/Казначеев Н.Н. - М.: Наука, 1986.
113. Прогнозирование развития общеобразовательной школы//Н.И. Скаткин, Б.С. Гершунский. - М., 1988.
114. Радина К.Д. Воспитание чувств у детей подростков в деятельности пионерской организации. - Дис. ... д-ра пед. наук.- Л., 1975.
115. Расчетина С.А. Цели и методы индивидуального подхода к подростку в воспитательном процессе. - Л., 1988. - 75 с.
116. Расчетина С.А. Взаимосвязь целей и методов воспитания в воспитательном процессе. Дис. ... д-ра пед. наук. - Л., 1988.
117. Регущ Л.А. Прогностическая способность учителя и ее диагностика. - Л., 1989. - 89 с.
118. Родионова Н.Ф. Взаимодействие педагогов и старших школьников: Технология и творчество. - Л., 1989. - 84 с.
119. Рубинштейн С.Л. Проблемы общей психологии. - М.: Педагогика, 1973. - 423 с.
120. Раймон Б. Общество и образование. - М.: Прогресс, 1989.- 200 с.
121. Саморегуляция и прогнозирование социального поведения личности/Под ред. В.А. Ядова. - Л., 1979. - 264 с.
122. Слостенин В.А. и др. Общая педагогика. В 2-ч. -М.: ВЛАДОС, 2003. Ч.1. -288с.; Ч.2. -256 с.
123. Sulaymonova F. Sharq va G'arb. -Т.: O'zbekiston, 1997. -415 b.

124. Taylanova Sh.Z. Talabalarda qadriyatli tasavvurlar tizimini shakllantirish yo'nalishlari. Uslubiy qo'llanma. -Т.: Fan va texnologiya, 2011. -56 b.
125. Титпма М.Х. Выбор профессии как социальная проблема. М.: Мысль, 1975.
126. Тугаринов В.П. Теория ценностей в марксизме. - Л.: Изд. ЛГУ, 1968.- 124 с.
127. Tulenov J. Qadriyatlar falsafasi. -Т.: O'zbekiston, 1998. -236 b.
128. Tulenov J., Valiyeva S. Qadriyatlar falsafasi. -Т.: TDPU, 2007. - 256 b.
129. Унт К Индивидуализация и дифференциация обучения. - М.: Педагогика, 1990. - 192 с.
130. Хекхаузен Х. Мотивация и деятельность. В 2-х т. - М.: Прогресс, 1986.
131. Xorazm Ma'mun akademiyasi. -Т.:Fan, 2005.-279 b.
132. Homidiy N. Tasavvuf allomalari. -Т.: Sharq, 204. -208 b.
133. Штракс Г.М., Штракс М.Г. Диалектика формирования научных убеждений. - М., 1985.
134. Шуркова Н.Г. Система воспитания нравственных отношений современного школьника. - Дис. ... д-ра пед. наук. - М., 1988.
135. Юсуфбекова Н.Р. Педагогическая аксиология как часть педагогической инноватики. Новые исследования в педагогических науках. - М., 1990. №2. - С. 3 - 6.
136. Якобсон П.М. Чувства, их развитие и воспитание. - М., 1976. - 64 с.
137. Hasanboyev J., To'raqulov X., Xaydarov M., Hasanboyeva O., Usmonov M. Pedagogika fanidan izohli lug'at. - Toshkent, 2009
138. Allport G. W. Personality and Social Encounter. -Boston. 1960.
139. Education towards Freedom. Rudolf Steiner Education. Lan ton 1976.
140. Kohlberg L. The development of Children Orientations towards a moral Order. - Chicago, 1963.

141. Maslow A. H. Foward a Personality of Being. - NY, Toronto - London, 1982. - 310 p.
142. Mutter R. Humanism and Education. - NY, 1974.

MUNDARIJA

	Muqaddima	3
I	Boshlang'ich sinf o'quvchilari ma'naviyatini	
Bo'lim	shakllantirish innovatsion metodikasining nazariy masalalari	5
1.1.	Ma'naviyatning mazmuni	5
1.2.	Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviyatni shakllantirishning zaruriyati	13
1.3.	Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviyatni shakllantirishning innovatsion ahamiyati	21
II	Boshlang'ich sinf o'quvchilari ma'naviyatini	
Bo'lim	shakllantirishning innovatsion didaktikasi	34
2.1.	Boshlang'ich sinf o'quvchilarida mashg'ulotlar vositasida ma'naviyatni shakllantirish innovatsiyasi	34
2.2.	Boshlang'ich sinf o'quvchilarida to'garaklar mashg'ulotlari vositasida shakllantirish innovatsiyasi	42
2.3.	Boshlang'ich sinf o'quvchilarida sinfdan tashqari mashg'ulotlar vositasida ma'naviyatni shakllantirish innovatsiyasi	51
III	Boshlang'ich sinf o'quvchilari ma'naviyatini	
Bo'lim	shakllantirishning innovatsion metodologiyasi	62
3.1.	Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviyatni shakllantirishning individual yo'naltirish innovatsion metodikasi	62
3.2.	Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviyatni shakllantirishning rag'batlantirish innovatsion metodikasi	71
3.3.	Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviyatni shakllantirishning tanlov innovatsion metodikasi	76
3.4.	Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviyatni	

shakllantirishning kitobxonlik tanlovi innovatsion metodikasi	81
IV Boshlang'ich sinf o'quvchilari ma'naviyatini Bo'lim shakllantirish innovatsion metodikasining istiqbolli yo'nalishlari	88
4.1. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviyatni shakllanganlik darajasini baholash istiqbolli yo'nalishi	88
4.2. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviyat ko'nikmalaridan foydalanishni o'rganish istiqbolli yo'nalishi	100
4.3. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviy rivojlanish jarayonini tartibga solishning istiqbolli yo'nalishi	110
Xulosalar	119
Foydalanilgan adabiyotlar	121

**Shukurullo Mardonov
Onaxon Jabborova**


**BOSHLANG'ICH SINFI O'QUVCHILARI MA'NAVIYATINI
SHAKLLANTIRISHNING INNOVATSION METODIKASI**

Muharrir:	X. Taxirov
Tehnik muharrir:	S. Melikuziva
Musahhih:	M. Yunusova
Sahifalovchi:	A.Ziyamuhamedov

Nashriyot litsenziya № 2044, 25.08.2020 й
Bichimi 60x84¹/₁₆. "Cambria" garniturasida, kegli 16.
Offset bosma usulida bosildi. Shartli bosma tabog'i 8,5. Adadi
100 dona. Buyurtma № 2192

Osiyo tur MCHJda chop etildi.

Tel.raqam: +998 94 673 66 56



ISBN 978-9911-264-78-7

